- Sudyalarning faoliyatiga aralashishga qarshi mustahkam kafolatlar joriy qilindi.
- Sudlar mustaqilligini ta’minlovchi muhim organ — Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi.
- Sudlar o‘zining moddiy-texnik va moliyaviy masalalarini mustaqil hal etish huquqiga ega bo‘ldi — bu vakolatlar ilgari Adliya vazirligi tasarrufida bo‘lgan bo‘lsa, endi Oliy sud tasarrufiga o‘tkazildi.

2. Sud tizimi soddalashtirilib, mustaqil yurituv tamoyili kuchaytirildi:

- Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirilib, yagona oliy sud organi shakllantirildi.



- 71 ta tumanlararo va tuman (shahar) iqtisodiy sudlariga bиринчи instansiya sud vakolati berildi.
- Nazorat instansiyasi tugatilib, “Bir sud — bir instansiya” tamoyili yo‘lga qo‘yildi.

3. Sudyalik lavozimlariga tayinlashda ochiqlik va shaffoflik:

- Sudyalikka nomzodlar tanlov asosida qabul qilinadigan tizimga o‘tdi.
- Sudyalik imtihonlari bиринчи marta onlayn efirda yoritila boshladi — bu esa jarayonni yanada ochiq va adolatli qildi.
- Nomzodlarni ko‘rib chiqish muqobililik asosida amalga oshirilmoqda.

4. Mustaqillikni mustahkamlovchi boshqa chora-tadbirlar:

- Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida qatnashish vakolati bekor qilindi, bu esa sud faoliyatiga tashqi ta’sirni kamaytirdi.
- Sud tizimining ishonchlilagini oshirish maqsadida aybiga iqrorlik bo‘yicha kelishuv instituti joriy qilindi.

Aynan mana shu islohotlar orqali sud tizimining mustaqilligi va adolatli sudloving ta’milanishi yo‘lida muhim bosqich bosib o‘tildi. Bularning barchasi — O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, sud hokimiyatining jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Sud tizimining mustaqilligini ta’minlash nafaqat milliy darajadagi islohotlar, balki xalqaro huquq normalariga ham to‘liq mos bo‘lishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, 1985-yil 26-avgustdan 6-sentyabrgacha Italiyaning Milan shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha VII Kongressida qabul qilingan “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” mazkur yo‘nalishda muhim xalqaro hujjat sifatida e’tirof etiladi. Ushbu hujjat BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 29-noyabrdagi 40/32-sonli rezolyatsiyasi bilan bir ovozdan ma’qullangan bo‘lib, u xalqaro hamjamiyat tomonidan sudyalar mustaqilligini baholashda asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

Mazkur prinsiplar quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

- Sud hokimiyatining mustaqilligi;
- So‘z va uyushish erkinligi;
- Sudyalik lavozimlariga tanlov va malaka mezonlari;
- Xizmat sharoitlari va vakolatlar muddati;
- Sudyalar uchun kasbiy sir va immunitet kafolatlari;
- Sudyalarni jazolash, lavozimidan chetlatish yoki ishdan bo‘shatish asoslari.

Bu prinsiplar asosida sud tizimi xolislik va mustaqillik tamoyillariga tayanishi kerak. Xususan, BMT Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining sharhiga ko‘ra, “xolislik” tushunchasi sudyalar ishni noxolis qarorlar yoki bir tomon manfaatlarini ko‘zlab emas, balki adolat tamoyiliga asoslanib ko‘rib chiqishlari lozimligini bildiradi. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi esa xolislikni subyektiv va ob’yektiv mezonlar orqali baholaydi:



ya’ni sud faqat xolis bo‘lishi emas, balki tashqi tomondan ham xolis ko‘rinishi zarur.

Shuningdek, sud hokimiyati mustaqilligi institutsional va individual mustaqillik sifatida qaraladi. Individual mustaqillik – bu har bir sudyaning vakolat muddati davomida tashqi aralashuvsiz mustaqil faoliyat yuritishi bo‘lsa, institutsional mustaqillik – sud hokimiyatining ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil ravishda faoliyat olib borishini anglatadi. Bunga ko‘ra, BMT prinsiplari 1-bandida quyidagicha belgilangan: “Sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va mamlakat Konstitutsiyasi yoki qonunlarida mustahkamlanadi. Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar sud organlari mustaqilligini hurmat qilishlari va bunga rioya qilishlari shart.”

Xulosa qilib aytganda, sud hokimiyati mustaqilligi faqat nazariy prinsip bo‘lib qolmasdan, amalda ham to‘liq joriy etilishi zarur. Faqat shundagina adolatga ishonch ortadi, fuqarolar huquqlari chinakam himoya topadi va jamiyatda qonun ustuvorligi qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948 yil 10 dekabr, BMT Bosh Assambleyasi
3. “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” – BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqburzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha 7-kongressida qabul qilingan (1985 yil, Milan). Qabul qilingan: BMT Bosh Assambleyasi, 1985 yil 29 noyabr, Rezolyutsiya 40/32.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sud_hokimiyati
5. <https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang>

МЕХНАТ QILISH VA ISHSIZLIK DAN HIMOYALANISH HUQUQINING
КОНСТИТУСИЯВИЙ HUQUQIY ASOSLARI

Raxmatullayev Mansur Farxod o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti Yurisprudensiya
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolarimizning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari hisoblangan erkin mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalanish huquqining asosiy jihatlari va xususiyatlarining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, ishsizlikdan himoyalanish huquqining amalga oshirish mexanizmlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ish beruvchi va xodimlar, adolatli mehnat sharoitlari, kambag’allikni qisqartirish choralari, ishchanlik jihatlari, mutlaq huquq, javobgarlik choralari, pasport, identifikatsiyalovchi ID-karta.

Bizning iqtisodiyot, siyosat, davlat – huquq va sud sohasida amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarish va islohotlarimiz pirovard natijada yagona maqsadga – xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish, odamlarning daromadi va farovonligini izchil oshirib borish, har bir insonga o‘zining intellektual, kasb va ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berishga qaratilishi darkor. [1]

Prezidentimizninig bu so‘zları davlatimizda fuqarolarning erkinliklarini ta’minlash, har jabxada ularga ularning huquqlarini ta’minlash va amalga oshirish maqsadida olib borilyotgan turli islohotlar natijasida o‘z isbotini topib kelmoqda.

Bizga ma’lumki, inson farovon hayot kechirishi uchun o‘zi sevgan kasbni egallashi va o‘zi xohlagan sharoitlarda erkin fao‘liyat olib borishi ham muxim hisoblanadi. Bu munosabatlarni tartibga solish maqsadida esa mehnat qonunchiligini takomillashtirish korxonalarda ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida yuzaga keluvchi nizolarni tez, samarali hal qilish, buzilgan huquqlarini tiklashning oqilona yo’llarini axtarish lozim.

Bizning ushbu maqolamiz ham aynan xuddi shunday mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalanish munosabatlarga bag’ishlanib, biz uning huquqiy yechimini topishimiz uchun asos bo‘ladigan hujjatlarni to‘xtalib o‘tamiz.

- O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasiining Ma’muriy javobgarlik to‘grisidagi kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasiining Jinoyat kodeksi;
- “Mehnat va mashg’ulotlar sohasida kamsitishlar to‘g’risida” 1958-yil Konvensiya;
- “Aholi bandligi to‘g’risida”gi qonun va boshqa qonun hujjatlari.

Demak, biz ushbu masalalarni birma bir hal etib chiqish orqali bizga berilgan ushbu kazusning huquqiy jihatdan yechimini topib, unga tahliliy yakuniy xulosa berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz va shu bilan birga kazusda aytib o‘tilgan subektlarning ham harakatlariga huquqiy jihatdan baho beramiz.

Maqolamizni asosiy qonunimiz hisoblangan bosh qomusimiz bo‘lmish Konstitutsiyamizning 42- moddasini eslatib o‘tish bilan boshlashni maqsad qilib oldik.



Unga ko‘ra har bir shaxs mehnat qilish erkin kasb tanlash va adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida esa Davlat fuqarolarning bandligini ta’minalash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag’allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi keltirib o‘tilgan.

Avvalo birinchi navbatda ishsizlik va ishsiz tushunchalariga ta’rif berib o‘tishni lozim topdik.

ishsizlik — mehnat bozorida talabga ega bo‘lmagan mehnatga layoqatli ishchi kuchining mavjudligi;

ishsizlar — O‘n olti yoshdan to pensiya ta’minoti huquqini olish yoshigacha bo‘lgan, haq to‘lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg’ulotga ega bo‘lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo‘lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o‘tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, ishga joylashishda ko‘mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va ushbu organlar tomonidan ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olingan mehnatga layoqatli shaxslar (bundan ta’lim muassasalarida ta’lim olayotganlar mustasno). [2]

Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz lozimki, unumli va ijodiy mehnat qilishga bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug‘ullanish har kimning mutlaq huquqidir. Ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo‘lmaslik javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lолmaydi.

Fuqarolarimiz ishsizlik holatda quyidagi hollarda ish qidirishi mumkin. Bular:

- Har kim ish beruvchiga bevosita murojaat qilish;
- Mehnat organlarining bepul vositachiligi orqali ish joyini erkin tanlashi mumkin.

“Aholi bandligi to‘g’risida”gi qonunida bandlikka ko‘maklashish, ishsizlikdan himoyalash va ishsiz shaxslarga davlat tomonidan beriladigan kafolatlar belgilab qo‘yilgandir.

Ushbu qonunning 5-moddasiga ko‘ra: aholini ish bilan ta’minalash sohasidagi davlat siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy avoli va mansab mavqeidan, denga munosabati, e’tiqodidan, jamoat birlashmalariga mansubligidan, shuningdek xodimlarning ishchanlik jiatlariga hamda ular mehnatining natijalariga bog‘liq bo‘lmagan boshqa xolatlardan qat’i nazar teng imkoniyatlarni ta’minalash;
- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta’minalaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;
- ish bilan ta’minalish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta’minalash;
- ish bilan ta’minalish sohasidagi tadbirlarni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan muvofiqlashtirish;



- aholini ish bilan ta'minlash muammolarini xal qilish sohasida davlatlararo hamkorlik.

Mehnat kodeksi 124-moddasida ishga qabul qilish vaqtida talab qilinadigan hujjatlar doirasi keltirib o'tilgan. Unga ko'ra ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni:

- pasportni yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatni yoxud identifikatsiyalovchi ID-kartani, o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar esa tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani;

- oxirgi ish joyi bo'yicha tasdiqlangan qog'oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmani, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno. O'rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasining o'rniga asosiy ish joyidan olingan belgilangan namunadagi ma'lumotnomani taqdim etadi;

- harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar uchun tegishincha harbiy guvohnomani yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani;

- oliy yoki o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomni, qaysi ishni bajarish uchun faqat maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar qo'yilishi mumkin bo'lsa, o'sha ishga kirish chog'ida ushbu ishni bajarish huquqiga doir guvohnomani (sertifikatni) yoxud boshqa tegishli hujjatni;

- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qiladgan bo'lsak, mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalanish huquqi – bu inson huquqlarining bir turi bo'lib, u bizga munosib hayot kechirish, jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish uchun shart-sharoitlarni kafolatlaydi, bunda har bir kishi farovonlikka erishishi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi hamda baxtli bo'lishi va o'z hayotidan rozi bo'lishini ta'minlash nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, ushbu huquqlar insonning asosiy ehtiyojlarini va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. I.A. Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'lli. – T.: O'zbekiston, 2007. – 46 b.

2. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 03/25/1066/0454-sod



XALQIGA MUNOSIB FARZANDNING HAYOT YO'LI VA HAYOT
XULOSALARI

Yaxshiboyev Mirvohid Gulboy o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy
fanlar fakulteti Jurisprudensiya: Biznes
huquqi yo'nalishi 3-bosqich talabasi.
+998930600316

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining atoqli farzandi, yurtiga cheksiz xizmati singan buyuk huquqshunos Akmal Saidovning hayot yo'li, erishgan yutuqlari, jahonning ko'plab mamlakatlarida bosilib chiqarilgan dolzarb kitoblari va maqolalari, xuddi shuningdek hayot xulosalari haqida fikr va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro huquq, Milliy markaz, Spiker, demokratik institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, Konstitutsiyaviy huquq, Fanlar akademiyasi, Islom Hamkorlik Tashkiloti.

Inson, uning erki, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish masalasi nafaqat bugungi kun yoki o'tgan asrlar, balki, qadimgi davr siyosatining ham muhim jihat bo'lib kelgan. Aynan shu tomondan olib qaraganda, amaliyatda deyarli barcha mamlakatlar o'zlarining "inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi"ni ishlab chiqqanlar". Mustaqillik yillarda yurtimizda ham inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari to'g'risidagi masalalar bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari tizimi shakllanib ulgurdi. Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga ko'ra, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning asosiy tarkibiy elementi etib sudlov organlari belgilab qo'yilgan, chunki har bir buzilgan inson huquqlarini tiklovchi rad etib bo'lmaydigan va hal qiluv qarorlari sudlar tomonidan chiqariladi. E'tiborlisi, O'zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar (masalan, prokuratura) va sudlov organlari bilan bir qatorda, nodavlat-notijorat tashkilotlari hamda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar ham shakllangan bo'lib, o'z faoliyatlarining bosh vazifasi etib inson huquqlarini himoya qilishni belgilab qo'yishgan. Mana shunday nosudlov institutlardan biri 1996-yil 31- oktabrda tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi hisoblanadi[1]. Mazkur markaz tuzilganidan buyon uning faoliyatiga rahbarlik qilishda bugungi kungacha Akmal Saidov jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

Akmal Xolmatovich Saidov-Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinosi, ungacha Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'mitasi raisi, yuridik fanlar doktori, akademik, professor.



Akmal Saidov 1958-yilning 11-oktabrida Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanida tavallud topgan, millati-o'zbek. Oilali, ikki nafar farzandi bor. Akmal Saidov tirishqoq va qat'iyatli o'quvchi sifatida o'rta ma'lumotni olgach, Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)ning huquqshunoslik fakultetiga o'qishga qabul qilinadi. 1981-yilda o'zining huquq sohasida yetakchilardan biri ekanligini namoyon qila olgan Akmal Saidov imtiyozli asosda bakalavr diplomiga ega bo'ladi. Ammo bu hali hammasi emas edi. izlanishlari natijasida 1984-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan bu siyosiy arbob oradan 6 yil o'tib, ya'ni 1990-yilda yuridik fanlar doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ladi. Akmal Saidov olim sifatida 1984-yilda „Sovet qiyosiy huquqining nazariy muammolari“ mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Mehnat faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jahon muammolari institutida direktorlik lavozimida faoliyat yuritish asnosida esa xalqaro va qiyosiy huquq professori unvoniga ega bo'lgan. 2017-yildan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi hisoblanadi. O'zining ilk mehnat faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi falsafa va huquq instituti ilmiy xodimi sifatida boshlagan Akmal Saidov 1985-1989-yillar davomida bo'lim mudiri lavozimigacha ko'tariladi. Shundan so'ng, 1989-1990-yillarda O'zbekiston SSR Komsomol ittifoqi raisi bo'lib ish yuritgan. 1990-1991- yillar oralig'ida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi falsafa va huquq instituti direktori darajasigacha ko'tarilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganidemdek, Akmal Saidov 1991-1993-yillarda O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Jahon muammolari instituti direktori sifatida faoliyatini natijasi o'laroq 1993-yili xalqaro va qiyosiy huquq professori unvonini olgan. 1993-1994-yillarda esa Toshkent davlat yuridik instituti rektori lavozimida ishlagan. 1994-1996-yillarda O'zbekiston Respublikasining Fransiyadagi favqulodda va muxtor elchisi, shuningdek, Ozbekistonning YUNESKO huzuridagi doimiy vakili sifatida faoliyat yuritgan. Favqulodda va muxtor elchi diplomatik martabasiga ega [2].

Oldinroq e'tirof etilganidek, 1996- yilda faoliyatini boshlagan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy markazi faoliyatiga rahbarlik qilish Akmal Saidovga topshirilgan. Bundan tashqari, 2000-yildan to 2020-yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'mitasi raisi hamda 2020-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinosari hisoblanadi. 2018-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat kengashi raisi, 2019- yildan esa Parlamentlararo Ittifoqning Ijroiya qo'mitasi a'zosi, 2023-yilning oktabr oyiga qadar esa ushbu tashkilotning vitse-prezidenti hisoblanadi. Bundan tashqari, 2019-2020-yillar davomida Akmal Saidov Islom Hamkorlik Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi lavozimida, 2020-yildan esa ushbu tashkilotning vitse-prezidenti lavozimida o'z faoliyatini olib bormoqda.



Ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, Akmal Xolmatovich Saidov Konstitutsiyaviy huquq xalqaro assotsiatsiyasining haqiqiy a'zosi, Xalqaro qiyosiy huquq akademiyasining muxbir-a'zosi, Fransiya qiyosiy huquqshunoslik jamiyatining xorijiy a'zosi, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi yuristlari xalqaro assotsiatsiyasi va Rossiya huquq assotsiatsiyasi a'zosi, Parij-1 Sobronna universitetining taklif qilingan professori bo'lib, qariyb 30 yillik parlament va siyosatda yuritgan faoliyati davomida Akmal Saidovning nomzodi ikki marotaba O'zbekiston Respublikasining Prezident saylovlarida tavsiya etilgan. Ma'lumki, 2002-yilning 27-yanvaridagi referendum natijalariga ko'ra, Prezident vakolati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi va mos ravishda keying saylov 2007-yilda bo'lib o'tdi. Bunda Akmal Saidov saylovchilar faolligi 90.6 foizni tashkil etgan Prezident saylovida mustaqil nomzod sifatida 2.94 foiz ovozga ega bo'ldi. 2015-yilning 29-martida o'tkazilgan keyingi saylovda Milliy tiklanishl demokratik partiyasidan nomzod Akmal Xolmatovich Saidovga 582 ming 688 nafar (umumiy hisobda 3.08 foiz) saylovchi ovoz berdi.

Akmal Saidov faqatgina siyosiy faoliyat yuritingina qolmasdan, bugungi kunga qadar qiyosiy huquqshunoslik, xalqaro huquq, davlat va huquq nazariyasini va tarixi, inson huquqlari hamda konstitutsiyaviy huquq bo'yicha 30 ta darslik va o'quv qo'llanmalar, 350 dan ortiq risola va ilmiy maqolalar muallifi hisoblanib, ulardan eng dolzarblari Xadicha Sulaymonova haqidagi 1993-yilda chop etilgan maqola, "O'zbekistonda ayollar huquqlari" kitobi (o'zbek, rus, ingliz tilida. 2010-yil), O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi hamda buyuk davlat arbobi, mohir diplomat, sarkarda, fan va madaniyat homiysi Amir Temur tavalludining 680 yilligiga bag'ishlangan, taniqli fransuz olimi Keren Lyusyen bilan hamkorlikdagi "Amir Temur va Fransiya" kitobi, "Qiyosiy huquqshunoslikka kirish" darsligi va boshqa darsliklar hisoblanadi [3].

Asarlari dunyoning ko'plab mamlakatlari, xususan, Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Avstriya, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Polsha, Belgiya va boshqa mamlakatlarda chop etilgan.

Darhaqiqat, Akmal Saidovning xalqimiz, yurtimiz, uning ravnaqi va xalqaro rolini oshirish, inson huquq va erkinliklarini himoyalash borasidagi jonbozliklari e'tiborsiz qolgan emas. Jumladan, Akmal Saidov bir nechta davlat mukofotlarining sovrindori hisoblanadi. 2001-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni, 2006-yil "Do'stlik" hamda "El-yurt hurmati" ordenining 2017-yilda berilishi so'zimning tasdig' idir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'z mehnati, ilmiy mehnatsevarligi bo'lgan, xalq farovonligi hamda yurt kelajagi uchun qayg'uradigan, Respublikaning taraqqiyoti va yuksalishida o'ziga xos va ulkan hissador bo'lgan Akmal Saidov kabi insonparvar yurtdoshlarimiz har doim ulug'lanishga munosib va biz yosh huquqshunoslар uchun Akmal Saidovning hayot yo'li va faoliyati doimiy o'rganilishi va saboq olinishi lozim bo'lgan katta maktabdir .



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida”gi PF-1611сон. 31.10.1996.
2. <http://parliament.gov.uz/uz/about/structure/deputy/550/>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/01/akmal-saidov/>



Диёров Баҳриддин Махмуджонович

Судьялар Олий кенгаши хузуридаги Судьялар

олий мактаби Жиноят ҳукуқи ихтисослиги

tinglovchisi

+93-793-56-00

Аннотация. Жиноий жазо — бу жиноят содир этган шахсга давлат томонидан қўлланиладиган жазо чораси. Жиноий жазо жиноят қонунлари асосида белгиланади ва унинг мақсади жиноятларнинг олдини олиш, жамиятда тартибни сақлаш ва жиноятчиларни жавобгарликка тортишдир.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 43-моддасига кўра, жиноят содир этишда айбли деб топилган шахсларга нисбатан қўйидаги асосий жазолар қўлланилиши мумкин:

- 1) жарима;
- 2) муайян ҳукуқдан маҳрум қилиш;
- 3) мажбурий жамоат ишлари;
- 4) ахлоқ тузатиш ишлари;
- 5) хизмат бўйича чеклаш;
- 6) озодликни чеклаш;
- 7) интизомий қисмга жўнатиш;
- 8) озодликдан маҳрум қилиш;
- 9) умрбод озодликдан маҳрум қилиш.

Маҳкумларга асосий жазолардан ташқари ҳарбий ёки маҳсус унвондан маҳрум қилиш тарзидаги кўшимча жазо ҳам қўлланилиши мумкин.

Хизмат бўйича чеклаш ёки интизомий қисмга жўнатиш тариқасидаги жазолар фақат ҳарбий хизматчиларга нисбатан қўлланилади.

Муайян ҳукуқдан маҳрум қилиш фақат асосий жазо сифатидагина эмас, балки кўшимча жазо тариқасида ҳам қўлланилиши мумкин.

Калит сўзлар: қасд, тўғри қасд ёки эгри қасд, эҳтиётсизлик, ўз-ўзига ишониш, бепарволик, қасд, объектив ва субъектив белгилар, мотив ва мақсад, суд, жиноят процесси, тергов ҳаракатлари, кодекс.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг Маҳсус қисми моддалари жиноятларни таснифлаш таҳлилига кўра 274 та модда ҳамда 621 та жиноят таркибидан иборат бўлиб, ўта оғир жиноятлар 62 та, оғир жиноятлар 115 та таркибни, унча оғир бўлмаган жиноятлар 156 та, ижтимоий хавфи катта бўлмаган жиноятлар таркиби 288 тани ташкил этади. Қайд этиш лозимки, ушбу рақамлар ўзгарувчан бўлиб, жиноят қонунчилиги тегишли ўзгартиришлар киритилиши, масалан, криминализация ёки декриминализация, пенализация ёки депенализация, жиноят санкцияси миқдори ёки муддатининг ўзгариши жиноят таснифига оид рақамларнинг ҳам ўзгаришига олиб келади.

Жиноятларни таснифлашда Жиноят кодексининг Маҳсус қисми санкциясидаги жазо муддатини белгилашда Жиноят кодексининг 15-моддаси қоидалари инобатга олинмаганлиги намоён бўлади. Масалан, ўта оғир жиноятларга қасдан содир этилиб, қонунда ўн йилдан ортиқ муддатга озодликдан маҳрум



қилиш ёхуд умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган жиноятлар киради. Жиноят кодекси Махсус қисмида 62 та таркибда ўта оғир жиноятлар таснифига киради. Шу билан бир қаторда, ўта оғир жиноятларнинг айримларида жазонинг минимал миқдори ўн йилдан кам этиб белгиланган. Масалан, ЖКнинг 135-модда сининг 4-қисмида саккиз йилдан ўн икки йилгача, 154-моддаси 2-қисмида етти йилдан ўн икки йилгача, 169-моддаси 4-қисмида саккиз йилдан ўн беш йилгача, 175-моддаси 2-қисмида саккиз йилдан ўн икки йилгача, 178-моддасида 3-қисми саккиз йилдан ўн икки йилгача, 186-1-моддасида 3-4-қисмлари етти йилдан ўн икки йилгача, 255-1-моддаси 2-қисмида саккиз йилдан ўн беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган. Юқоридаги санкцияларнинг белгила нишида, бизнингча, ЖКнинг 15-моддаси қоидаларига амал қилинмаган. Фикримизча, бунда ўта оғир жиноятлар санкцияси белгиланишида жазонинг минимал миқдори ҳам ўн йилдан ортиқ бўлиши назарда тутилиши лозим.

Қайд этиш лозимки, ўта оғир жиноятлар учун Жиноят кодексининг Махсус қисми санкциясида фақат озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган бўлиб, ЖКнинг 155-моддасининг 3-қисми ҳамда 97-моддасининг 2-қисмида озодликдан маҳрум қилиш жазосига муқобил умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган. Жиноят кодексининг Махсус қисми моддалари ва уларнинг қисми кесимида таҳлил қилинганда 115 та оғир жиноят таркиби бўлиб, Жиноят кодексининг 15-моддасига асосан, оғир жиноятларга қасдан содир этилиб, қонунда беш йилдан ортиқ, лекин ўн йилдан кўп бўлмаган муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган жиноятлар кириши белгиланган, айрим оғир жиноятларда жазонинг минимал миқдори беш йилдан кам этиб белгиланган бўлса-да, ЖКнинг оғир жиноятлар таснифига кирган 103-моддасининг 1-қисми, 118-119-моддаларнинг 1-қисми, 186-модданинг 3-қисми, 186-2-модданинг 2-қисми, 283-модданинг 2-қисмлари санкциясида уч йилдан етти йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган. ЖКнинг 278-моддасининг 1-қисмида етти йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган.

Жазо турларининг таъсирчанлик даражаси жиноий жазо тизимининг самарадорлигини баҳолашнинг муҳим йўналишларидан бири хисобланади. Жазо турларининг ҳар бири жиноятчига таъсир кўрсатишда турли даражада самарали бўлиши мумкин. Шунингдек, ҳар бир жазо тури жиноятнинг хусусиятига, унга қўйиладиган мақсадларга ва ижтимоий шарт-шароитларга қараб, ўзининг таъсирчанлик даражасини ошириши ёки пасайтириш мумкин. Жазо турлари ўзининг психологик, ижтимоий ва профилактик таъсирини ҳар хил кўрсатади.

Жарима давлатнинг мажбурлов чораси сифатида айбордога иқтисодий таъсир кўрсатиш орқали жиноят содир этган шахснинг мулкий хукуқларини чеклашдан иборатdir. Шунинг учун ҳам жарима жазо тизимида кўрсатилган жазо чораларининг энг енгили хисобланади.

Жиноий жазо сифатида белгиланган жарима шахсни муайян моддий мулқдан маҳрум қиласди. Жарима катта ижтимоий хавф туғдирмайдиган жиноятлар учун энг самарали таъсир воситаларидан бири бўлиб, у суд амалиётида энг кўп қўлланиладиган жазо туридир. Айни пайтда, жарима атрофдагиларга ҳам тегишли



тарзда таъсир қилиши керак.¹

Муайян хуқуқдан маҳрум қилиш жазосини белгилашдан асосий мақсад айбдорнинг хизмат вазифаси билан боғлиқ жиноий фаолиятини чеклаш ва шу билан бирга янги жиноят содир этишнинг олдини олишдан иборат².

Қамоққа олиш жиноятчига тажриба, жамиятдан алоҳида бўлиш, ижтимоий қатордан четлатиш каби таъсир кўрсатади. Шу билан бирга, қамоқ жиноятчиларнинг қайта шаклланиши ва реабилитациясини таъминлаш учун зарур шарт-шароитлар мавжуд бўлса, самарали бўлиши мумкин. Лекин, агар қамоқ шароити салбий ва ижтимоий қайта шакллантириш учун дастурлар йўқ бўлса, қамоққа олишнинг таъсири камайиши мумкин. Қамоқхонада бўлиш жиноятчи учун психологиявий хавфларни ҳам түғдиради. Одам жамиятдан алоҳида қилинса, унинг ижтимоий ва психологик саломатлигига таъсир қилиш хавфи ортиши мумкин.

Жиноятчига таъсири кўп ҳолда суднинг назоратидаги шароитларда амалга ошириладиган профилактик ва педагогик ишга боғлиқ. Масалан, жиноятчига қайтиб ўрганиш ёки касб-ҳунар ўргатиш каби ўқитиш ва тарбиялаш дастурларини тақдим этиш унинг ижтимоий ҳаётига катта таъсир кўрсатиши мумкин. Агар бундай шароитлар етарли бўлса, жиноятчига иш ва ёрдам кўрсатиш, қайта шакллантириш имкониятлари берилса, бу тарбиялаш самарадорлигини оширади.

Жазо сифатида фақат мажбурлов хусусиятига эга бўлган таъсир чораси тан олинади, яъни жазо қўлланилаётган ёки бошқа шахсларнинг ихтиёридан қатъи назар ижро этилади. Бу ўринда жазо қўлланилаётган шахсга нисбатан субъектив муносабатда бўлиш, унинг мажбурий хусусиятига таъсир этмайди. Жазо айбдор томонидан ихтиёрий тарзда ёки унинг ихтиёрига қарши мажбурий равишда ижро этилади, яъни бу ўринда унинг мажбурий эканлиги намоён бўлади.

Жазонинг мажбурий хусусияти, жазони айбдор томонидан, шунингдек, жазони ижро этувчи орган ходимлари, муассасалар маъмурияти томонидан ижро этилишини билдиради. Айни пайтда, ушбу характер қандайдир субъектив омилларга боғлиқ бўлган ва амалга оширилиши лозим бўлмаган бошқача таъсир ўтказиш чораларини жазо чораси сифатида тан олинмайди, хусусан, қўндириш, тарбиявий характерга эга бўлган чоралар ва ҳоказолар жазо сифатида ҳисобга олинмайди.

Жазони тайинлаш, яъни жиноят кодексининг маҳсус қисмидаги тегишли модда доирасида жазонинг аниқ тури ва ҳажмини танлаш фақат судга берилган хукуkdir. Фақат суд - давлат ҳокимиятининг алоҳида бир бўлаги сифатида содир этилган жиноят учун жазо тайинлаш хуқуқига эга. Давлатнинг бошқа органлари хусусан, ижро этувчи ва қонун чиқарувчи органлар бундай ваколатларга эга эмас.

Жиноий жазо ўта шахсий характерга эга бўлиб, жиноий жазо фақат жиноят содир қилишда айбдор бўлган шахсларга нисбатан тайинланади. Жиноий жазо жиноятчининг шахсига қаратилган бўлиб, ҳатто у жавобгарликдан қочган вақтда ҳам, ундан бошқа шахсга нисбатан қўлланилмайди. Шахс айби исботланган қилмиши учунгина жиноий жавобгарликка тортилади. Жиноий жазо шахсий хусусиятга эга бўлиб, фақат жиноят содир этишда айбдор, деб топилган шахсларга

Июнь | 2025, 1-кисм

¹ А.С.Якубов. Р.Кабулов ва бошқ. Жиноят хукуки. Умумий қисм: Дарслик/-Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014.-Б.312.

² А.С.Якубов. Р.Кабулов ва бошқ. Жиноят хукуки. Умумий қисм: Дарслик/-Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. Б. 313



нисбатан қўлланилиши мумкин. Жиноий жазо фақат жиноят содир қилган шахснинг ўзигагина қўлланади, маҳкум жазонинг ижросидан қочганда ҳам жазо унинг оила аъзоларига ёки оила аъзоларидан бирига нисбатан қўлланилиши мумкин эмас.

Фойдаланилган адабиётлар:

Ўзбекистон Республикасининг [Конституцияси](#). Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон// <https://lex.uz/uz/docs/6445145>.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.04.1995й., <https://lex.uz/docs/111460>.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.04.1995й., <https://lex.uz/docs/111450>.

Жиноят хуқуқи. Умумий қисм. Очилов Х.Р., Хайдаров Ш.Д., Шамсидинов 3.3., 2021 йил, ТДЮИ нашриёти 172 бет

Ҳ.И.Исмоилов, - Жиноят хуқуқи (жиноий жазо турлари). Ўкув қўлланма. – Т.: БИ, 2020 й. 88 б.



**КУЧЛИ РУХИЙ ҲАЯЖОНЛАНИШ (АФФЕКТ) ҲОЛАТИДА ҚАСДДАН
ОДАМ ЎЛДИРИШ ЕНГИЛЛАШТИРУВЧИ ТАРКИБЛИ ЖИНОЯТИ
СИФАТИДА**

Эркабоев Отабек Аҳаджон ўғли

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий
кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий
мактаби тингловчиси

Аннотация: Мазкур мақолада муаллиф кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида қасдан одам ўлдириш енгиллаштирувчи таркибли жиноят сифатидаги ўзига хос хусусиятларни ёритган. Кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) - инсонни ташқи ва ички таъсирларга муносабатини белгилайдиган эмоциянинг бир кўриниши сифатида таърифланади. У умумий психологияда онгни сезиларли ўзгартирувчи, иродавий бошқарувни бузувчи ва организм фаолиятига таъсир қилувчи кучли эмоционал ҳолат сифатида қаралади. Муаллифнинг таъкидлашича, қасдан одам ўлдириш жиноятларининг 48–50 фоизида жабрланувчининг хулқи, қарашлари ва муносабати жиноятчида жиноят содир этишга туртки бўлади. Бу ҳолатда жиноятчи ва жабрланувчи ўртасидаги муносабатлар мухим аҳамият касб этади. Хулоса қилиб, муаллиф кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатини ташқи ва ички омилларнинг ўзаро таъсири натижасида юзага келувчи ҳолат сифатида баҳолайди.

Калит сўзлар: аффект, кучли рухий ҳаяжонланиш, енгиллаштирувчи таркибли қасдан одам ўлдириш, фрустрация, зарар етказиш, қўзгалувчанлик, ҳаяжонланиш.

Жиноят мотиви ва мақсади билан бир қаторда жиноят содир этган шахснинг эмоционал ҳолати жиноятни тўғри тавсифлаш ва унга қарши курашнинг криминологик чора-тадбирларини ишлаб чиқишида мухим аҳамият касб этади. Эмоция сўзи лотин тилидаги etoveo сўзидан олинган бўлиб, “ҳаяжонланаман”, “ларзага келаман”, деган маъноларни англатади.

Психология ва фалсафа фанларида вужудга келиш шакли ва давомийлигига кўра шахс эмоционал ҳолатини тўрт асосий шакли ажратиб кўрсатилади. Булар ҳиссиёт, аффект, эҳтирос ва кайфият. Бу тушунчалар ўзининг вужудга келиш шакли ва давомийлиги ҳамда субъект психикасига кўрсатадиган таъсирига кўра бир-биридан ажralиб туради. Шу боис, эмоционал ҳолатнинг барча шакллари бирдек жиноят-хуқуқий аҳамият касб этмайди ва жиноят субъектив томонининг таркиби сифатида намоён бўлмайди. Жиноят хуқуқи фақатгина жиноят содир этишга тайёргарлик кўриш ва уни содир этишга бевосита дахлдор эмоционал ҳолат шаклларинигина ҳисобга олади ҳамда ўрганади.

Аффект ҳиссиёт ва эҳтирос каби инсонни ташқи ҳамда ички таъсирларга баҳо бериши, унга бўлган муносабатини белгилаб берувчи функциялари фаолиятини ўзида намоён қилувчи эмоциянинг бир кўринишидир. Инсон ички регулятив фаолиятининг бир шакли сифатида аффект субъектнинг унга таъсир кўрсатувчи обьект ёки вазиятга бўлган муносабати ёхуд реакцияси сифатида намоён бўлади. Шу боис, аффектнинг пайдо бўлиши ва унинг кучини баҳолашда



юзага келган вазият ёки ҳолатни баҳолаш муҳим аҳамият касб этади.

Мустақиллик йилларида республикамида жисмоний ёки руҳий мажбурлаш ёки қўрқитиши натижасида жиноят содир этганлик учун жавобгарликни белгилаш, уни ҳалқаро стандартларга мувофиқлаштиришга аҳамият берилди, фуқароларнинг ҳукуқлари ва эркинликлари, жамият ва давлат манфаатларини самарали ҳимоя қилишга тўсқинлик қиласидиган ҳукукий бўшлиқлар ва қарама-қаршиликларни бартараф этиш ҳамда Жиноят кодексида қўлланиладиган атама ва тушунчаларни уларнинг мазмунига аниқ таъриф бериш ҳамда ягона шаклда қўллаш орқали такомиллаштириш бўйича қатор чора-тадбирлар амалга оширилди. Шу нуқтаи назардан, мазкур йўналиш суд-ҳукуқ соҳасини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари қаторида белгиланиб, бу соҳани тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Маълумки, жиноят қонунчилигининг самарали тизимини яратиш давлатнинг қонунийлик ва ҳукуқ-тартиботни таъминлаш, инсон ҳукуқ ва эркинликлари, жамият ва давлат манфаатлари, тинчлик ва хавфсизликни ишончли ҳимоя қилиш бўйича устувор вазифаларидан бири ҳисобланади. Шу жихатдан ҳам “Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора- тадбирлари тўғрисида”ги Концепцияда қилмишнинг жиноийлигини истисно қилувчи ҳолатларни белгиловчи нормаларни такомиллаштириш назарда тутилган. Бундан ташқари, 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ва “Ўзбекистон — 2030” стратегиясида ҳам жиноят қонунчилигини такомиллаштириш сиёсатини изчил давом эттириш, жиноий жазолар ва уларни ижро этиш тизимига инсонпарварлик тамойилини кенг жорий этиш изчил давом эттирилиши белгиланди. Материал ва методлар кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида қасддан одам ўлдириш жиноятини енгиллаштирувчи таркибли жинояти сифатида ўзига хос хусусиятларини ўрганиш, мазкур ҳолатни назарда тутувчи қонун ҳужжатлари нормаларини таҳлил қилиш. Бунинг учун таҳлил, тарихий-қиёсий услуб, абстракция ва таққослаш сингари илмий идрок этиш усулларидан фойдаланилган. Тадқиқот натижалари О.Ситковская аффектни “вақтингчалик руҳий қасаллик саналмайдиган, инсонни бутунлай эгаллаб оловчи ва унинг хулқ-атворига сезиларли даражада таъсир қилувчи шиддат билан юзага келадиган ҳиссий портлаш”, деб таърифлайди. Ф.Сафуанов эса “аффектни хулқ-атворнинг онгли-иродавий бошқарилиш қобилиятини чекловчи ва уч даврли ривожланиш шаклига эга бўлган тўсатдан юзага келадиган ҳиссий ҳолат сифатида эътироф этади”.

Аффект ҳиссиётнинг табиий асосидан келиб чиқувчи бошқариб бўлмайдиган (беихтиёрий), кўп ҳолларда мақсадсиз кечувчи эмоционал ҳолат сифатида намоён бўлади. Аммо бу белгилар аффектни инсоннинг ақли расолигини истисно қилувчи патологик руҳий ўзгаришлар тоифасига киритишимизга асос бўлмайди. Аффект инсоннинг бирон-бир қўзғатувчи ҳодисага нисбатан нормал руҳий муносабати саналади. Шу сабабли ҳам аффект ҳолатида содир этилган ижтимоий хавфли қилмишлар жиноий жавобгарликка лойидир. Бу ҳолатда шахс ҳаракатларининг мақсади аниқ бир вазиятга боғлик равишда вужудга келади. “Аффект - бу аниқ бир ҳолатларда шахсни жиноят содир этишга ундовчи кучли руҳий ҳаяжонланишдир. Шу боис, жиноят қонунида ижтимоий хавфли қилмишни аффект ҳолатида содир этганлик учун жиноий жавобгарлик ўрнатилган.

Кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида содир этилган қасддан одам



ўлдириш жиноятини енгиллаштирувчи ҳолатда содир этилган деб топишнинг белгиси сифатида ЖК 98-моддасида кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолати назарда тутилган. Мазкур жиноят жабрланувчининг ғайриқонуний ва ахлоққа зид хулқ-атворига нисбатан жавоб реакцияси сифатида намоён бўлади. Айнан жабрланувчининг ғайриқонуний ва ахлоққа зид хулқ-атвори “кечиримли” ҳолат сифатида намоён бўлади ва жиноятни ижтимоий хавфлилик даражаси пасайишига сабаб бўлади. Жиноят кодекси 98-моддасида назарда тутилган жиноятлар инсон ҳаётига қарши қаратилган жиноятлар саналади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси шахснинг ҳаётига қарши қаратилган жиноятлар тоифасида кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатида қасдан одам ўлдириш жиноятининг тутган ўрни ўзига хосдир. Ушбу жиноятлар енгиллаштирувчи таркибли жиноятлар сирасига киришини инобатга олсак, уларнинг таркиби ва ўзига хос жиҳатларини ҳар томонлама таҳлил қилиш муҳим аҳамият қасб этади. Мазкур жиноятларни енгиллаштирувчи таркибли жиноятлар тоифасига киришига куйидаги икки ҳолат асос бўлиб хизмат қиласи: биринчидан, ушбу жиноятларда айбдор ўзига хос руҳий ҳолатда, яъни кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида ҳаракат қиласи, иккинчидан, жиноят ҳуқуқи ва криминология нуқтаи назаридан жавобгарликни енгиллаштирувчи ҳолат сифатида аффект фактининг мавжудлиги эмас, балки айбдорда аффект ҳолатини асосли равишда вужудга келганлиги, яъни унинг вужудга келишига бош омил бўлиб жабрланувчининг ғайриқонуний ҳаракатлари ёки ахлоққа зид хулқ-атвори хизмат қиласи. Ушбу икки ҳолатнинг мавжудлиги қилмишни кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида содир этилган, деб ҳисоблашга асос бўлади. М.Мусаев ва С.Ниёзоваларнинг олиб борган тадқиқот натижаларига кўра, қасдан одам ўлдириш жиноятининг 48-50 фоизида жабрланувчи ўз юриш туриши, хулқи, қарашлари билан жиноятчига қарши борганлиги ва шу тариқа жиноят содир этишга йўл очтанлиги аниқланган. Демак, кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолати ташқи ва ички омилларнинг ўзаро ҳаракати натижаси ҳисобланади. Ташқи ҳолатлар жиноятга ундовчи ташқи таъсирлар мажмуидан иборат бўлса, ички омилларга субъектнинг алкогол мастилиги, руҳий касаллиги, эмоционал зўриқиши ва бошқаларни киритиш мумкин. Аффект ҳолатидаги хулқ-атвор олдиндан ўйланган мақсад асосида бошқарилмайди, балки шахсни қамраб олган ва уни импульсив ҳаракат қилишга ундовчи ҳиссиёт асосида бошқарилади. Шу боис, аффект ҳолатини баҳолашда шахснинг индивидуал психологик жиҳатларини инобатга олиш лозим. Жиноят содир этиш вақтидаги айбдорнинг эмоционал ҳолатини баҳолашда суд ва тергов органлари асосан икки ҳолатга эътиборни қаратиши лозим: - суд ва тергов жараёнида аниқланган жиноят содир этиш вақтидаги айбдор ҳаракатларининг ташқи белгиларига. Масалан, ташқи кўриниши, ҳаракатланиш жараёни, сўзлашиш ва мимикасининг ўзига хослиги ва бошқалар; - айбдорнинг ўз кўрсатмаларида хабар бериши мумкин бўлган субъектив ҳис- туйғусини бошидан ўтказиш жараёни. Бу туйғуларни айбдор одатда турли шакллардаги сўзлар орқали ифодалашга ҳаракат қиласи. Масалан, “бўлган воқеани жуда сал-пал эслайман”, “худди туш каби содир бўлди”, “менда худди нимадир портлагандек бўлди” ёки бошқа шаклларда ифодаланиши мумкин. Шундан келиб чиқсан ҳолда айтиш мумкинки, Жиноят кодексида назарда тутилган кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатида содир этилган жиноятларни енгиллаштирувчи таркибли жиноят сифатида эътироф этилганлиги, бу биринчи навбатда бу каби шароитларда



жиноят содир этган шахсларга инсонпарварлик принципини татбиқ қилинишини назарда тутса, иккинчидан, ушбу енгиллаштирувчи таркибли жиноятларни ўхшаш таркибли жиноятлардан фарқлаган ҳолда амалиётда қўллаш ҳамда унинг белгиларини суд, тергов органлари томонидан тўғри татбиқ қилиниши лозимлигини англатади. Бизнингча, қилмишни енгиллаштирувчи ҳолат сифатида эътироф этиш учун Жиноят кодекси 98-моддасида қонун чиқарувчи томонидан белгилаб қўйилган қуидаги ҳолатлар исботланиши лозим:

1) жабрланувчи томонидан зўрлик ёки оғир ҳақорат ёхуд бошқа ғайриқонуний ҳаракатлар содир этилганлиги ва бунинг натижасида айбдорда кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатини вужудга келиш имкониятининг мавжудлиги;

2) айбдорда фактик жиҳатдан кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатини мавжудлиги;

3) жабрланувчининг ғайриқонуний ҳаракатлари ва айбдорда вужудга келган кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолати ўртасидаги сабабий боғланишнинг мавжудлиги. Ушбу санаб ўтилган белгилар ЖК 98-моддасини қонун чиқарувчи томонидан енгиллаштирувчи таркибли жиноят сифатида эътироф этилганлигини англатади. Ўзбекистон Жиноят кодекси ҳар қандай жиноят таркибида кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолати мавжуд бўлишини, енгиллаштирувчи ҳолатида сифатида назарда тутади. ЖК 55-моддаси “д” бандига биноан жазони енгиллаштирувчи ҳолатлардан бири сифатида жабрланувчининг зўрлик, оғир ҳақорат ёки бошқача ғайриқонуний ҳаракатлари туфайли вужудга келган кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатида жиноят содир этиши белгиланганлиги фикримизни тасдиқлади. Табиийки, ЖК 55-моддаси “д” бандида белгиланган кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатини шартлари ва вужудга келиш механизми ЖК 98-моддаси диспозициясидаги кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатининг белгилари билан бир хил бўлиши талаб қилинади. Лекин, ЖК 55-моддаси “д” банди ўзида “тўсатданлик” белгисини назарда тутмаган. Юқоридаги параграфларда батафсил таҳлил қилиб ўтганимиздек, ушбу белги қилмишни кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида содир этилган деб топишда муҳим аҳамият касб этади. Ушбу жиноят-хуқуқий белги жабрланувчининг кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида жиноят содир этишининг жиноят қонуни билан белгилаб берилган талаби саналади.

Хулоса қиладиган бўлсак, хуқуқшунос олимлар ва психологлар С.Рубинштейн, И.Кудрявцев, О.Ситковская, А.Тхостов И.Кольмба, Ф.С.Сафуанов ва бошқалар томонидан мазкур тушунчани баҳолашга қаратилган турли таърифларни таҳлил қилиб, бу борада илмий адабиётларда ягона ёндашув мавжуд эмас, деган хулосага келган. Шулардан келиб чиқсан ҳолда, аффектнинг ўзига хос мазмуни уни инсоннинг барча руҳий фаолиятига, айниқса унинг англаш даражасига таъсир кўрсатишида ҳамда шу белги орқали бошқа руҳий кечинмалардан ажралиб туришида кўринади. Аффектни психологик жиҳатдан ўрганиб чиқиш ўз ичига уни вужудга келишига кўмаклашувчи шарт-шароитлар ва омиллар таҳлилини ҳам қамраб олиши кўрсатиб ўтилган. Мазкур ҳолатларга аффектни вужудга келишига имкон берувчи ҳолатлар; шахснинг ёши ва бошқа ўзига хосликлари; асаб тизимининг хусусиятлари; инсон организмини вақтинчалик заифлаштирувчи омиллар ҳамда бошқаларни киритишимиз мумкин. Ўрганилган илмий адабиётлар аффектнинг муҳим белгиларидан бири бу уни шахсни онгли



ўзини ўзи бошқарувини тўла амалга оширишига имконият бермаслиги ҳақида хулоса қилиш имконини берди. Бу “субъектнинг шахсий қобилияти (қуввати)” тушунчаси билан изоҳланадиган ҳодиса билан бир вақтда юз беради. Бу тушунча суд-психологик экспертизасида “юридик аҳамият касб этувчи субъектнинг шахсий ижтимоий қобилияти (қуввати)” сифатида изоҳланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жалилов О. Жиноят содир этилишида муҳитнинг таъсири. // Ниуқиқ ва бурч. 2018. – №2. – Б. 53–54.
2. Васильев В.Л. Юридическая психология. – СПб.: Питер, 2010. – 624 с.
3. Ситковская О.Д. Аффект: криминально-психологическое исследование. – М.: Юрлитинформ, 2011. – С. 33.
4. Сафуанов Ф.С. Аффект: субъективно-психологический экспертологический анализ. // Психол. журнал. 2015. – №3. – С. 21.
5. Сафуанов Ф.С. Определение аффекта у обвиняемого. // Юрид. психология. 2018. – №1. – С. 11–14.
6. Назаренко Г.В. Уголовно-релевантные психические состояния. – М.: Юрист, 2009. – С. 199.
7. Кудрявцев И.А. Судебно-психологическая экспертиза аффекта. // Калининград, 2013. – С. 42–43.
8. Ревин В.П. (тхр.). Уголовное право России. Особенная часть. – М.: Юстицинформ, 2010. – С. 140.
9. Шарьорова Ю. Смягчение ответственности при аффекте. // Закон и право. 2010. – №8. – С. 81–84.
10. Козаченко И.Я., Спасенников Б.А. Концепция аффекта в уголовном праве. // Рос. юр. журнал. 2011. – №2. – С. 21.
11. Жуманиёзов Н. Кучли руҳий ҳаяжонланиш ва аффект. // Ниуқиқ ва бурч. 2019. – №10–11. – Б. 104–105.
12. Ниёзова С. Кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатида одам ўлдириш. – Тошкент: ТДЮИ, 2020. – 56 б.
13. Мусаев Б. Аффект жавобгарликни енгиллаштирувчи ҳолат сифатида. // ТДЮИ Ахборотномаси. 2015. – №4. – Б. 144–146.



МАНСАБ СОХТАКОРЛИГИГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ЖИНОЯТ-ХУҚУҚИЙ ВА КРИМИНОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Саримсоқов Зухриддин Бегалиевич
Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий
кенгаши хузуридаги судъялар олий мактаби
тингловчиси

Аннотация

Ушбу мақолада мансаб сохтакорлиги жиноятининг жиноят-хуқуқий ва криминологик жиҳатлари ҳар томонлама таҳлил қилинган. Мазкур жиноятнинг хуқуқий тавсифи, суд амалиёти, ижтимоий хавфи, келиб чиқиши сабаблари ва уни бартараф этишининг асосий йўналишлари илмий жиҳатдан асосланган. Шунингдек, профилактик чоралар ҳамда қонунчиликни такомиллаштиришга оид таклифлар ҳам баён этилган.

Калит сўзлар: мансаб сохтакорлиги, мансабдор шахс, расмий хужжат, сохталик, коррупция, криминология, жазо, профилактика.

Кириш

Бугунги кунда Ўзбекистонда давлат бошқарувини ислоҳ қилиш, шаффоффлик ва ошкораликни таъминлаш, жамиятда қонун устуворлигини мустаҳкамлаш борасида кенг кўламли ислоҳотлар олиб борилмоқда. Шу билан бирга, мансабдор шахсларнинг хизмат ваколатларидан норасмий ёки ноқонуний фойдаланиши билан боғлиқ жиноятлар, жумладан мансаб сохтакорлиги ҳолатлари ҳамон мавжудлигича қолмоқда.

Мансаб сохтакорлиги давлат бошқарувининг самарадорлигига, фуқароларнинг давлат органларига бўлган ишончига жиддий таъсир кўрсатувчи хавфли жиноятлардан бири ҳисобланади. Ушбу мақолада мазкур жиноятнинг хуқуқий ва криминологик жиҳатлари, уни келтириб чиқарувчи омиллар ҳамда профилактик тадбирлар таҳлил этилади.

1. Мансаб сохтакорлигининг хуқуқий моҳияти

Мансаб сохтакорлиги Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 207-моддасида ўз ифодасини топган бўлиб, унинг асосий мазмуни мансабдор шахс томонидан расмий хужжатларга сохта маълумотлар киритиш, уларни ўзгартириш ёки қасдан бузиб кўрсатишдан иборатdir.

Асосий хуқуқий белгилари:

- Жиноят субъекти — фақат мансабдор шахс;
- Жиноят предмети — расмий хужжат;
- Жиноят ҳаракати — хужжатни сохталашибтириш, яъни ёлғон маълумот киритиш, ҳақиқий маълумотни ўзгартириш;
- Мақсад — шахсий ёки бошқа манфаатларни кўзлаш;
- Оқибат — хуқуқий ёки ижтимоий хавфли ҳолатларни келтириб чиқариш.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленуми қарорларида ҳам ушбу жиноятни квалификация қилиш, уни бошқа мансаб жиноятларидан фарқлашга оид тавсиялар берилган.



2. Суд амалиёти ва мансаб сохтакорлиги

Суд амалиётидан маълумки, мансаб сохтакорлиги кўпинча бошқа жиноятлар – пора олиш, ваколатдан чиқиб кетиш, манфаатлар тўқнашуви билан биргалиқда содир этилади. Бу ҳолат унинг хавфлилигини янада оширади.

Судлар томонидан кўриб чиқилган ишларнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки:

- Энг кўп тарқалган ҳолат — молиявий хужжатларни сохталаштириш;
- Соғлиқни сақлаш, таълим ва солиқ органларида мансаб сохтакорлиги нисбатан кўп учрайди;
- Айборд шахслар кўпинча судланганидан кейин ҳам айрим лавозимларда ишлагани кузатилган.

3. Ижтимоий хавф ва оқибатлар

Мансаб сохтакорлиги:

- Давлат органларига бўлган ишончни йўқотади;
- Конун устуворлигига шубҳа уйғотади;
- Адолат тамойилларини бузади;
- Бошқа жиноятларга замин яратади (коррупция, фирибгарлик, порахўрлик).

Бундай жиноятларнинг ижтимоий хавфини баҳолашда унинг кенг миёсли таъсирини эътиборга олиш зарур. Яъни у фақат бир шахс ёки муассаса эмас, балки бутун тизимга зарар етказиши мумкин.

4. Мансаб сохтакорлигининг криминологик таҳлили

Мазкур жиноятнинг келиб чиқиш сабабларини таҳлил қилас эканмиз, қуйидаги асосий омиллар намоён бўлади:

- Ҳуқуқий маданиятнинг паст даражада экани;
- Назорат ва жавобгарлик тизимининг самарасизлиги;
- Кадрларни танлашда шаффофликнинг етишмаслиги;
- Коррупцион муҳитнинг мавжудлиги;
- Жазонинг муқаррарлиги таъминланмаганлиги.

Криминологик тадқиқотлар шундан далолат берадики, бу жиноятга кўпинча шахсий манфаатни давлат манфаатларидан устун қўювчи шахслар йўл қўяди. Бундай шахсларнинг ҳаракатларида аксар ҳолда ахлоқий ва ҳуқуқий тарбиянинг етишмаслиги кўзга ташланади.

5. Профилактика ва ислоҳотлар

Қонунчиликдаги таклифлар:

- Жиноят кодексининг 207-моддасида мансаб сохтакорлиги билан боғлиқ ҳолатларни аниқроқ дифференциация қилиш;
- Хизмат ваколатини суиистеъмол қилганлик билан боғлиқ ҳолатларнинг санкцияларини кучайтириш.

Институционал чоралар:

- Электрон ҳужжат айланмаси орқали шаффофликни ошириш;
- Давлат хизматчиларининг малакасини ошириш ва ахлоқий таълимни йўлга қўйиш;
- Фуқаролик назорати механизmlарини кучайтириш;



- Ахборот-коммуникация технологиялари асосида таҳлил ва мониторинг қилиш тизимларини жорий этиш.

Хулоса ва таклифлар

Мансаб соҳтакорлиги давлат бошқарув тизимидағи энг хавфли жиноят турларидан бири ҳисобланади. Унга қарши курашда жиноят-хуқуқий ва криминологик ёндашувларни уйғун равишда қўллаш талаб этилади.

Асосий таклифлар:

1. Мансаб соҳтакорлиги учун жазо турларини жамоатчилик манфаатларини ҳисобга олган ҳолда кучайтириш;
2. Давлат хизматчилари фаолиятини очиқ ва ҳисобдор этиш;
3. Мансабдор шахслар учун маҳсус ахлоқий кодекс қабул қилиш;
4. Суд амалиётида мансаб соҳтакорлиги ҳолатларини кенгроқ таҳлил этиш ва умумлаштириш;
5. Фуқаролик жамияти институтларини фаол жалб этиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т.: «Адолат», 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: «Адолат», 2023.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. – Т.: 2022.
4. Ибрагимов И.А. Жиноят хуқуқи. Хусусий қисм. Дарслик. – Т.: ЎзМУ, 2021.
5. Ашурев Ҳ., Ҳамидов А. Жиноят хуқуқи: назарий ва амалий масалалар. – Т.: «Юрист Наша», 2020.
6. Тожибоев Ш.Ҳ. Жиноят-хуқуқий ва криминологик тадқиқотлар методологияси. – Т.: ИИВ академияси, 2019.
7. Рахимов А.К. Коррупция ва мансаб жиноятларининг профилактикаси. – Т.: «Хуқуқ», 2022.
8. Умаров Н.И. Давлат хизматчиларининг хуқуқий маданиятини юксалтириш – коррупцияга қарши курашнинг кафолати. // «Юридик фанлар ахборотномаси». – 2023. №1.
9. Қаюмов Ф.М. Мансаб жиноятларининг хуқуқий-ижтимоий таҳлили. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2020.
10. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023. – www.transparency.org
11. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Handbook on Combating Corruption in Public Administration. – Vienna, 2021.
12. Ҳамидов А.Н. Криминология: назария ва амалиёт. – Т.: «Iqtisodiyot», 2018.
13. Интернет манбалар:
 - www.lex.uz – Ўзбекистон Республикасининг расмий қонун хужжатлари базаси.
 - www.supcourt.uz – Ўзбекистон Республикаси Олий суди сайти.
 - www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.



КИБЕРМАКОН ЖИНОЯТЛАРИ ВА УЛАРДАН ҲИМОЯЛАНИШ

Сулайманов Фаррух Райимжанович
Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий
кенгаши хузуридаги Судьялар олий
мактаби тингловчиси
Телефон: +998 99 326 50 10
xondamirumarjon@gmail.com

Аннотация: мақола кибержиноятлар турлари, уларнинг тушунчаси, унга қарши курашиш бўйича миллий ва хорижий қонунчилик тажрибасини ўрганишга бағишенган бўлиб, шу асосда миллий қонунчиликни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: кибермакон, кибержиноят, киберхавфсизлик, интернет, VPN, кибержосуслик, ахборот технологиялари, халқаро ҳамкорлик, электрон дастурлар.

Бугунги кунда ракамли технологиялар жадал ривожланиб, одамларнинг кундалик ҳаётида муҳим ўрин эгалламоқда. Кибержиноятлар нафақат индивидуал фойдаланувчиларга, балки бизнес ва давлат муассасаларига ҳам катта зарар етказмоқда. Ушбу жиноятлар шахсий маълумотларнинг ўғирланиши, молиявий фирибгарлик, тармоқ хужумлари ва ахборот тизимларига зарар етказиш каби ҳолатларни ўз ичига олади. Уларнинг кенг тарқалиши киберхавфсизлик чораларининг муҳимлигини оширмоқда.

Кибержиноятлар турли шаклларда намоён бўлиб, уларнинг олдини олиш глобал аҳамият касб этмоқда. Дунё давлатлари ушбу таҳдидларга қарши янги стратегиялар ишлаб чиқишишмоқда ва халқаро миқёсда киберхавфсизлик бўйича ҳамкорликни кучайтироқмоқда. Бунда таълим ва хабардорлик муҳим рол ўйнайди. Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда фирибгарлик, фишинг, зарарли дастурлар ва бошқа кибержиноятлар ҳақидаги маълумотларнинг кўпайиши фойдаланувчиларнинг эҳтиёткорлигини оширишга ёрдам беради.

Шу сабабли, кибержиноятларнинг асосий турларини ўрганиш, уларнинг таъсир доирасини тушуниш ва улардан ҳимояланиш чораларини кўриш ҳар бир фойдаланувчи, ташкилот ва давлат учун долзарб масаладир. Интернет ва ахборот



технологияларининг тараққиёти билан инсон ҳаёти янада қулайлашди, бироқ шу билан бирга, янги таҳдидлар ҳам пайдо бўлди. Кибержиноятлар нафакат индивидуал фойдаланувчиларга, балки бизнес ва давлат муассасаларига ҳам катта зарар етказмоқда.

Кибормакон — бу бизнинг ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланган виртуал олам. У бизга чексиз имкониятлар ва қулайликларни тақдим этади. Бироқ, шу билан бирга, кибержиноятлар ҳам тобора қўпайиб бормоқда. Ҳар йили миллионлаб одамлар хакерлик, фирибгарлик, шахсий маълумотларни ўғирлаш ва бошқа кибержиноятлар натижасида заарар кўрмоқда. Шу сабабли, кибормакондаги хавфлардан сақланиш ва ўз маълумотларингизни химоя қилишни ўрганиш замонавий дунёда муҳим кўникма ҳисобланади.

Кибержиноятларнинг турлари

Фишинг – фирибгарларнинг сохта электрон почта хабарлари, веб-сайтлар ёки хабарлар орқали фойдаланувчиларнинг шахсий ва молиявий маълумотларини қўлга киритиш усулидир. Кўпинча бундай хабарлар банклар, давлат ташкилотлари ёки йирик компаниялардан келгандай туюлади. Фишинг ҳужумлари қуидаги шаклларда амалга оширилиши мумкин:

Электрон почтафишинги – фойдаланувчиларга сохта электрон почта хабарлари юборилади, унда улар логин ва паролларини киритишга ундалади.

SMSфишинг – сохта SMS хабарлар орқали фойдаланувчилар фишинг ҳаволаларига босишига ундалади.

Кибержосуслик – бу давлатлар, ташкилотлар ёки хусусий шахсларнинг махфий маълумотларини ноқонуний равишда йиғиши ва улардан фойдаланиш учун амалга ошириладиган кибержиноят туридир. Кибержосуслик кўпинча хукumat агентликлари, йирик корпорациялар ва ҳарбий секторга қарши амалга оширилади. Ушбу ҳужумлар орқали рақобатчилар ёки душман кучлар махфий маълумотларга эга бўлиш, стратегик режаларни бузиш ёки муҳим ахборот тизимларига кириш имкониятини қўлга киритишади. Кибержосусликнинг оқибатлари жиддий бўлиб, давлат хавфсизлиги, иқтисодий барқарорлик ва тижорат сирларининг бузилишига олиб келиши мумкин.

Кибержиноятлардан ҳимояланиш чоралари



Кучли пароллар ишилатиши

Фойдаланувчилар ўз ҳисобларини ҳимоя қилиш учун мураккаб ва тақорорланмас пароллардан фойдаланишлари керак. Ҳар бир хизмат учун алоҳида пароль яратиш ва уни мунтазам янгилаб туриш муҳимдир. Кучли пароль қўйидаги хусусиятларга эга бўлиши керак:

Икки Босқичли Аутентификация

Икки босқичли аутентификация (2ФА) фойдаланувчи аккаунтига руҳсатсиз киришнинг олдини олиш учун қўшимча хавфсизлик даражасини таъминлайди. Ушбу тизим фойдаланувчининг паролидан ташқари, яна бир қўшимча хавфсизлик қатламини талаб қиласди. 2ФА қўйидаги усууллар орқали амалга оширилади

Антивирус дастурларидан фойдаланиши

Антивирус дастурлар ва тармоқ хавфсизлик деворларидан фойдаланиш зарарли дастурларни олдиндан аниқлаш ва бартараф этишга ёрдам беради. Замонавий антивирус дастурлари қўйидаги имкониятларни тақдим этади

Шубҳали ҳаволалардан эҳтиёт бўлиши

Электрон почта ҳабарларида ва ижтимоий тармоқларда шубҳали ҳаволаларга босищдан сақланиш лозим. Фирибгарлар кўпинча ёлғон ҳабарлар ёки сохта веб-сайтлар орқали фойдаланувчиларнинг шахсий маълумотларини қўлга киритишга ҳаракат қилишади. Қўйидаги тавсиялар шубҳали ҳаволалардан эҳтиёт бўлишга ёрдам беради.

Мунтазам захира нусхалар яратиши

Муҳим маълумотларни йўқотиш ёки товламачилик ҳужумларидан ҳимоя қилиш учун захира нусхаларини яратиш зарур. Захиралаш маълумотларни тиклаш ва киберхужумлардан кейин заарларни минималлаштиришга ёрдам беради.

VPN ва хавфсиз интернетдан фойдаланиши

Очиқ Wi-Fi тармоқларидан фойдалангандан, маълумотлар шифрланган бўлиши учун VPN хизматларидан фойдаланиш тавсия этилади. VPN (Virtual Private Network) – бу фойдаланувчининг интернетга уланишини махфий ва хавфсиз қилиш учун ишлатиладиган технология ҳисобланади.

Кибержиноят қурбони бўлганда нима қилиш керак?

Кибержиноят қурбони бўлиш ҳар қандай фойдаланувчи учун оғир ҳолат



бўлиши мумкин. Агар сиз кибержиноят нишонига айланган бўлсангиз, қўйидаги чораларни кўриш муҳим:

1. Паролларни дарҳол ўзгартириш – ҳужумга учраган аккаунт ва унга боғлик бошқа хизматларнинг паролларини ўзгартириш зарур. Пароллар мураккаб ва уникал бўлиши лозим.
2. Банк карталарини блоклаш ва молиявий муассасага хабар бериш – агар фирибгарлар молиявий маълумотларингизни қўлга киритган бўлса, банк билан боғланиб, карталарни вақтинча блоклаш тавсия этилади.
3. Қурилмаларда антивирус текширувини ўтказиш – компьютер ёки смартфонингизда антивирус дастури орқали тўлиқ текширув ўтказинг ва заарли дастурларни ўчиринг.
4. Ҳукуқ-тартибот органларига мурожаат қилиш – кибержиноят бўйича тегишли ҳукуқ-тартибот органларига хабар беринг ва далилларни тақдим этинг.
5. Шубҳали аккаунтларни тиклаш ва заарли дастурларни ўчириш – ҳужумга учраган ижтимоий тармоқлар, электрон почта ва бошқа аккаунтларни тиклаш учун расмий ёрдам хизматларига мурожаат қилинг.
6. Кибержиноятчиларнинг кейинги ҳужумларидан сақланиш – келгусида фишинг хабарларига алданмаслик, шубҳали ҳаволалардан эҳтиёт бўлиш ва хавфсизлик чораларини кучайтириш муҳим.
7. Захира нусхаларни тиклаш – агар маълумотларингиз ўчириб юборилган ёки шифрланган бўлса, олдиндан яратилган захира нусхаларни қайта тиклаш орқали йўқотишларнинг олдини олиш мумкин.
8. Тегишли платформаларга хабар бериш – агар кибержиноят ижтимоий тармоқ ёки бошқа онлайн хизматлар орқали содир этилган бўлса, платформа маъмуриятига бу ҳақида хабар беринг ва аккаунтингизни ҳимоя қилиш чоралари кўринг.

Кибержиноятларга қарши самарали курашиш учун доимий ҳушёрлик талаб этилади. Ўз маълумотларингиз ва молиявий ресурсларингизни ҳимоя қилиш учун хавфсизлик чораларига риоя қилиш муҳимдир.

Хулоса қилиб айтганда, Кибержиноятлар замонавий дунёning энг муҳим муаммоларидан бири бўлиб, улардан ҳимояланиш ҳар бир инсон ва ташкилот учун



долзарб вазифадир. Кучли пароллар ишлатиш, икки босқичли аутентификация, антивирус дастурларидан фойдаланиш каби чораларга риоя қилиш орқали хавфсизликни таъминлаш мумкин. Кибержиноятларга қарши кураш фақат технологик ҳимоя билан чекланмай, балки фойдаланувчиларнинг онгли ва эҳтиёткор бўлишини ҳам талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Cybercrime: A Global Challenge. United Nations Publications, 2020.
2. Д.Х.Валеева, Кибержиноятлар: тушунчаси, турлари ва ҳукуқий тартибга солиш масалалари. – Москва, Россия Федерацииси, “Юриспруденция” илмий журнали, 2022, №4.
3. Н.Аберкромби, Социологический словарь [Электронный ресурс] / Н. Аберкромби, С. Хилл, Б.С. Тернер. - URL: http://sociological_dictionary.academic.ru/264.
4. Azmi, R., & Ahmad, A. (2019). Cyber Crime and Cyber Security: A Study on Awareness among Students. International Journal of Social Science and Economic Research, Vol. 4, Issue 2.
5. Киберпреступность: криминологический, уголовно-правовой, уголовно-процессуальный и криминалистический анализ / науч. ред. И.Г. Смирнова; отв. ред. О.А. Егерева, Е.М. Якимова.- М., 2016.
6. Волеводз А.Г. Противодействие компьютерным преступлениям: правовые основы международного сотрудничества / А.Г. Волеводз. - М., 2002.



Annotatsiya: Mazkur tezis ishda raqamli moliya sohasida yuzaga kelayotgan noqonuniy onlayn kreditlash holatlari jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Asosiy e’tibor firibgarlik, shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish, litsenziyasiz moliyaviy faoliyat kabi jinoyat turlari bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy javobgarlik masalalariga qaratilgan. Chet el tajribasi tahlili orqali O‘zbekiston qonunchiligidagi kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Ushbu tadqiqot noqonuniy onlayn kreditlar (fintech) bilan bog‘liq shaxsiy ma’lumotlardan noto‘g‘ri foydalanishning huquqni muhofaza qilish tizimini kiber nuqtai nazaridan mayantara jinoyatining bir shakli sifatida tahlil qilish va noqonuniy onlayn kreditlar (noqonuniy fintech desk kollektorlari) uchun javobgarlikni jinoyat huquqi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat huquqi, onlayn kredit, firibgarlik, moliyaviy xavfsizlik, raqamli moliya, javobgarlik, noqonuniy faoliyat, shaxsiy ma’lumotlar, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, litsenziyasiz kreditlash.

Hozirgi vaqtida jinoyat usuli texnologik ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash bilan tobora ko‘proq o‘zgarib bormoqda, shuning uchun texnologiyadan yolg‘on ham jinoyat usuli sifatida foydalaniladi, bu esa kiber jinoyatga olib keladi. O‘sib borayotgan xususiyatlardan biri internetdir. Axborot texnologiyasi faqat axborot protsessorlaridagi mavjud qurilmalarning rivojlanishini tushuntiradi. Elektron ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari butun jahon tizimini iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilashi mumkin bo‘lgan sifatida ishlatalishi mumkin, shunda bu rivojlanishlar insonlarga kundalik hayotda yordam berishi mumkin.

Bugungi kunda texnologiyalarning rivojlanishi odatda moliyaviy texnologiya yoki fintech deb ataladigan axborot texnologiyalari bilan moliyaviy xizmatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Fintex orqali yuzma-yuz uchrashmasdan to‘lovlarini



amalga oshirishda tranzaksiyalar tezlashadi.

Hozirgi texnologik yutuqlardan xatti-harakatlarni o‘zgartirish uchun samarali foydalanish kerak va ular duch keladigan har qanday muammoni hal qilishga yordam beradi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ko‘pchiligi kundalik hayotda fintexning afzalliklarini his qilish uchun internetdan foydalanadilar. Ikkinchi sabab, fintex tezroq rivojlanmoqda, chunki bu tobora tezlashib borayotgan texnologik holat bilan u fintex biznes subyektlariga o‘z ishlarini juda tez va oson bajarishga yordam berishi mumkin. Shuningdek bu tarmoq davlatimizda ham bosqichma bosqich takomillashtirilib, huquqiy jihatdan tartibga solish ishlari amalga oshirilmoqda. Ammo shunday bo‘lsada bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiya va raqamlı xizmatlar davrida ushbu tizim bilan bir qator muammolar kelib chiqmoqda.

Shu bilan bog‘liq ishlardan biri bu onlayn kredit operatsiyalarini amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, chunki bu ish ko‘plab odamlarning shaxsiy malumotlariga xavf bo‘ldi va ko‘pchilik fuqarolar bugungi kunda jinoiy firibgarlik haqida shikoyat qildi. Nomidan ko‘rinib turibdiki, onlayn kreditlar - bu axborot texnologiyalaridan foydalanadigan kredit xizmatlari bo‘lib, ushbu kredit 2014-yil o‘rtalaridan boshlab rivojana boshladi. Statistika ma’lumotlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2024-yilda firibgarlik yo‘li bilan fuqarolar nomiga onlayn kredit ajratish orqali 463 ta holatda qariyb 15 mldr so‘m miqdorda moddiy zarar yetkazilgan. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakilining ma’lum qilishicha, 2024-yili Ombudsmanga fuqarolardan iqtisodiy huquqqa oid 6 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushgan. Ta’kidlanishicha, ushbu murojaatlarning 9 foizi firibgarlik holatlari bilan bog‘liq. Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari asosida turli tijorat banklaridan kredit ajratish holatlari sezilarli darajada ko‘paygan. 2023-yilda shunday murojaatlar soni 110 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu raqam 42 foizga oshgan. Murojaatlarning 60 foizida o‘zini “Click” kompaniyasi yoki Markaziy bank xodimi sifatida tanishtirgan shaxslar fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlaridan foydalangan holda, onlayn kreditlar rasmiylashtirgan. Ayrim holatlarda esa bir shaxs nomiga 5-6 ta tijorat banklaridan kreditlar rasmiylashtirilgan. Ushbu murojaatlar yuzasidan Ichki ishlar organlari tergovchilari tomonidan tijorat banklariga ushbu fuqarolar kredit mablag‘laridan o‘zları foydalanmaganligi hamda fuqaroviy da’vogar deb topilgani, shuningdek, aybdor shaxslar topilguniga qadar kredit



qarzdorligi hamda unga foizlar hisoblashni to‘xtatib turish yuzasidan topshiriqlar yuborilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 36-moddasida tergovchining o‘z yurituvidagi ish bo‘yicha qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va qarorlari barcha korxonalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy ekani belgilangan. Lekin, shunga qaramay, banklar tomonidan firibgarlik natijasida aldangan fuqarolardan kreditni to‘lash talab qilib kelinmoqda. Ombudsman tomonidan ushbu yo‘nalishdagi murojaatlar bo‘yicha fuqarolar manfaatida Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga 5 ta da’vo arizalari kiritilib, banklar bilan tuzilgan kredit shartnomalari haqiqiy emas deb topildi. 1 nafar fuqaro nomiga olingan kredit mablag‘lari uning foydasiga qaytarilib, ma’naviy zarar undirilishiga erishildi. “Click” kompaniyasi yoki Markaziy bank xodimi sifatida tanishtirgan shaxslar fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlaridan foydalangan holda, onlayn kreditlar rasmiylashtirgan. Ayrim holatlarda esa bir shaxs nomiga 5-6 ta tijorat banklaridan kreditlar rasmiylashtirilgan. Ushbu murojaatlar yuzasidan Ichki ishlar organlari tergovchilarini tomonidan tijorat banklariga ushbu fuqarolar kredit mablag‘laridan o‘zlari foydalanmaganligi hamda fuqaroviy da’vogar deb topilgani, shuningdek, aybdor shaxslar topilguniga qadar kredit qarzdorligi hamda unga foizlar hisoblashni to‘xtatib turish yuzasidan topshiriqlar yuborilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 36-moddasida tergovchining o‘z yurituvidagi ish bo‘yicha qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va qarorlari barcha korxonalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy ekani belgilangan. Lekin, shunga qaramay, banklar tomonidan firibgarlik natijasida aldangan fuqarolardan kreditni to‘lash talab qilib kelinmoqda. Ombudsman tomonidan ushbu yo‘nalishdagi murojaatlar bo‘yicha fuqarolar manfaatida Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga 5 ta da’vo arizalari kiritilib, banklar bilan tuzilgan kredit shartnomalari haqiqiy emas deb topildi. 1 nafar fuqaro nomiga olingan kredit mablag‘lari uning foydasiga qaytarilib, ma’naviy zarar undirilishiga erishildi.³ Ushbu ma’lumotlardan ko’rinadiki onlayn kredit rasmiylashtirish jarayoni birgina bank moliya sohasiga aloqador emas balki shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, fuqarolarning daxlsizligi nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega jarayon bo’lib kelmoqda. Markaziy bank



tomonidan firibgarlik holatlarini bartaraf etish maqsadida jismoniy shaxslarga onlayn kredit (mikroqarz) ajratishda kredit tashkilotlari 2024 yil 1 noyabrdan – 2025 yilning 1 apreliga qadar amal qiladigan vaqtinchalik tartib belgilangan. Bugungi kunda vaqtinchalik tartibda belgilangan talablarga muvofiq, 11 ta tijorat banki hamda 1 ta mikromoliya tashkiloti mobil ilovalari orqali fuqarolarga onlayn kredit ajratish yo‘lga qo‘yilgan.⁴ Bunday muammolar juda ko‘p uchraganligi sababli Jinoyat kodeksida oaxbarot vositalaridan foydalanib amalga oshirilgan jinoyatlar haqida alohida bandlar kiritildi. Masalan mavzuimizdagi holat JK ning 168-moddasi 4-qism g bandi bilan kavalifikatsiya qilinadi shuningdek 278 prem1-modda ham kvalifikatsiyada qo’shilishi mumkin. Ushbu firibgarlik holatlarini oldini olish jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini, ularni indentifikatsiya qilishga imkoniyat beruvchi ma’lumotlarni himoyasi uchun ham alohida shaxsga doir ma’lumotlar to’grisida qonun 2019 yilda qabul qilingan. Jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan qonuniy noqonuniy onlayn kreditlar uchun javobgarlik (Illegal Fintech Desk Collector) qarzdor va kreditor o‘rtasida uchrashmaslik imkoniyatidan foydalanganligi sababli noqonuniy yo‘l bilan foyda olishni istagan shaxsning motivi tufayli onlayn kreditlarda turli xil jinoiy harakatlarning paydo bo‘lishidan boshlanadi. Shuning uchun bu tizimni nazorat qiluvchi tegishli organ yoxud alohida tashkilotlar tashkil qilinishi yoki qonunvhilikka alohida termin sifatida kiritilish vaqtি yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
3. <https://cbu.uz/uz/press>
4. <https://lex.uz>
5. Legal Liability of Illegal Online Loans in the Perspective of Criminal Law.

Vanti Y. Rolobessy, Faissal Malik, Suwarti Khairun Ternate University North Maluku, Indonesia



Касаллиги туфайли жавобгарликдан озод қилишнинг хориж тажрибасида ва суд-хуқуқ соҳасидаги роли

Алибоев Бобур Фанишерович

Судьялар Олий кенгаши ҳузуридаги

Судьялар олий мактаби Жиноят ҳукуқи

иҳтинослиги тингловчиси

Аннотация. Руҳий касаллик туфайли жавобгарликдан озод қилиш, шахснинг даволаниш натижасида тузалиши учун жиноий жавобгарликдан озод қилиниши, шахсни жавобгарликдан озод қилишнинг ҳуқуқий асослари, касаллик сабабли жавобгарликдан озод қилишнинг хориж тажрибасидаги аҳамияти.

Калит сўзлар: тиббий йўсингдаги мажбурлов чоралари, суд-психиатрия экспертизаси, ақли норасолик ва руҳий касаллик, халқаро ва хорижий тажриба.

Мамлакатимизда қонунчилик соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар авваламбор инсон ва унинг манфаатларини ҳимоя қилиш, унинг шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиш олий қадрият сифатида эътироф этилиб келинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 19-моддасида: “Ўзбекистон Республикасида инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган нормаларига биноан ҳамда ушбу Конституцияга мувофиқ эътироф этилади ва кафолатланади. Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари ҳар кимга туғилганидан бошлаб тегишли бўлади”,- деб қайд этилган. Янгиланаётган Ўзбекистоннинг келажаги унинг ёш авлоди, мамлакат фуқаролари томонидан бунёд этилади ва улар томонидан амалга оширилган ишлар ва эришилган марралар билан белгиланади. Ўзбекистон қонунчилигига шахс жиноят содир этган вақтда унинг руҳий ҳолати бузилган бўлса, у жиноий жавобгарликдан ва жазодан озод қилиниши Жиноят кодексининг 67-моддасида ва 75-моддасида белгиланган. Шахснинг жиноят содир этган вақтдаги руҳий ҳолати уни жавобгарликка тортиш масаласини ҳал қилаётганда муҳим аҳамият касб этади. Агарда шахс жиноят содир этганидан сўнг бирор турдаги касаллик ёки бошқа ақлий томондан касалликка чалиниб қолган бўлса, бундай ҳолда шахс жавобгарликдан озод қилинмайди ва даволаш учун муассасага юборилади. Юқоридаги ҳолатларни хориж таржрибасида кўриб чиқадиган бўлсак қўйидаги ҳолатлар маълум бўлди.

Халқаро жиноий ҳуқуқ касаллик, айниқса, руҳий касаллик жиноий жавобгарликдан озод қилиш асоси сифатида қандай хизмат қилиши мумкинлигига оид бир неча мезон ва мисолларни тақдим этади. Бундай озод қилиш ҳолатлари, одатда, жиноий жавобгарлик учун муайян даражада ақлий қобилият, қасд ёки эҳтиёtsизлик талаб этилиши тамойилига асосланади, бу эса баъзи касалликлар томонидан бузилиши мумкин. Қуйида халқаро тажриба асосида муҳим манбалар ва хulosалар келтирилади, жаҳонда тан олинган ҳуқуқий стандартлар ва амалиётларга асосланиб бир қанча ҳолатларни кўриб чақмиз. Халқаро жиноий суд (ICC)ни бошқарувчи Рим статути — геноцид, ҳарбий жиноятлар ва инсониятга қарши жиноятлар каби халқаро жиноятларга оид асосий ҳужжатлардан биридир. Унинг 31-моддаси 1-қисми (а) бандида қайд этилишича: “Агар шахс ўз хатти-ҳаракатлари вақтида “ақлий касаллик ёки нуқсон” сабабли ўз ҳаракатларининг



ноқонунийлиги ёки моҳиятини англаш қобилиятидан маҳрум бўлган бўлса, ёки ўзини қонунга мос равишда тутишни назорат қила олмаган бўлса, у жиноий жавобгар эмас. Бу ҳолат оғир руҳий касалликлар жавобгарликни инкор этиши мумкинлигини акс эттиради, бироқ бунда талаб юқори — фақат қобилиятнинг тўлиқ йўқолиши эмас, балки унинг тўлиқ йўқ бўлиши лозим”, - деб қўрсатилган. Миллий хуқуқ тизимлари ҳам халқаро жиноий хуқуққа таъсир қилувчи муҳим амалий тажрибаларни тақдим этади. Масалан, Англия ва Уэльсда 1843 йилда қабул қилинган ва ҳанузгача таъсирга эга бўлган М’Нотен қоидаларига кўра, “Агар айбланувчи “ақлий касаллиги” сабабли ўз қилмишининг моҳияти ва оқибатини ёки унинг нотўғрилигини англамаган бўлса, у жавобгарликдан озод қилинади”. Бу стандарт Канада, Австралия ва АҚШ каби умумий хуқуқ тизимиға эга мамлакатларда ҳам қабул қилинган, бу эса англо-американ хуқуқ анъанасида ақлий касаллик жиноий жавобгарликни истисно қилишини кўрсатади.

Континентал хуқуқ тизимларида, масалан, Франция ва Германияда касаллик сабабли жавобгарликдан озод қилиш тан олинади, лекин бошқачароқ тарзда ифода этилади. Франция жиноят кодексининг 122-1-моддасига кўра, агар шахс “руҳий ёки невро-руҳий бузилиш” сабабли ўз фикр юритиш қобилиятини ёки назоратини йўқотган бўлса, у жавобгар эмас. Германия жиноят кодекси (20-модда) эса “патологик ақлий бузилиш” ёки “чукур онг бузилиши” туфайли шахс қилган ишининг нотўғрилигини англаш ёки шунга мувофиқ ҳаракат қилиш қобилиятига эга бўлмаса, жавобгарликни истисно қиласди. Бу ҳолатлар Европанинг кенгрок ёндашувини намоён этади, яъни касаллик туфайли ақл-идрок қобилияти йўқолса, жавобгарлик тугайди.

Қонунлардан ташқари, халқаро тадқиқотлар ва ҳисботлар ҳам амалиётни ўрганиш имконини беради. Масалан, Перуда 2014–2019 йиллар оралиғида Миллий қамоқхона институти томонидан ўтказилган тадқиқотда ақлий касаллик сабабли жавобгарликдан озод қилинган 179 маҳкум ҳолати таҳлил қилинган. Ушбу ҳолатларда, жавобгарликдан озод этиш суд томонидан тасдиқланган ва маҳкумларнинг қамоқ ўрнига мажбурий руҳий даволаш муассасаларига жойлаштирилиши кузатилган. Бу амалиётда ҳам руҳий касаллик тан олинади, лекин жазо ўрнига даво усуллари қўлланилади — бу ёндашув жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида қўллаб-қувватланади.

БМТ ҳам “юмшоқ хуқуқ” (soft law) орқали ўз хиссасини қўшади. Масалан, Нельсон Мандела қоидалари сифатида танилган Маҳбусларга муомала қилишининг БМТ минимал стандарт қоидалари ҳамда 1991 йилда қабул қилинган Руҳий касаллар хуқуқини ҳимоя қилиш принциплари оғир руҳий хасталиги бўлган шахсларга нисбатан жиноий жавобгарликни умумий тартибда қўлламасликни тавсия этади ва даволашга йўналтирилган ёндашувни илгари суради. Ҳарчи бу ҳужжатлар мажбурий эмас, улар халқаро инсон хукуqlари сиёсаларига ва миллий қонунчиликка таъсир қўрсатади.

Шунингдек, Шарқий Европа ёки Осиё хуқуқ тизимлари таҳлили — турли ёндашувларни очиб беради. Масалан, Россия жиноят кодексининг 21-моддаси ақлий касаллик туфайли ўз қилмишини англай олмаган ёки уни назорат қила олмаган шахсни жавобгарликдан озод қиласди. Бу халқаро мезонларга мос келади, бироқ амалиётда бунинг учун психиатр мутахассислар хulosasi талаб этилади. Японияда эса жавобгарликни тўлиқ озод қилиш эмас, балки камайтириш кўпроқ



кўлланилади, агар касаллик қасдни тўлиқ инкор этмаса, деб қайд этилган.

Хулоса қилиб айтганда, жиной ҳукуқда касаллик, айниқса, ақлий касаллик асосида жавобгарликдан озод қилиш бўйича халқаро тажриба Рим статути, миллий қонунлар (Буюк Британия, Франция, Германия ва бошқалар), амалий тадқиқотлар (масалан, Перу) ва БМТ қоидалари орқали шаклланган. Ҳамма тизимларда умумий нуқта шундаки — оғир ақлий касаллик инсоннинг англаш ёки назорат қобилиятини йўқотса, жавобгарликни истисно қилиш мумкин. Бироқ бунинг даражаси ва тартиб-таомиллари ҳукуқ тизимларига қараб фарқ қиласди. Ушбу манбалар адолат ва инсонийлик ўртасида мувозанатни таъминлашга қаратилган.



ОЗОДЛИКНИ ЧЕКЛАШ ЖАЗОСИНинг МОҲИЯТИ ВА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАР ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ

Туйчиев Исомиддин Қосимжонович
Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий
кенгаши Судъялар олий мактаби
тингловчиси

Аннотация: Ушбу мақолада озодликни чеклаш жазосининг моҳияти, жиноий жазолар ва бошқа ҳуқуқий таъсир чоралари тизимидағи ўрни таҳлил қилинган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунчилигидаги озодликни чеклаш жазосини тушунчаси, бошқа ҳуқуқий таъсир чоралари билан фарқли хусусиятлари мавжуд Қонунлар асосида аҳамиятини очиб беради.

Калит сўзлар: озодлик, “ирода эркинлиги”, озодликни чеклаш, жиноий жазо, шартли ҳукм, “уй қамоғи”, маъмурий назорат, ҳалқаро стандартлар.

Шубҳасиз, “озодлик” тушунчаси чуқур тарихий хусусиятга эга. Асрлар, ҳокимиятлар алмашгани сари, иқтисодий ўзгаришлар ва илмий тафаккурнинг ривожланиши натижасида озодлик тушунчасига бўлган муносабат ўзгариб борди.

Антик даврларда фалсафий ва ҳуқуқий фикрларнинг ривожланиши қулликнинг мавжудлигига зид бўлмаган. Масалан, Аристотелнинг “Аёнки, ҳар қандай ҳолатда, табиатан баъзи одамлар озод, бошқалари қулдир, ва бу охиргиларининг қул бўлишилари ҳам фойдали ҳам адолатлидир” деган сўзлари аҳамиятлидир.

Бироқ, ўша даврларда, яъни қадимги Римда табиий ҳуқуқ назариясининг асослари пайдо бўла бошлади ва унинг асосчилари софистлар эдилар. Ўз навбатида таъкидлаш жоизки, “озодлик” тушунчасидан фалсафий маънода дастлаб софистлар фойдалана бошладилар. Улар ўша даврнинг меъёрлари ва анъаналаридан фарқли ўлароқ, рух озодлигини эълон қилганлар. Шу пайтдан бошлаб, сиёsat ёки ҳуқуқдан қатъий назар озодлик ҳолатига эришиш мумкин деб қарала бошланди. Демак, софистларнинг қарашларида муайян шахснинг ички озодлигига эътибор қаратилганлигини кузатишмиз мумкин.

Ўрта асрлар дунёвий ҳокимиятнинг динга жиддий боғлиқлиги билан тавсифланади ва дин ҳамда руҳонийларнинг инсон онги ва инсон хатти-ҳаракатларига таъсири жуда катта бўлган. Ўша даврлардаги озодлик муаммосини тушунишда кўп жиҳатдан Аврелий Августиннинг “Ирода эркинлиги” ҳақидаги рисоласига асосланилади.

Инсоннинг ички озодлиги унинг эътиқоди, дунёқарашида ифодаланиб, у инсоннинг ўз онги ва ривожланиш даражаси билан чекланади, шунингдек ҳар бир инсон ички озодлиги доирасини ўзи белгилашга ҳақли. Ташқи озодлик эса, инсоннинг ўзига хос қилмишларида ифодаланиб, бу қилмишлар хоҳ у инсоннинг ўзига нисбатан бўлсин, хоҳ бошқа шахсларга нисбатан, маълум бир доирада чекланиши лозим.

Шундай экан, мамлакатда табиий ривожланиш ва барқарорликни таъминлаш, тўлақонли яшашга шароит яратиш учун ҳар бир жамиятга озодликни чеклаш



тизими зарур ва унда субъектларнинг бири томонидан суиистеъмол қилинишини олдини олиш мақсадида, субъектлар озодлигини ўзаро чеклаш механизми бўлиши керак.

Агарда шахс ўз озодлигини ҳаддан ташқари намойиш қилишга интилиб, белгиланган чегаралардан ташқарига чиқса, у ҳуқуқбузар деб ҳисобланади ва унга мутаносиб жазо тайинланади.

Жиноятчининг озодлигини чеклаш орқали давлат унинг ўз хоҳишига кўра ҳаракат қилиш қобилиятини тўла ёки қисман чеклайди.

Шахснинг озодлигини давлат томонидан мажбурлов кучи орқали чеклаш жиноий жазо (ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чоралари) шаклида қўлланилади. Жазо фақат қонунда назарда тутилган ҳолатларда, уни тайинлашнинг асосларига риоя қилган ҳолда, ваколатли суд томонидан қўлланилади.

Ўз навбатида таъкидлаш ўринлики, Ўзбекистон Республикаси ЖК 48¹-моддаси биринчи қисмида “*Озодликни чеклаш суд томонидан маҳкумга нисбатан уй-жойини у ёки бу сабаб билан тарк этишини бутунлай тақиқлашдан ёхуд ишлаш ёки ўқиши вақтидан, шунингдек иш ёки ўқиши жойигача бориши ва уй-жойига қайтиб келиши учун зарур бўлган вақтдан ташқари қолган вақтда уй-жойидан чиқишини чеклашдан иборат*” лиги белгиланган. Ушбу норма мазмунидан англашиладики, озодликни чеклаш жазосида маҳкумга қўлланиладиган асосий тақиқ (чеклов)нинг мазмуни унинг яшаш жойидан чиқиши билан боғлиқ.

Юқоридагилардан келиб чиқкан ҳолда озодликни чеклаш жазосига қуийдагича таъриф бериш мақсадга мувофиқ:

“Озодликни чеклаш – бу суд томонидан маҳкумга нисбатан уй-жойини у ёки бу сабаб билан тарк этишини бутунлай тақиқлашдан ёхуд ишлаш ёки ўқиши вақтидан, шунингдек иш ёки ўқиши жойигача бориши ва уй-жойига қайтиб келиши учун зарур бўлган вақтдан ташқари қолган вақтда уй-жойидан чиқишини чеклашдан иборат” лиги белгиланган. Ушбу норма мазмунидан англашиладики, озодликни чеклаш жазосида маҳкумга қўлланиладиган асосий тақиқ (чеклов)нинг мазмуни унинг яшаш жойидан чиқиши билан боғлиқ.

Маълумки, жамиятимизнинг барча жабҳаларида олиб борилаётган кенг қамровли ислоҳотлар замирида инсон ҳуқуқ ва эркинликларига бўлган эътибор, унинг шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиш, инсон ҳуқуқларини энг олий қадрият сифатида эътироф этиш каби ғоялар бош мақсад сифатида мустаҳкамланган.

Мамлакатимизда барча соҳаларда бўлгани каби суд-ҳуқуқ соҳасидаги ислоҳотлар ҳам босқичма-босқич ва маълум изчиллиқда амалга оширилмоқда. Хусусан, ислоҳотлар самараси ўлароқ, жиноят қонунчилигидан мол-мулкни мусодара қилиш, ўлим ва қамоқ жазолари чиқарилди, озодликни чеклаш ҳамда мажбурий жамоат ишлари каби озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган янги турдаги жазолар жорий қилинганлиги сўзимизнинг тасдиғидир.

Аёнки, жиноят қонунчилигига ҳар қандай янги жазо тури киритилар экан, уни жиноий жазо тизимидағи ўрнига, яъни уни мавжуд жазоларга нисбатан оғир ёки енгиллигига эътибор қаратилади. Зоро, қонун чиқарувчи Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 43-моддасида жиноий жазолар тизимини белгилар экан, уларни енгилидан оғирига қараб жойлаштирганлигини кўриш мумкин.

Жиноят кодексида назарда тутилган жазо турларининг уларнинг оғирлик



даражасига қараб муайян тартибда жойлаштирилган қатъий рўйхати жазо тизими деб айтилади.

Жазо тизими жиноят ҳуқуқининг умумий принципларига асосланаб, бу принциплар: **қонунийлик, фуқароларнинг қонун олдида тенглиги, демократизм, инсонпарварлик, одиллик, айб учун жавобгарлик, жавобгарликнинг муқаррарлиги** принципларига асосланади.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 43-моддасида берилган жазо тизими расмий бўлиб, ўрни, номланишини эркин равишда ўзгартирилиши мумкин эмас. ЖК 43-моддадаги жазо тизимида ҳар бир жазонинг номи тартиб рақами, муайян тартибда жойлаштирилган ўрни бор. Уларнинг жойлашган ўрни, номини ўзгартириш фақат Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қабул қилган тегишли қонуни билангина амалга оширилади.

Жамият ва давлатда юз берган ижтимоий сиёсий ўзгаришлар жазо тизими, уларнинг жойлашиш тартиби, ўз аҳамиятини йўқотганларни бу тизимдан чиқариб ташлаш ёки янги жазо турини киритилишига таъсир қилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 43-моддасида келтирилган жазо тизимида кўра, озодликни чеклаш жазоси жарима, муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш, мажбурий жамоат ишлари, ахлоқ тузатиш ишлари, хизмат бўйича чеклаш жазоларидан оғирроқ, интизомий қисмга жўнатиш, озодликдан маҳрум қилиш ва умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоларидан енгилроқ жазо сифатида белгиланган. Демак, озодликни чеклаш жазоси жиноий жазо тизимида озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлган ва у билан боғлиқ бўлмаган жазо чоралари орасидаги чегарада жойлашган жазо чорасидир.

Жиноят қонунчилигига мувофиқ “озодликни чеклаш” жазо чораси, “шартли ҳукм қилиш” эса жиноий жазодан озод қилишнинг бир туридир. Шу боис ушбу институтлар орасидаги асосий фарқ уларнинг ҳуқуқий табиатидадир.

Жиноят кодексининг 72-моддаси мазмунига асосан гап фақат суд томонидан **шартли ҳукм қилинган шахсга нисбатан муайян мажбуриятларни юклаш** ҳақида боради. **Озодликни чеклаш эса, суд томонидан маҳкумнинг муайян ҳуқуқ ва эркинликларини тақиқлаш (чеклаш)да намоён бўлади.**

Ўз навбатида озодликни чеклаш жазоси билан Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 242¹-моддасида назарда тутилган “уй қамоги” эҳтиёт чорасининг ўхшаш жиҳатлари мавжуд.

Бундан ташқари, озодликни чеклашга ҳукм қилинган ва маъмурий назорат остидагиларга қўлланилиши мумкин бўлган тақиқ (чеклаш)лар ва мажбуриятлар ўхшаш бўлиб, Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрелдаги “Жазони ижро этиши муассасаларидан озод қилинган айrim тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат тўғрисида”ги қонунининг 2-моддасига асосан “маъмурий назоратнинг асосий вазифаси жазони ижро этиши муассасаларидан озод қилинган айrim тоифадаги шахслар томонидан ҳукуқбузарликлар содир этилишининг олдини олиш мақсадида уларга якка тартибда профилактик таъсир кўрсатишдан иборатдир”. Демак, маъмурий назорат жиноий жазога хос бўлган хусусиятлардан маҳрум бўлиб, постпенитенциар (жазодан кейинги) даврда муқаддам судланган шахслар томонидан жиноят ва бошқа ҳукуқбузарликлар содир этилишини олдини олишга қаратилган.

Бундан ташқари, озодликни чеклаш жазоси ва маъмурий назоратдан бўйин



тovлашнинг оқибатлари ҳам турлича бўлиб, маҳкум озодликни чеклаш жазосидан бўйин товласа ёки белгиланган тақиқ (чеклаш)ларга риоя қилмаса ёхуд юклатилган мажбуриятларни бажармаса озодликни чеклаш жазоси оғирроқ жазо билан алмаштирилиши мумкин (ЖК 48¹-м. 6-к.). Шахс ўзига нисбатан ўрнатилган маъмурий назоратдан бўйин товлаганда эса, у маъмурий (МЖТК 206-м.) ёки жиноий (ЖК 226-м.) жавобгарликка тортилади. Юқоридагиларга хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки озодликни чеклаш, шартли ҳукм қилиш, уй қамоғи ва маъмурий назоратнинг айрим чеклаш ва мажбуриятлари ўхшашигини эътироф этган ҳолда, озодликни чеклаш шартли ҳукм қилиш, уй қамоғи ва маъмурий назоратдан авваламбор, юридик табиатига кўра, сўнгра белгиланадиган чеклаш ва мажбуриятларнинг ҳажми, шунингдек, қўллаш асослари ва мақсадига кўра фарқланади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, озодликни чеклаш жазоси тайинланган маҳкумлар учун қонунда назарда тутилган тақиқ (чеклаш)лар ва мажбуриятларнинг табиати ва ҳажми озодликни чеклашнинг нафақат жиноий жазо мақомини, балки, жиноий жазо тизимида тутган ўрнини ҳам сақлаб қолиш учун етарлидир. Бундан ташқари, озодликни чеклаш жазоси ва давлатнинг бошқа ҳукукий таъсир чоралари, авваламбор, юридик табиатига кўра, сўнгра белгиланадиган чеклаш ва мажбуриятларнинг ҳажми, шунингдек, қўллаш асослари ва мақсадига кўра фарқланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/docs/111453>.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрелдаги «Жазони ижро этиши муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат тўғрисида»ги ЎРҚ-532-сон қонуни [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/docs/4266602>.
3. Строганова Н.И. “Свобода человека: философская и правовая категория” // Проблемы в российском законодательстве. 3/2012, – С. 298.
4. Лосев А.Ф., Тахо-Годи А.А. “Платон, Аристотель” – М., 1993. – С. 384.
5. Лядов Э.В. “Ограничение свободы: уголовный и уголовно-исполнительный аспекты” // Евразийский юридический журнал. 2014. – № 12 (79).
6. Очилов Х.Р., Хайдаров Ш.Д., Шамсидинов З.З. Жиноят ҳукуки (Умумий қисм) Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Адолат».
7. Хайдаров М.М. “Озодликни чеклаш жазосининг жиноят ва жиноят-ижроия ҳукукий жиҳатлари” Юрид. фан. б-ча. фалса. док.диссертация иши. – Т., 2022. – 156 б.
8. Астахова А.О. Уголовно-правовые последствия административного надзора и ограничения свободы // Вестник Омского университета. Сер. Право. – 2015.



Исламов Мақсуд Авазович

Судьялар Олий кенгаши ҳузуридаги

Судьялар олий мактаби Жиноят ҳукуқи

ихтинослиги тингловчиси

Аннотация. “далил” ва “электрон далил” – электрон шаклдаги далиллар одил судловга эришишда асосий омиллардан биридир.

Сўнгги йилларда электрон шаклдаги далилларни олиниши ҳамда баҳоланиши Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси нормалари такомиллаштирилмоқда.

Калит сўзлар: “жиноят процесси”, “одил судлов” ҳамда “электрон шаклдаги далил”.

Электрон шаклдаги далилларни олишни такомиллаштиришда албатта Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси нормаларини такомиллаштирилиши зарур.

Давлатимиз раҳбари айтганидек, «Суд остонасига қадам қўйган ҳар бир инсон, Ўзбекистонда адолат ҳукм сураётганига тўла ишонч ҳосил қилиши керак», жиноят ишларини биринчи инстанция судида иш юритишни тушунчасини асосий мазмун-моҳияти мана шу сўзоарда ўз ифодасини топади.

Электрон шаклдаги далилларнинг аҳамияти, аввало Ўзбекистон Республикаси «Судлар тўғрисида»ги Қонунининг 4-моддасида «Суднинг асосий вазифалари фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси Конституция ва бошқа қонунлари, халқаро шартномаларида, шунингдек инсон ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро ҳужжатларда кафолатланган ҳуқуқлари ҳамда эркинликларини, давлат ва жамоат манфаатларини, юридик шахслар ҳамда якка тартибдаги тадбиркорларнинг ҳуқуқлари ва қонун билан қўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 22-моддаси, яъни ҳақиқатни аниқлаш принципи асосий рол ўйнайди. Унга кўра суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд жиноят юз берганлигини, унинг содир этилишида ким айбдорлигини, шунингдек у билан боғлиқ барча ҳолатларни аниқлаши шартлиги, иш бўйича ҳақиқатни аниқлаш учун факат ушбу Кодексда назарда тутилган тартибда топилган, текширилган ва баҳолангандан маълумотлардан фойдаланиш мумкин. Гумон қилинувчидан, айбланувчидан, судланувчидан, жабрланувчидан, гувоҳдан ва ишда иштирок этувчи бошқа шахслардан зўрлаш, қўрқитиши, ҳуқуқларини чеклаш ва қонунга хилоф бўлган ўзгача чоралар билан кўрсатувлар олишга ҳаракат қилиши ман этилиши, иш бўйича исботланиши лозим бўлган барча ҳолатлар синчковлик билан, ҳар томонлама, тўла ва холисона текшириб чиқилиши кераклиги, ишда юзага келадиган ҳар қандай масалани ҳал қилишда айбланувчини ёки судланувчини ҳам фош қиласидиган, ҳам оқладиган, шунингдек унинг жавобгарлигини ҳам енгиллаштирадиган, ҳам оғирлаштирадиган ҳолатлар аниқланиши ва ҳисобга олиниши лозимлиги, далилларни тўплаш ва мустаҳкамлашда рухсат берилмаган усуслар қўлланилганлиги тўғрисидаги мурожаатлар қонунчиликда белгилангандан тартибда суд-тиббий экспертизаси ёки



бошқа экспертиза ўтказилган ҳолда мажбурий текширилиши лозимлиги⁵ белгиланган. Шу ўринда, “Жиноят процесси принциплари Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодексида мустаҳкамланган асосий ғоялар бўлиб, у бутун жиноят процесси жараёнининг қурилишини, унинг табиатини белгилайди. Жиноят процесси принциплари деб, жиноят процесси институтлари шакли ва босқичларининг тузилишини белгиловчи ва унинг олдида турган вазифаларини бажарилишини таъминловчи асосий ҳукуқий қоидалар (умумий ва раҳбарий аҳамиятга эга бўлган нормалар)га айтилади⁶”. Электрон шаклдаги далиллар одил судловни амалга оширишда Жиноят-процессуал кодекси талабларига риоя қилиниши таъминлашдан иборатdir.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 95-моддасида “Суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд ишдаги барча ҳолатларни синчковлик билан, тўла, ҳар томонлама ва холисона кўриб чиқишга асосланган ҳолда қонунга ва ҳукуқий онгга амал қилиб ўзларининг ички ишончлари бўйича далилларга баҳо берилиши, ҳар бир далил ишга алоқадорлиги, мақбуллиги ва ишончлилиги нуқтаи назаридан баҳоланиши лозимлиги, далиллар жиноят иши учун аҳамиятли бўлган мавжуд ҳолатлар ҳақидаги хулосаларни тасдиқловчи, рад этувчи ёки шубҳа остига олувчи фактлар ёки нарсалар тўғрисидаги маълумотларни акс эттирган тақдирдагина ишга алоқадор деб эътироф этилиши, далиллар белгиланган тартибда тўпланган ва Жиноят-процессуал кодексининг [88](#), [90](#), [92](#) — [94](#)-моддаларида назарда тутилган шартларга мувофиқ бўлсагина, улар мақбул деб эътироф этилиши, текширув натижасида ҳақиқатга мувофиқ эканлиги аниқланган далиллар ишончли деб ҳисобланashi, исботланиши керак бўлган барча ва ҳар бир ҳолатнинг ҳақиқийлигини сўзсиз тасдиқловчи ишга оид барча ишончли далиллар тўпланган бўлса, уларнинг жами ишни ҳал қилиш учун етарли деб ҳисобланиши” қайд этилган

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки электрон шаклдаги далилларга оид Жиноят-процессуал кодекси нормаларининг такомиллаштирилиши одил судловнинг амалга оширилишининг муҳим кафолатидир



Эҳтиётсизлик орқали содир этиладиган жиноятларни квалификация қилиш, олдини олиш ва суд амалиётидаги муҳим аҳамиятга эга меъзонлар

Сидиков Бехруз Мусулмонович

Судьялар Олий кенгаши
хузуридаги Судьялар олий мактаби
Жиноят хукуқи ихтисослиги
тингловчиси.

Телефон: +998919666660

Аннотация. "Ушбу мақолада эҳтиётсизлик оқибатида содир бўлган жиноятларни квалификация қилиш борасида эътибор қаратиш лозим бўлган хукукий жиҳатлар, суд амалиёти ҳамда бундай жиноятларнинг олдини олиш ва уларга қарши курашишдаги муҳим чора-тадбирларга эътибор қаратилади."

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида эҳтиётсизлик жиноятлари алоҳида эътиборга молик бўлиб, уларнинг субъектив белгиларини тушуниш ва суд амалиётида тўғри квалификация қилиш жиноятчиликка қарши курашишнинг муҳим элементларидан биридир. Ушбу мақолада эҳтиётсизлик жиноятларнинг моҳияти, уларнинг олдини олиш усувлари ва суд амалиётидаги ўрни чукур таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: эҳтиётсизлик, ўз-ўзига ишониш, бепарволик, муоммолар, суд амалиёти, субъектив белгилар, ижтимоий огоҳлик, техник назорат, таълим ва тренинглар, психологик ва тиббий текширувлар, медиация ва келишув.

Эҳтиётсизлик жиноятларининг субъектив белгилари.

Эҳтиётсизлик жиноятларнинг асосий хусусияти – бу айбдор шахснинг жиноий оқибатларни қасдан кўзламаслиги, балки ўз ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги натижасида уларни юзага келишига сабабчи бўлишидир. Бу жиноятларнинг субъектив томони айбдорликнинг икки шакли – бепарволик ва эҳтиётсизликка асосланади:

1. Бепарволик: Шахс ўз ҳаракатларининг жиноий оқибатларга олиб келиши мумкинлигини сезса-да, бу оқибатларнинг юзага келишига енгилликча ёндашади ва уларнинг олдини олишга интилмайди.

2. Эҳтиётсизлик: Шахс ўз ҳаракатларидан келиб чиқадиган хавфли оқибатларни сезмайди ёки уларни тўғри баҳоламайди, гарчи у бундай оқибатларни сезиши ва олдини олиш имкониятига эга бўлса ҳам.

Масалан, йўл-транспорт ҳодисасида ҳайдовчи хавфсизлик қоидаларини бузиб, одам ўлимiga сабаб бўлса, бу эҳтиётсизлик орқали содир этилган жиноят сифатида баҳоланиши мумкин. Шу билан бирга, айбдорнинг психологик ҳолати, яъни у ўз ҳаракатларининг хавфли оқибатларини қай даражада сезганлиги суд томонидан аниқланади.⁷

Эҳтиётсизлик жиноятларининг олдини олиш учун ҳам давлат, ҳам жамият даражасида комплекс чора-тадбирлар қўлланиши зарур. Бу чоралар профилактика тадбирлар ва хавфсизлик стандартларини кучайтиришга қаратилган бўлиши керак:

Июнь | 2025, 1-қисм

⁷ "Жиноят хукуқи" Махсус қисм. Ш.Т.Икрамов. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси "Хавф психологияси. Омиллар, жараёнлар, стратегиялар" нашри. Л.М.Вартanova ва С.Ю. Шмелева



1. Таълим ва тарбия: Жамият аъзоларининг масъулият ҳиссини ошириш мақсадида хавфсизлик қоидалари бўйича маълумот бериш муҳимдир. Масалан, йўл ҳаракати қоидаларини ўқитиш ёки касб фаолиятида хавфсизлик стандартларига риоя қилиш бўйича тренинглар ўтказиш.

2. Қонунчиликни мустаҳкамлаш: Хавфсизлик қоидаларининг бузилишига олиб келадиган ҳолатлар учун қатъий жавобгарлик белгилаш эҳтиётсизликни камайтиришга хизмат қиласди.

3. Техник назорат: Транспорт воситалари, қурилиш объектлари ва хавфли ускуналарнинг техник ҳолатини мунтазам текшириб бориш эҳтиётсизликдан келиб чиқадиган хавфларни камайтиради. Масалан, техник қўриқдан ўтмаган транспорт воситасини эксплуатация қилишни тақиқлаш.

4. Ижтимоий огоҳлик: Оммавий ахборот воситалари орқали эҳтиётсизлик оқибатлари ҳакида кенг маълумот тарқатиш хавфсизликка бўлган эътиборни оширади.

Мисол учун, тиббий хатолик туфайли беморга зарар етказишнинг олдини олиш мақсадида шифокорларнинг малакасини ошириш ва хавфсизлик протоколларига қатъий риоя қилиш талаб этилади. Шунингдек, завод ёки фабрикада хавфли ускуналардан нотўғри фойдаланишининг олдини олиш учун ишчиларнинг малакаси ва хавфсизлик брифинглари муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Юқорида саналган ҳолатлар эҳтиётсизлик орқали содир этиладиган жиноятларни олдини олиш борасида қисман бўлсада хизмат қиласди деб ҳисобланади.

Суд амалиёти эҳтиётсизлик жиноятларининг субъектив белгиларини аниқлаш ва уларни тўғри квалификация қилишда муҳим ўрин тутади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида эҳтиётсизлик орқали содир этилган жиноятлар учун алоҳида моддалар мавжуд бўлиб, судлар ушбу моддалар асосида қарор қабул қиласди. Квалификация жараёнида қуйидаги омиллар эътиборга олинади:

1. Айбдорлик шакли: Суд айбдор шахснинг ҳаракатлари қасданми ёки эҳтиётсизлик билан содир этилганми, деган саволга жавоб излайди. Масалан, ЖКнинг 102-моддаси (Эҳтиётсизлик билан ўлимга сабаб бўлиш) қасдан қотилликдан (97-модда) фарқ қиласди.

2. Оқибатларнинг оғирлиги: Жиноятнинг натижаси – одам ўлими, тан жароҳати ёки молиявий зарар – жазо тайинлашда муҳим роль ўйнайди. Йўлтранспорт ҳодисаси оқибатида бир неча киши жароҳат олса, суд буни оғир оқибат сифатида баҳолайди.

4. Matyoqubova G. Qoraqalpoq she’riyati va o‘zbek poetikasining qiyosiy tahlili. // Filologiya masalalari ilmiy to‘plami. – Toshkent: 2010.



KARIMBOY QURAMBOYEV- ADABIYOT DO'STLIGI-XALQLAR DO'STLIGINING BIR KO'RINISHI

Guljamal AlimbayevaAjiniyoz nomidagi Nukus dpi magistratura
bo'limi o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Karimboy Quramboyev — filologiya fanlari doktori, professor, taniqli adabiyotshunos, tarjimon va adabiy tanqidchi. Uning ilmiy va ijodiy faoliyati o'zbek, qoraqalpoq va turkman xalqlari adabiyotlari o'rta-sidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Abstract: Karimboy Kuramboyev is a Doctor of Philology, Professor, a well-known literary critic, translator, and literary critic. His scientific and creative work has served to effectively develop the unique bonds of friendship between the literatures of the Uzbek, Karakalpak, and Turkmen peoples.

Kalit so'zlar: Maxtumquli – ilhom chashmasi, Maxtumquli Firog‘iy, Adabiyotlar do'stligi, Adabiyot orqali insoniyatni birlashtirish.

Keywords: Makhtumkuli - a source of inspiration, Makhtumkuli Firogii, Friendship of Literature, Uniting Humanity through Literature.

Karimboy Quramboyev 1942-yil 10-noyabrda Turkmanistonning Toshhovuz viloyati, Toshhovuz tumanidagi Hallang qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ilgan. 1959-yilda Toshhovuz tumanidagi 20-sonli o'rta maktabni bitirib, 1960-yilda Toshkent davlat universitetining Filologiya fakultetiga o'qishga kirgan va uni 1965-yilda tamomlagan. Shundan so'ng o'z faoliyatini o'qituvchilikdan boshlab, 1967–1970-yillarda maktab direktorining o'rinnbosari lavozimida ishlagan. 1970-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasiga o'qishga kirib, 1972-yilda “Adabiyotlarning o'zaro ta'siri va yozuvchi ijodining o'ziga xosligi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Keyinchalik institutda kichik, so'ngra katta ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan.

Karimboy Quramboyevning adabiy merosi asosan Maxtumquli Firog‘iy ijodini o'rganish va targ‘ib qilish bilan bog‘liq. Uning “Maxtumquli – ilhom chashmasi” nomli asarida XVIII asr turkman adabiyotining buyuk shoiri Maxtumquli Firog‘iy ijodi qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nali shida o'rganilgan. Kitobda Maxtumquli an'analarini ruhida yozilgan asarlar tahlil qilinib, tarjimalar haqida so'z yuritilgan.

Quramboyevning tarjima faoliyati ham xalqlar o'rta-sidagi do'stlikni rivojlantirishga xizmat qilgan. U turkman, qoraqalpoq va boshqa xalqlar adabiyotidan o'zbek tiliga tarjimalar qilib, bu asarlarni o'zbek kitobxonlariga yetkazgan. Bu orqali u turli xalqlar o'rta-sidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shgan.

Karimboy Quramboyev Alisher Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiyotiga ta'sirini o'rganib, bu borada ham muhim ilmiy ishlar olib borgan. Uning “Alisher Navoiy va qoraqalpoq adabiyoti” nomli maqolasida Navoiy asarlarining qoraqalpoq adabiyotiga ta'siri va o'xshashliklari tahlil qilingan. Bu orqali u ikki xalq adabiyoti o'rta-sidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Karimboy Quramboyev ilm-fan va ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun bir qator mukofotlarga sazovor bo'lgan. U Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoni, Turkmaniston Respublikasining “Maxtumquli Firog‘iy” xalqaro davlat



mukofoti va O‘zbekiston Respublikasining “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

Karimboy Quramboyev o‘zining serqirra faoliyati, ilmiy izlanishlari va adabiyotga bo‘lgan muhabbat bilan o‘zbek va turkman adabiyotlari o‘rtasidagi adabiy aloqalarni mustahkamlashga katta hissa qo‘shgan. Uning ilmiy merosi va insoniy fazilatlari bugungi kunda ham yosh tadqiqotchilar uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Karimboy Quramboyev — filologiya fanlari doktori, professor, taniqli adabiyotshunos, tarjimon va adabiy tanqidchi. Uning ilmiy va ijodiy faoliyati o‘zbek, qoraqalpoq va turkman xalqlari adabiyotlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Adabiyotlar o‘rtasidagi do‘stlikni shakllantirishda tarjima san’ati muhim rol o‘ynaydi. Tarjimonlar xalqlar o‘rtasidagi madaniy vositachilar hisoblanadi. Ular orqali boshqa xalqlarning adabiy yutuqlari o‘z tilida kitobxonlarga yetkaziladi. Maxtumquli, Abay, Aytmatov, Pushkin kabi ijodkorlarning asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, bu orqali xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari mustahkamlangan.

Xalqlar adabiyoti faqat o‘ziga xos tarzda emas, balki boshqa adabiyotlar bilan aloqada, o‘zaro ta’sirda rivojlanadi. Ular o‘zaro uslubiy, badiiy va g‘oyaviy jihatdan bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, rus va o‘zbek adabiyoti orasidagi aloqalar natijasida ko‘plab o‘zbek yozuvchilari yangi badiiy shakllarni o‘zlashtirgan. Bunday adabiy ta’sir va uyg‘unlik xalqlar madaniyatini boyitadi.

Bugungi kunda adabiyotlar do‘stligini mustahkamlovchi xalqaro anjumanlar, adabiy forumlar va festivallar o‘tkazilmoqda. Bu tadbirlar orqali yozuvchilar, adabiyotshunoslar va kitobxonlar turli xalqlarning adabiy merosini chuqurroq o‘rganishga, fikr almashishga imkon topmoqdalar. Xususan, TURKSOY, CIS mamlakatlari yozuvchilari forumi kabi platformalar adabiy do‘stlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Adabiyot milliylik va umuminsoniylik uyg‘unlidir. Unda inson taqdiri, ezhgulik, muhabbat, vatanparvarlik singari umumiyligini qadriyatlar kuyylanadi. Shu bois, turli xalqlarning adabiyoti insoniyatning ma’naviy yuksalishida birlashtiruvchi kuchga ega. Adabiyot orqali xalq ruhiy va axloqiy birligiga, global birdamlikka intiladi.

Bu do‘stlik adabiy almashinuv, tarjimalar, adabiy tadbirlar orqali shakllanib, xalqlar o‘rtasidagi madaniy rishtalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, adabiyotlar do‘stligini rivojlantirish orqali biz xalqlar o‘rtasida tinchlik va birdamlikni ta’minalashga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

Adabiyotlar

1. Б.Карим. Махтумкули – инсоният шоири. –Тошкент: —Мухаррир‖. 2024.
2. Ўзбекистон овози, 2010 йил, 18 феврал
3. Махтумкули. Булбул ноласи. (Туркман тилидан Э.Очилов таржимаси). - Тошкент: —Хилол-нашр‖, 2014.
4. Матембетова Г. Йўлларингга чиқдим. –Нукус: 1997.
5. Файрат Мажид. Беш дарс. –Тошкент: —Шарқ‖, 2021.

REZYUME. Mazkur maqolada buyuk turkman shoiri Maxtumquli-Firog_iy she‘riyatining o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotiga ta‘siri masalasi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В этой статье рассматривается влияние поэзии великого туркменского поэта Махтумкули Фироги на узбекскую



и каракалпакскую литературу.

SUMMARY. In this article discusses the influence of the great Turkmen poet Makhtumquli Firoghi's poetry on Uzbek and Karakalpak literature.



Взаимодействие речи автора и речи персонажей в тексте драмы

Daukaeva Khalida

"Silk Road" University of Tourism and Cultural Heritage

Аннотация: В данной статье рассматриваются сложное взаимодействие между речью автора и речью персонажей в драматических текстах. Хотя жанр драмы в основном характеризуется прямым диалогом между персонажами, присутствие автора является неотъемлемым и существенным, формируя повествование, направляя интерпретацию и влияя на восприятие зрителей. Анализируя сценические указания, построение персонажей, развитие темы и метатеатральные элементы, данное исследование показывает, как автор взаимодействует с драматической формой для передачи смысла, идеологии и эмоций.

Ключевые слова: драма, драматург, речь персонажей, ремарки, метатеатр.

В драматическом жанре кажущееся исчезновение авторского голоса часто приводило критиков к утверждению, что драма более «объективна», чем проза или поэзия. Однако это предположение упускает из виду сложные и продуманные средства, с помощью которых драматург встраивает свою точку зрения в текст. Речь персонажей может доминировать на поверхности драматического произведения, но речь автора лежит в основе структуры и глубины драмы.

Взаимодействие между этими двумя типами речи — авторской и речью персонажей — образует динамическое взаимодействие, которое вносит значительный вклад в художественную ценность текста.

Наиболее явной формой авторской речи в драме являются сценические указания - ремарки. Эти недиалогические элементы часто отвергаются как простые технические примечания, однако они несут значительный повествовательный и эмоциональный вес. Сценические указания дают представление о психологии персонажей, задают тон и могут символизировать тематические элементы.

Например, в пьесе Хенрика Ибсена «Кукольный дом» сценические указания тщательно описывают движения Норы, домашнюю обстановку и изменения настроения [5]. Эти подсказки дают читателю или режиссеру инструменты для интерпретации, которые отражают тематическую направленность автора на гендерные роли, динамику власти и личную свободу.

В современных и постмодернистских пьесах сценические указания часто становятся более сложными и даже поэтичными. Пьеса Теннесси Уильямса «Стеклянный зверинец» содержит лирические сценические указания, которые стирают грань между прозой и драматическим текстом [8]. Здесь речь автора является не просто руководством, а повествовательным слоем, который



сосуществует с речью персонажей и влияет на нее.

Хотя драма опирается на диалоги персонажей, эти реплики не являются самостоятельными высказываниями, а тщательно продуманы драматургом. Персонажи становятся проводниками идей, убеждений и критики.

В пьесах Джорджа Бернарда Шоу речь персонажей является высоко интеллектуальной и аргументированной, часто напоминающей сократический диалог. Персонажи Шоу озвучивают социальные и политические проблемы, участвуя в дебатах, которые ясно отражают идеологическую позицию драматурга. Даже когда персонажи представляют противоположные точки зрения, структура и разрешение диалога часто сигнализируют о предпочтительной точке зрения автора.

Точно так же в пьесе Артура Миллера «Салемские ведьмы» речи персонажей служат для критики маккартизма через аллегорическое пересказывание салемских процессов над ведьмами [5]. Хотя каждый персонаж говорит со своей психологической и социальной позиции, общий дискурс сформирован так, чтобы отразить осуждение автором массовой истерии и идеологических преследований.

Помимо речей отдельных персонажей, сама структура пьесы раскрывает замысел автора. Решения о последовательности сцен, драматическом напряжении и тематическом разрешении являются формами авторского общения.

В классической греческой трагедии хор служит посредником между персонажами и зрителями, часто резюмируя, интерпретируя или комментируя действие [3]. Хор, хотя и является частью драмы, функционирует как рупор моральных или философских комментариев драматурга.

Метатеатр — это мощный прием, с помощью которого стирается граница между речью персонажей и речью автора. Он включает в себя пьесы в пьесах, прямое обращение к зрителям и самореференциальные моменты, которые подчеркивают театральность произведения.

Уильям Шекспир часто использовал метатеатральные приемы. В «Гамлете» пьеса «Мышеловка» служит одновременно поворотным моментом в повествовании и метафикациональным комментарием о роли искусства в раскрытии истины [9]. Монологи Гамлете также часто выходят за рамки персонажа и перекликаются с авторскими размышлениями о жизни, действии и смерти.

Современные драматурги, такие как Луиджи Пиранделло, развиваются метатеатр еще дальше. В пьесе «Шесть персонажей в поисках автора» персонажи осознают свой вымышленный статус, напрямую ставя под сомнение природу авторства, идентичности и презентации [6]. В таких случаях различие между речью автора и речью персонажей намеренно стирается.

Язык драмы — еще одна площадка для взаимодействия между автором и
Июнь | 2025, 1-қисм



персонажами. Драматурги манипулируют диалектом, регистром и образным языком, чтобы передать социальный статус, эмоциональные состояния и идеологические противоречия.

Например, в пьесе Огаста Уилсона «Ограды» афроамериканский разговорный язык передает культурную специфику и исторический контекст, а также включает в себя более широкие темы идентичности, угнетения и стойкости [7]. Лингвистические выборы драматурга отражают желание автора сохранить и возвысить голоса маргиналов.

Символизм также часто насливается как через речь, так и через визуальные элементы. В пьесе Сэмюэля Беккета «В ожидании Годо» скромой язык и повторяющиеся диалоги создают лингвистическую пустоту, отражающую экзистенциальное отчаяние [2]. Здесь речь автора заключается не в том, что сказано, а в намеренных ограничениях, наложенных на выражение персонажей.

Дихотомия между авторской речью и речью персонажей в драме не является абсолютной; скорее, она характеризуется динамичным и продуктивным взаимодействием. Хотя персонажи кажутся говорящими независимо, их голоса формируются, направляются и контекстуализируются благодаря скрытому присутствию автора.

Анализируя сценические указания, речь персонажей, тематическую архитектуру, метатеатральные элементы и лингвистические стратегии, мы можем понять многогранные способы, с помощью которых авторы осуществляют контроль над драматическими текстами. Драматург — это далеко не пассивный наблюдатель, а активная сила, чья речь пронизывает все аспекты пьесы. Понимание этого взаимодействия необходимо для всесторонней интерпретации драматической литературы.

Список использованной литературы:

1. Аристотель. Поэтика. Перевод Малкольма Хита, Penguin Classics, 1996.
2. Беккет С. В ожидании Годо. Grove Press, 1954.
3. Брехт, Бертольт. Брехт о театре: развитие эстетики. Hill and Wang, 1964.
4. Ибсен Х. Кукольный дом. Перевод Майкла Мейера, Methuen Drama, 1981.
5. Миллер А. Салемские ведьмы. Penguin Books, 2003.
6. Пиранделло Л. Шесть персонажей в поисках автора. Dover Publications, 1998.
7. Уилсон О. Ограды. Plume, 1986.
8. Уильямс Т. Стеклянный зверинец. New Directions, 1999.
9. Шекспир У. Гамлет. Под редакцией Г. Р. Хиббарда, Oxford University Press, 2008.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSION LOYIHALAR HOLATI

Otajonova Charosxon Polvonquli qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-kurs tayanch doktaranti

ORCID: 0009-0000-6841-8487

Telefon: +998978512277

Elektron pochta: otajonovacharosxon@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar hamda ushbu sohani rivojlantirish maqsadida Xalqaro moliyaviy tashkilotlar hamda xorijiy tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan investitsion loyihamalar va ularning tahlili bayon etilgan. Shuningdek, ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijobjiy va salbiy tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiy o'sish, yashil investitsiyalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, Masdar xorijiy tashkilotlar, energiya tejamkorligi, qayta ishlanadigan va qayta tiklanadiga resurslar.

Kirish

Globallashgan jahon iqtisodiyotida "Yashil iqtisodiyot" atamasi ham borgan sari globallashgan atama aylanib bormoqda. Bunga esa ko'plab mamlakatlar yashil iqtisodiyotni qo'llab aynan o'sha tizimga o'tayotganligidandir. Yashil iqtisodiyotning muhim ahamiyatga ega ekanligining asosiy sabablaridan biri yashil iqtisodiyot atrof muhitni muhofaza qilish, ekologiyani asrash, ijtimoiy farovonlikni oshirish bilan bir qatorda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo'llarini taklif qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra, "Yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirishga olib keladi, shu bilan birga ekologik xavflarni va resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradi. Eng oddiy shaklda, u past uglerod chiqindilari, resurslar samaradorligi va ijtimoiy inklyuziya bilan tavsiflanadi ". Maqsad – munosib ish o'rinalarini yaratish va aholining eng kam ta'minlangan qatlamlari turmush sharoitini yaxshilash imkonini beruvchi ekologik barqaror iqtisodiyot va jamiyatlarga adolatli o'tishga ko'maklashishdir.

O'zbekiston respublikasida ham oxirgi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish, yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish borasida juda ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Bunga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil oktyabr oyida "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori hamda 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ham e'tirof etishimiz mumkin. Ushbu qaror asosida "**2030-**



yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, dasturda yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalihlari doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olingan va ular quyidagilardan iborat (PQ-436-SON, n.d.):

- texnologik modernizatsiya va "yashil" texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, energiya tejash va samaradorligini oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni aniqlash, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya menejmenti orqali energiya samaradorligini sezilarli darajada oshirish;
- "yashil" iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalihsidan kelib chiqib, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash, iqlim o'zgarishiga doir masalalarda davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish, "yashil" iqtisodiyot sohasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali aholi va mahalliy jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;
- "yashil" investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish va "yashil" innovatsiyalarni joriy etishda xususiy investorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat-xususiy sheriklikni va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Asosiy qism

Yashil iqtisodiyot muhim ahamiyatga ega, chunki u atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilash bilan birga iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo'llarini taklif qiladi. Yashil iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Yashil iqtisodiyot muhim ahamiyatga ega, chunki u atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilash bilan birga iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo'llarini taklif qiladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish mamlakatlar uchun quyidagi imkoniyatlar eshigini ochib beradi:

1. Atrof muhitni asrash hamda muhofaza qilish. Bu orqali mamlakatlar ifloslanish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytiradi, qayta tiklanadigan energiyani (quyosh, shamol, gidroenergetika) rag'batlantiradi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirishni rag'batlantiradi.
2. Iqtisodiy imkoniyatlar. Ular: toza energiya, barqaror qishloq xo'jaligi va ekoturizm kabi sohalarda yashil ish o'rinarini yaratadi, ekologik toza texnologiyalarga innovatsiyalar va investitsiyalarni rag'batlantiradi, mamlakatlarga qazib olinadigan yoqilg'i va importga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi.
3. Iqlim o'zgarishini yumshatish. Bu orqali global isishni cheklash bo'yicha global sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi, yerdan barqaror foydalanish, o'rmonlarni qayta tiklash va toza transportni rag'batlantiradi, iqlim bilan bog'liq ofatlarga chidamlilikni oshiradi.
4. Ijtimoiy nafaqlar tadbiq etish. Bu orqali jamiyatda adolatli va munosib ish o'rinarini yaratish orqali inklyuziv o'sishga yordam beradi. Shuningdek, ifloslanishni kamaytirish va toza suv va havoni ta'minlash orqali aholi salomatligini



yaxshilaydi hamda barqaror qishloq xo'jaligi va energiyadan foydalanish orqali qishloq taraqqiyoti va qashshoqlikni kamaytirishni qo'llab-quvvatlaydi.

5. Mamlakatlar iqtisodiyotida uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlab beradi. Misol uchun kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslar mavjudligini ta'minlaydi, mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarishni rag'batlantiradi va muvozanatlari va adolatli iqtisodiyotni yaratadi.

Muxtasar qilib aytganda, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishga erishish - iqtisodiy o'sish, atrof-muhit salomatligi va ijtimoiy tenglikni muvozanatlashning kalitidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani o'quvchilar uchun yanada qullayroq va tushunarli bo'lishi uchun quyidagi tadqiqot metodologiyalaridan: ilmiy yondashuv, taqqoslash, kuzatuv, solishtirma tahlil, mikro hamda makrodarajadagi tahlil, statistik tahlil kabilardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

2018-2025-yillar ichida O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish doirasida Xalqaro moliyaviy tashkilotlar hamda yirik xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda juda ko'plab yashil investitsiyalar amalga oshirilib kelmoqda. Jumladan, Birlashgan Arab Amirliklarining yirik kompaniyalardan biri hisoblangan Masdar kompaniyasi bilan O'zbekistonda elektr energiyasi samaradorligini oshirish borasida 2019-yildan 2025 yilga qadar umumiyligi qiymati taqriban 5 milliard AQSh dollariga teng bo'lган bir qancha loyihibar amalga oshirilib kelmoqda.

Jumladan, 2025-yilning 27-dekabrida Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov energetika sohasida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Energetika vazirligi va Masdar (BAA) o'rtaida O'zbekiston Respublikasida quvvati 2000 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasi va 1150 MVt quvvatga ega energiya saqlash inshootlarini qurish bo'yicha investitsiya shartnomalarini imzoladi. Ushbu loyiga doirasida yiliga 7 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi belgilangan. Loyihaning umumiyligi 2,6 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. 1-jadvalda BAAning Masdar kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihibar tafsifi berilgan (Company, n.d.).

1- jadval

O'zbekiston Respublikasi va BAAning Masdar kompaniyasi o'rtaida amalga oshirilayotgan investitsion loyihibar tahlili (Company, n.d.)

№	Loyiha nomi	Loyiha maqsadi	Loyiha qiymati	Loyiha amalga oshirilish muddati
1.	<i>Uzbekistan solar project: a commitment to green energy</i>	O'zbekiston BAAning Masdar kompaniyasi va Jahon banki bilan hamkorlikda 250 MVt quvvatli energiya saqlash tizimini barpo etish.	350 million AQSh dollar	
2.	<i>Jizzax Quyosh</i>	"Masdar" kompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va "O'zbekiston Milliy	300 million	2021-2025



ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

	<i>Elektr Stansiyasi</i>	elektr tarmog‘i” AJ bilan O‘zbekistonning Jizzax viloyatida 220 megavattlik (MVt) shamol elektr stansiyasini barpo etish. Loyiha 50 000 ta uyni elektr energiyasi bilan ta’minlaydi, yiliga 333 000 tonna CO ₂ miqdorini kamaytiradi va O‘zbekistonning 2030 yilgacha 7 gigavatt (GVt) quyosh va 5 GVt quvvatini rivojlantirish milliy maqsadini qo‘llab-quvvatlaydi.	AQSh dollar	
3.	<i>Zarafshon Shamol Elektr Stansiyasi</i>	500 megavatt quvvatga ega Zarafshon shamol stansiyasi Markaziy Osiyodagi qayta tiklanadigan energiya manbalari bo‘yicha eng yirik loyihadir; yiliga 1,1 million tonna karbonat angidridni almashtirib, 500 000 uyni quvvatlantirish uchun yetarli elektr energiyasini ta’minlaydi. Loyiha O‘zbekistonning 2030-yilga borib elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining 25 foizini qayta tiklanadigan manbalardan qondirish maqsadini qo‘llab-quvvatlaydi	600 million AQSh dollar	2020-2025
4.	<i>Sherobod Quyosh Elektr Stansiyasi</i>	457 MVt quvvatga ega quyosh PV loyihasi. Masdar PV elektr stantsiyasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish va ishlatish uchun. Yiliga 623 477 tonna karbonat angidridni kamaytiradi. 94 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta’minlaydi	396,4 million AQSh dollar	2021-2026
5.	<i>Buxoro Quyosh Elektr Stansiyasi va Energiya Saqlash tizimi</i>	Buxoro viloyati Olot tumanida 250 megavatt (MW) quyosh energiyasi hamda 63 MW batareya energiya saqlash tizimini barpo etish. Ushbu loyiha doirasida 585 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.	179,6 million AQSh dollar	2023-2025

Shuningdek, 2024-yil oktabr oyida O‘zbekiston hukumati 1,3 milliard AQSh dollarlik chiqindidan energiya olish loyihasi qabul qilingan bo‘lib, ushbu loyiha doirasida 4,7 million tonna qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali 2,1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Loyiga investitsiya kiritayotgan xalqaro hamkorlar Xitoyning CAMC Engineering, Shanghai SUS Environment hamda China Everbright Group kompaniyalari, Birlashgan Arab Amirliklarining Tadweer Group va Janubiy Koreyaning Sejin Heavy Industries kompaniyalari hisoblanadi (Control, n.d.).

Yashil iqtisodiyot bu shunchaki ekologik tashabbus emas, balki global hamiyatga ega bo‘lgan jahon iqtisodiy tizimini qayta shakllantirishga xizmat qiluvchi kuchli va samarali mexanizmdir. U orqali mamlakatlar hamda insoniyat iqtisodiy o’sishni davom



etirgan holda tabiatni asrab-avaylash, iqlim muammolarini yengish va kelajak avlodlar uchun barqaror hayotni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PQ-4477-sonli qarori. 04.10.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-436-sonli qarori. 02.12.2022.
3. Ethiopia's Climate-Resilient Green Economy. Federal Democratic Republic of Ethiopia, 2011 by: *Ethiopia*.
4. Green Economy: Scoping Study Synthesis Report Barbados. UNEP, UWI, Government of Barbados, 2012 by: *United Nations Environment*.
5. Working Towards a Balanced and Inclusive Green Economy. Environmental Management Group, United Nations, 2011. by: *Environmental Management Group*.
6. Green Economy Accord. South Africa, 2011. by: *South Africa*.
7. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. UNEP, 2011. by: *United Nations Environment*.
8. <https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?menu=1446> – Sustainable Developments Goals Knowledge Platform.
9. <https://masdar.ae/en/global-office-locations/uzbekistan> - Official website of the UAE's Masdar Company.
10. <https://globalflowcontrol.com/newsroom/uzbekistan-to-build-8-waste-to-energy-plants-by-2027> - Official website of the Global Flow Control.



ЭКСПОРТНИ ОЛДИНДАН МОЛИЯЛАШТИРИШ ШАКЛЛАРИ (1-КИСМ)

Худойназаров Шерзод И smoилович

Денов табдиркорлик ва педагогика
институти. Денов. Ўзбекистон

Аннотация Мазкур мақолада амалдаги иқтисодий санкциялар шароитида экспорт олдидан молиялаштириш лойихаларини амалга оширишнинг ўзига хос жиҳатлари кўриб чиқилган. Мамлакатимизда мавжуд иқтисодий шароитда экспорт олдидан молиялаштиришни ривожлантиришнинг эҳтимолий йўналишлари ва истиқболли схемалари таклиф этилган. Муаллиф айни пайтда Ўзбекистон банк бозорида экспорт молиялаштиришини ривожлантириш учун қулай вазият юзага келганини таъкидлайди ҳамда Ўзбекистон банклари капитални йўналтириш учун янги манбаларни излаши лозимлигини, шундай манбалардан бири сифатида юқори рақобатбардош экспорт молиялаштиришни кўрсатади.

Калит сўзлар Савдо молиялаштириши, экспорт олдидан молиялаштириш, иқтисодий санкциялар, иқтисодий ривожланиш, аккредитив.

Ушбу мақолада савдони молиялаштиришнинг йўналишларидан бири — экспортни олдиндан молиялаштириш ҳақида сўз юритилади. Экспорт олдиндан молиялаштириш деганда, экспорт қилувчи компанияга маҳсулотни чет эл компаниясига ишлаб чиқариш ёки жўнатиш санасидан бошлаб, товарни сотиб тушадиган экспорт шартномаси бўйича тушум олиш муддатигача бўлган даврда молиялаштириш тушунилади. Экспорт олдиндан молиялаштириш Ўзбекистондаги ўрта бизнес корхоналари учун жуда қизиқ, бироқ ҳатто угунги даврда ҳам у амалий хавфлар юқорилиги сабабли кенг ривожланмаган.

Асосий муаммо шундаки, экспорт олдиндан молиялаштириш битимлари молиялаштиришнинг аниқ белгиланган тузилмасига эга ва деярли тўлиқ тижорат шартларини ўзгартириш имкониятини истисно қиласи, яъни кредит схемаси ҳам, тўлаш жадвали ҳам аниқ тижорат битимиға мослаштирилади.

Экспортни молиялаштиришнинг яна бир шакли — бу банк кафолатлари. Бундай кафолатлар кўпроқ таъминот функциясини бажаради ва экспортда, одатда,



иккита турдан фойдаланилади: аванс тўловини қайтариш кафолати ва шартномани бажариш кафолати.

Аванс тўловини қайтариш кафолати (Advance Payment Guarantee) — бу экспортёр-корхона томонидан харидордан олинган аванс тўловини қайтаришни таъминлаш учун банк томонидан берилади. Бунда экспортёр маҳсулот ишлаб чиқариш ёки жўнатиш учун зарур маблағни банкдан молиялаштиришни жалб қилмасдан олади, бу эса молиялаштириш умумий нархини пасайтиради ва харидорга экспортёр томонидан мажбуриятларини тўғри бажарилишини кафолатлайди.

Шартномани бажариш кафолати (Performance Bond) — харидор олдида товар/хизмат етказиб бериш мажбуриятларини экспортёр тўлиқ бажаришини таъминлаш учун банк томонидан берилади. Бу кафолат экспорт шартномаси шартларига мувофиқ мажбуриятлар бажарилмаслиги ҳолатида харидорнинг хавфларини қоплайди.

Банк кафолати ўрнига резерв аккредитив (Stand-by Letter of Credit, SBLC) ҳам фойдаланилиши мумкин. Аслида — бу кафолат функциясини бажарувчи аккредитивлар. Резерв аккредитивнинг кафолатдан фарқи — унинг хужжатли аккредитивлар бўйича ягона қоидалар (UCP 600) га бўйсунувчи механизмда эканлигидир. Кафолат/резерв аккредитив бўйича комиссия харажатлари, одатда, экспортёр томонидан қопланади.

Экспортёrlар учун кредит ресурслари баҳосини камайтириш мақсадида экспорт агентлиги (ЭКСАР)нинг ролини кучайтириш зарур.

ЭКСАР томонидан тақдим этиладиган сугурта ҳимояси экспорт кредитларини бизнес ва сиёсий хавфлардан муҳофаза қиласи. Шу тариқа, ЭКСАР иштирокидаги молиялаштириш битимлари банклар учун резерв миқдорини камайтиради ва ўз навбатида, Ўзбекистон маҳсулотларини ташқи бозорларда илгари суришга ёрдам беради.

Шунингдек, банклар логистика — юк ташиш, қайта юклаш ва сақлаш, мультимодал ташиш каби жараёнларни ҳам молиялаштиришни бошлиши лозим, бу эса экспортёrlар учун харажатларни оптималлаштиришга ёрдам беради.

Экспортни молиялаштириш халқаро молиялаштиришда устувор йўналиш



ҳисобланади, аммо ҳозирча ўрта бизнесда кенг ривожланмаган. Шунинг учун молия муассасалари фақатгина етказиб беришни молиялаштириб қолмасдан, экспортёрлар учун риск-менежер сифатида ҳам фаолият олиб бориши керак. Бундай хизматни кўрсатиш учун банкларда юқори малакали мутахассислар бўлиши лозим.

Фондлаш нуқтайи назаридан Ўзбекистон банклари ҳозирча чет эл банкларига қараганда чет эл валютасидаги ресурслар баҳоси бўйича ютқазмоқда. Аммо экспортёр корхоналар харажатлари асосан Россия рублида амалга оширилади, шунинг учун фондлаш баҳосини пасайтириш мақсадида реал кредит ресурслари баҳосига эътибор қаратиш зарур:

Реал фоиз ставкаси = номинал фоиз ставкаси – инфляция – валюта хавфини хеджирлаш харажати.

Шу боис, ташки иқтисодий фаолият учун рубльдаги кредитлар рақобатбардош бўлиши учун уларнинг реал фоиз ставкалари валютадаги кредитларнидан ортиқ бўлмаслиги керак.

Бизнес худудларини кенгайтириш мақсадида экспортёрлар хорижда контрагентлар сонини ошириш, айланма капитални кўпайтириш, жаҳон бозорида фаолиятни кенгайтириш имконини берувчи сифатли банк хизматлари учун комиссия тўлашга тайёрлар. Банк нуқтайи назаридан бу хизматлар қўшимча хавфлар билан боғлиқ бўлгани учун экспортни молиялаштириш нархи ва шартлари импортни молиялаштиришдан қаттиқроқ бўлади. Бироқ айтиш жоизки, банклар халқаро молиялаштириш маҳсулотларини жорий этишда 10 йилдан ортиқ тажрибага эга бўлиб, бу эса хатоларни такрорламаслик ва экспорт битимларини тузишда хавфларни минималлаштириш имконини беради.

Шуни ҳам таъкидлаш керакки, экспорт олдиндан молиялаштириш доимо мақсадли молиялаштириш бўлиб, агар экспортёр ишончли бўлса ва харидор тўловга қобил бўлса, битим минимал хавфли деб топилиши мумкин. Бироқ бундай битимни мұваффақиятли амалга ошириш учун харидор мамлакати қонунчилигини яхши билиш керак, чунки қонун нормаларини билмаслик Ўзбекистон экспортёри хукуқларининг бузилишига олиб келиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон банк бозорида экспортни



молиялаштиришни ривожлантириш учун қулай вазият шаклланди.

Мамлакат экспорт ҳажмини ошириши ва валюта тушумларини бюджет ҳамда захираларни тўлдириш учун жалб қилиши керак. Рубль девальвацияси маҳаллий маҳсулотлар рақобатбардошлигини ошириб, уларни жаҳон бозоридаги мавқеини кенгайтириш имконини беради. Муваффақиятга эришиш учун Ўзбекистон банкларига аниқ ривожланиш стратегияси ва маҳаллий бозорни, мижозларни ва миллий валютада молиялаштириш имкониятларини тўғри баҳолаш керак бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, экспорт олдиндан молиялаштиришни ривожлантириш — факат Ўзбекистон банклари эмас, балки давлатнинг ҳам самарали экспортни қўллаб-қувватлаш тизими орқали амалга ошириладиган умумий вазифадир. Ҳозирги кунда асосий вазифа — халқаро тажрибаларга мос келувчи ва рақобатбардош миллий экспортни тарғиб қилиш тизимини яратиш ҳамда Ўзбекистон компанияларининг халқаро бизнесини давлат томонидан қўллаб-қувватлашдан иборат.



ЭКСПОРТНИ ОЛДИНДАН МОЛИЯЛАШТИРИШ ШАКЛЛАРИ (2-КИСМ)

Худойназаров Шерзод И smoилович

Денов табдиркорлик ва педагогика
институти. Денов. Ўзбекистон

Аннотация Мазкур мақолада амалдаги иқтисодий санкциялар шароитида экспорт олдидан молиялаштириш лойихаларини амалга оширишнинг ўзига хос жиҳатлари кўриб чиқилган. Мамлакатимизда мавжуд иқтисодий шароитда экспорт олдидан молиялаштиришни ривожлантиришнинг эҳтимолий йўналишлари ва истиқболли схемалари таклиф этилган. Муаллиф айни пайтда Ўзбекистон банк бозорида экспорт молиялаштиришини ривожлантириш учун қулай вазият юзага келганини таъкидлайди ҳамда Ўзбекистон банклари капитални йўналтириш учун янги манбаларни излаши лозимлигини, шундай манбалардан бири сифатида юқори рақобатбардош экспорт молиялаштиришни кўрсатади.

Калит сўзлар Савдо молиялаштириши, экспорт олдидан молиялаштириш, иқтисодий санкциялар, иқтисодий ривожланиш, аккредитив.

Ушбу мақолада савдони молиялаштиришнинг йўналишларидан бири — экспортни олдиндан молиялаштириш ҳақида сўз юритилади. Экспорт олдиндан молиялаштириш деганда, экспорт қилувчи компанияга маҳсулотни чет эл компаниясига ишлаб чиқариш ёки жўнатиш санасидан бошлаб, товарни сотиб тушадиган экспорт шартномаси бўйича тушум олиш муддатигача бўлган даврда молиялаштириш тушунилади. Экспорт олдиндан молиялаштириш Ўзбекистондаги ўрта бизнес корхоналари учун жуда қизик, бироқ ҳатто угунги даврда ҳам у амалий хавфлар юқорилиги сабабли кенг ривожланмаган.

Асосий муаммо шундаки, экспорт олдиндан молиялаштириш битимлари молиялаштиришнинг аниқ белгиланган тузилмасига эга ва деярли тўлиқ тижорат шартларини ўзгартириш имкониятини истисно қиласди, яъни кредит схемаси ҳам, тўлаш жадвали ҳам аниқ тижорат битимиға мослаштирилади.

Шу тариқа, ҳужжатли операциялар билан чекланган савдо молиялаштириши



экспортёрларнинг замонавий талабларига жавоб бермайди. Импортёрлардан фарқли ўлароқ, экспортёрлар халқаро мижозларга хизмат кўрсатиш ва сотувларни ривожлантириш учун жавобгардирлар, шу боис уларга барча соҳалардаги банк маҳсулотлари талаб этилади.

Бироқ, молия муассасалари ва йирик банклар томонидан таклиф этилаётган дастурларнинг кўпчилиги ҳужжатли операцияларни тузишга қаратилган, яъни амалга ошириш хавфи кам бўлган операцияларга, бу ҳам банклар, ҳам иштирокчи компаниялар учун хавфсиз ҳисобланади. Бу ҳолат экспортнинг ривожланишини жиддий даражада чеклайди, чунки Ўзбекистон банкларида аккредитивлар, одатда, импортёр компанияларга очилади, экспортёрлар эса чет эл компаниялари томонидан аккредитив очилган тақдирда ҳам молиялаштириш ва келажакдаги экспорт тушумига нисбатан тўлов муддатини кечиктириш имкониятига эга эмаслар.

Шу тариқа, экспорт операцияларини молиялаштиришни ривожлантириш — халқаро молиялаштириш сегментида бугунги кунда такомиллаштириш учун муҳим йўналиш ҳисобланади.

Мавжуд мураккаб вазиятга қарамай, Ўзбекистон банклари юқори сифатли экспортёр-клиентларни жалб қилмоқда. Бу компаниялар олдин чет эл банкларидан тўғридан-тўғри молиялашган ёки давлат банклари орқали молиялашган, аммо санкциялар туфайли муаммоларга дуч келмоқда. Чет эл банклари ҳар доим Ўзбекистон компаниялари билан эҳтиёткорлик билан иш олиб борган, шу боис, ҳатто тинч даврларда ҳам улар қайта молиялаштиришга шошилмас, аммо янги кредитлар беришда тезкорликка ҳаракат қиласди. Бугун эса, мавжуд иқтисодий санкциялар шароитида, янги ва мавжуд мижозларни қўриб чиқиши шартлари ва тартиблари кескин мураккаблашди, вақт эса анча узайди. Шунга қарамасдан, экспортни молиялаштириш банклар учун жозибадор схема бўлиб қолмоқда, чунки у молиялаштирилаётган шартнома бўйича пул ҳаракатини тўлиқ назорат қилиш имконини беради. Экспорт тушуми мавжудлиги банк олдида экспортёр мажбуриятларини бажаришни кафолатлайди. Бироқ битимни амалга оширишдаги қатъийлик экспортёрларга халал беради ва экспорт олдиндан молиялаштиришнинг асосий камчилиги ҳисобланади.



Экспорт олдиндан молиялаштиришни амалга ошириш учун содда кредит, овердрафт, кредит линияси ва ҳ.к. каби молиялаштиришнинг деярли барча шаклларидан фойдаланиш мумкин. Классик экспорт олдиндан молиялаштириш — бу оддий маҳсулот бўлиб, битимни амалга ошириш учун экспорт шартномаси ва кейинроқ тақдим этилиши мумкин бўлган жўнатув ҳужжатлари етарли. Аммо тузилмавий экспорт олдиндан молиялаштириш — бу мураккаб молия схемаларини, баъзан тўғридан-тўғри чет эл банкларидан кредит олувчи йирик экспортёrlарни жалб қилишни талаб қилувчи маҳсулотдир. Ишончли йирик ҳамкорларни жалб қилиш банклар учун хавфни камайтиради, чунки бундай ҳолларда чет эл банклари мижозларининг дебитор қарзини таъминот сифатида қабул қилишга тайёр бўладилар.

Экспорт олдиндан молиялаштиришни амалга ошириш учун қуидаги асосий мезонларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

- кредит ресурсларининг баҳоси — харажатларни оптималлаштириш орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш;
- молиялаштириш муддати — айланма капиталдан самарали фойдаланишини яхшилаш;
- бизнес худудларини кенгайтириш — маҳсулотни халқаро бозорларга олиб чиқиш мақсадида контрагентлар сонини кўпайтириш.

Экспортёр-компаниялар учун молиялаштиришнинг жозибали баҳосини таъминлаш мақсадида, банклар, одатда, чет эл банкларидан очиқ лимитлар ёки банк-кредитор кафолати асосида жалб қилинган кредитлардан, шунингдек “қизил” ёки “яшил” шарт билан очилган аккредитивлардан фойдаланадилар.

Биринчисида, чет эл банки — одатда импортёрнинг банки — экспорт шартномасини кейинчалик молиялаштириш учун экспортёрнинг банкига кредит тақдим этади.

Импортёр “қизил шарт”ли аккредитив очган тақдирда, банк-кредитор аккредитив бўйича тўлиқ ҳужжатлар пакети тақдим этилгунга қадар экспортёр-корхонага маҳсулот ишлаб чиқариш ёки етказиб беришни олдиндан молиялаштириши мумкин. Бундай аккредитив “антитисипаторий” (Anticipatory) сифатида ҳам маълум.



“Яшил шарт”ли аккредитив банк-кредиторга маҳсулот жўнатилиши ёки хужжатлар тақдим этилишидан олдин аванс тўлаш имконини беради, агар маълум таъминот мавжуд бўлса, масалан, омборда товар мавжудлигини тасдиқловчи омбор маълумотномалари. Агар аккредитив шартларидан қандайдир бузилиш юз берса, банкнинг раамбурс мажбуриятлари ушбу таъминот ҳисобига қопланади. Бироқ амалиётда Ўзбекистон банклари бундай аккредитив турларидан фойдаланмайди, чунки улар мураккаб тузилмали инструментлар бўлиб, аккредитив шартларини бажариш муддатлари устидан аниқ назоратни талаб қиласди.

Жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида экспортни қўллаб-куватлаш чораси сифатида форфейтинг фаол қўлланилади. Бу халқаро операция тури ишончли чет эл контрагентлари билан шартномаларда нақд пул бўшлиқларини бартараф этиш учун импортёр томонидан акцепт қилинган векселларни экспортёрдан сотиб олиш орқали амалга оширилади.

Кредитлаш баҳоси юқорида таъкидланганидек, экспорт молиялаштириш дастурларини ривожлантиришда эътибор берилиши лозим бўлган муҳим мезонлардан биридир. Шу сабабли, нархни минималлаштиришнинг муҳим омилларидан бири — экспорт молиялаштириш учун фоиз ставкасини субсидиялаш ҳисобланади.

Биринчи мезон бажарилганда, учинчи мезон — бизнес ҳудудларини халқаро бозорларга кенгайтириш ҳам автоматик равишда амалга ошади, иккинчи мезон эса экспорт битимини тузишида биринчи билан қўшилиб кетади. Шу сабабли янги схемалар ва молиялаштириш тузилмаларини яратиш ёки мавжуд мураккаб тузилмали схемаларни кенгрок қўллаш зарур.

Экспортни молиялаштиришнинг яна бир шакли — бу банк кафолатлари. Бундай кафолатлар кўпроқ таъминот функциясини бажаради ва экспортда, одатда, иккита турдан фойдаланилади: аванс тўловини қайтариш кафолати ва шартномани бажариш кафолати.

Аванс тўловини қайтариш кафолати (Advance Payment Guarantee) — бу экспортёр-корхона томонидан харидордан олинган аванс тўловини қайтаришни таъминлаш учун банк томонидан берилади. Бунда экспортёр маҳсулот ишлаб чиқариш ёки жўнатиш учун зарур маблағни банкдан молиялаштиришни жалб



қилмасдан олади, бу эса молиялаштириш умумий нархини пасайтиради ва харидорга экспортёр томонидан мажбуриятларини тўғри бажарилишини кафолатлайди.

Шартномани бажариш кафолати (Performance Bond) — харидор олдида товар/хизмат етказиб бериш мажбуриятларини экспортёр тўлиқ бажаришини таъминлаш учун банк томонидан берилади. Бу кафолат экспорт шартномаси шартларига мувофиқ мажбуриятлар бажарилмаслиги ҳолатида харидорнинг хавфларини қоплайди.



MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TARTIBGA
SOLISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Norboyev Sarvar Azodovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Телефон: +998993483141

serry30011988@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini tartibga solishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, tartibga solish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, infratuzilma, innovatsiyalar.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy faollikni kuchaytirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohaga oid davlat siyosati doirasida normativ-huquqiy baza, moliyaviy rag'batlantirish va institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlari shakllantirilgan. Huquqiy jihatdan Konstitutsiya, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartibga solishning asosiy negizini tashkil etadi. Amaldagi hujjatlar orqali xususiy mulk daxlsizligi, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar va soliq imtiyozlari ta'minlanmoqda. Ayniqsa, kambag'allikni qisqartirishda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Kambag'allikni qisqartirishning eng ta'sirchan va faol yo'nalishi sifatida kichik biznes va tadbirkorlik sohasi hisoblanadi. Bu bo'yicha mamlakatimizda tegishli me'yoriy-hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining O'RQ-923-son Qonuni [1] qabul qilindi. Qonun orqali soliq imtiyozlari va preferensiyalar, xususan, soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish hamda pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali tadbirkorlik sub'ektlarini kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarga faol jalb qilish belgilab berildi. Huquqiy hujjatlar to'plami kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratadi, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishni, biznes yuritish shart-



sharoitlarini yaxshilashni va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Shuningdek, Bu boradagi asosiy yo'nalishlar bo'lgan norasmiy ish bilan bandlikni qisqartirish va yangi ish o'rinalarini tashkil etishni ko'paytirish hamda yoshlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy va ilmiy tadqiqotlar olib borish mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi [2]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobat sharoitida rivojlanib boradi. Ya'ni, erkin raqobat asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli to'xtovsiz ortib bormoqda [3]. Shularga asosan, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini tartibga solish yo'nalishlarini quyidagi asosiy guruhlarga bo'lish mumkin:

1) Institutsional muhitni takomillashtirish:

- Qonunchilik bazasini takomillashtirish: Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, biznesni boshlash va yuritish shartlarini optimallashtirish, monopoliyaga qarshi kurashish, raqobat muhitini yaxshilash, mulkiy huquqlarni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash.
- Davlat xizmatlarini optimallashtirish: Davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, davlat organlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, tadbirkorlar uchun "yagona darcha" tamoyilini kengaytirish.

2) Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish:

- Kredit resurslariga kirishni osonlashtirish: Imtiyozli kredit liniyalarini yaratish, kredit olish tartibini soddalashtirish, garov talablarini kamaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish.

- Davlat tomonidan subsidiyalar va grantlar ajratish: Kichik biznesning innovatsion loyihibalarini, eksportga yo'naltirilgan faoliyatini va yangi ish o'rinalarini yaratishni rag'batlantirish, venchur moliyalashtirishni rivojlantirish.

3) Infrastrukturani rivojlantirish:

- Biznes inkubatorlar va texnoparklarni yaratish: Yangi bizneslarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish.
- Transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash: Yo'llarni ta'mirlash va qurish, temir yo'l va havo transporti xizmatlarini rivojlantirish, logistika markazlarini yaratish.

4) Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish:



- Tadbirkorlik ta'limini rivojlantirish: O'quv dasturlariga tadbirkorlik asoslarini kiritish, biznes-treninglar va seminarlar tashkil etish.

- Kichik biznes uchun mutaxassislar tayyorlash: Kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida kichik biznes uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash.

5) Bozorlarga kirishni qo'llab-quvvatlash:

- Mahalliy bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish: Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

- Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash: Eksportni rag'batlantirish, eksport qiluvchilarga imtiyozlar berish, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishni tashkil etish.

6) Innovatsiyalarni rag'batlantirish:

- Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash: Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, texnologiya transferini rag'batlantirish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

- Ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tijoratlashtirish: Ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan kichik biznes korxonalari o'rtaida hamkorlikni rivojlantirish.

7) Monitoring va baholash:

- Kichik biznesni rivojlantirish dasturlarining samaradorligini baholash: Dasturlarning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini baholash, natijadorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

- Tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha monitoring o'tkazish: Tadbirkorlarning fikrini o'rganish, muammoli masalalarni aniqlash, takliflar ishlab chiqish.

$$v = \frac{Q}{S} = \frac{Q}{a \cdot b} = \frac{0.27 \text{ m}^3/\text{s}}{1.5 \text{ m} \cdot 0.6 \text{ m}} = 0.3 \text{ m/s}$$



Yuqoridagilardan ko‘rib turganingizdek vektor ko‘rinishidagi ifodalardan foydalanish orqali aksariyat masalalar matematikadagi “Kosinuslar teoremasi” ya’ni “Uchburchakning ikki tomoni va ular orasidagi burchak berilgan holda uning uchinchi tomonini toping” tipidagi masalalarga kelib qoldi va oson yechimga ega bo‘ldik. Vektor ko‘rinishidagi ifodalarni afzallikkabi har bir bo‘limdagi masalalarni yechishda, mavzuni to‘liqroq tushunishda, o‘quvchiga sodda holatda yetkazib berishda katta natija beradi.

Adabiyotlar

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28.08.2023.
4. Сборник задач по физике. 10-11 классы/Авт.-сост. Е.Г.Московкина, В.А.Волков.-М.:BAKO,2017.



O'SMIRLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna

TDTU Olmaliq filiali “Ijtimoiy gumanitar va tillar”
kafedrasи assistenti ,

A.Ashirov

Konchilik ishi fakulteti 5ak-22KEM guruh talabasi
sayyoramirzaxmatova13@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada o'smirlik davriga xos bo'lgan asosiy psixologik va ijtimoiy muammolar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu davrda nizolarga moyillik, o'ziga past baho berish, ota-onalar va atrofdagilar bilan munosabatlardagi murakkabliklar va ushbu muammolarni keltirib chiqaruvchi omillar, ularning oqibatlari va bartaraf etish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik, emotsiyal muammolar, gormonal o'zgarishlar, shaxsiy inqiroz, ijtimoiy moslashuv, oilaviy munosabatlar, psixologik yordam.

O'smirlik insonni balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farq qiladi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi.

O'smirlikda eng asosiy muammolardan biri — identiklik inqirozidir. Erikssonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smir bu davrda "men kimman?" degan savolga javob izlaydi. Bu jarayonda u turli rollarni sinab ko'radi, tajriba orttiradi. Ammo ota-onalar yoki jamiyat tomonidan bosim bo'lsa, o'smir o'zini yo'qotishi, yolg'izlik, tushkunlik, hatto depressiyaga tushishi mumkin.

Gormonal o'zgarishlar tufayli o'smirlar ko'pincha emotsiyal jihatdan noaniq bo'ladilar. Tez jahli chiqishi, yig'loqilik, o'z-o'zini ayblash, tushkun kayfiyat yoki tajovuzkorlik kabi holatlar kuzatiladi. Bu holatlar o'z-o'zini anglash, ijtimoiy munosabatlar va qaror qabul qilishda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Balog'at davriga 11-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy yetilish amalga oshadi. O'smirlik yoshida qizlar va o'g'il bolalarning jismoniy qiyofasida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrning boshlanishida qizlar o'g'il bolalarga nisbatan tezroq o'sib ulg'ayadilar. Bu jarayon qiz bolalarnig ertaroq jinsiy balog'atga yetishiga bog'liqdir.

O'smirlik yoshida faqat jismoniy taraqqiyot yuzaga kelmay, balki bolaning shaxsi ham sezilarli rivojlanadi. Bola shaxsining rivojlanishi tevarak-atrofdagi voqelikning ta'siri ortida maktabdagi, ta'lif tarbiya jarayonining ta'sirida, jamoa va tarbiyachilarining g'oyaviy rahbarligi ostida amalga oshadi. O'smirlik yoshi xatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashlarning, ma'naviy e'tiqod, prinsip, qoida, idealarining, baholash, mulohazalari sistemasining tarkib topish davridir. Agar kichik maktab yoshidalik davrida u kattalarning, ya'ni o'qituvchilar va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan, yoki o'zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-harakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari va e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi.

O'smirlar ko'pincha ota-onaning nazoratini haddan tashqari deb biladilar. Bu esa avtoritetlar bilan qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Ijtimoiy mustaqillik istagi va ota-



onaning nazorati o'rtasidagi ziddiyatlar mojarolarga olib keladi. Ushbu vaziyatlar psixologik tushunmovchilik, uyda ishonchli muhitning yo'qolishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda ahloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. O'smir turli narsalarni mutlaqo aniq differensiallaydi. Agar tanaffus paytida o'ynab turib stulni sindirib qo'ysa va uni ustaxonada tuzatish lozim bo'lsa, bu jazo emas. Agar o'zining iflos qilgan joyini supurishga majbur qilinsa bu ham jazo emas. Bularning mantiqi o'smir uchun ravshan, ya'ni bu jazolash emas, balki hati-harakatlarining natijalarini tuzatishdir.

O'smirlar o'zlarining kelajakdag'i hayot va faoliyatlarini o'z orzularida loyihalashtiradilar. Katta ishlar va qahramonona kasb kishilari, fan va mehnat kishilari o'smirlarimizning aql-hushini o'rab olgandir. Bu mamlakatimiz hayotidagi keng va chuqur ijtimoiy hodisalar bilan xozirgi vaqtdagi haqiqiy qahramonona ishlar bilan bog'liqdir.

O'smirlarimizning orzulari ularning mamlakatimiz hayotida, ijtimoiy foydali faoliyatda qatnashishi uchun bo'lgan intilishlardan darak bermoqda. O'smirlik yoshiga o'tish o'quvchilarning o'qish faoliyatidagi muhim qayta o'zgarishlar bilan bog'liqdir. O'qish faoliyatining yangi va yuqoriq bosqichi uning mustaqillik darajasi bilan belgilanadi. O'smirlik yoshining boshlanishi o'qish faoliyati eng yuksak bosqichining tarkib topa boshlashi bilan bog'lanadi. O'smir uchun bilish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mustaqil bilim ortirish tarzidagi o'qish faoliyatining ma'nosini sekin-asta ochila boshlaydi. Voqeylekka bo'lgan ongli munosabatning o'sishi bilan o'smirlarning o'qishga bo'lgan ongli munosabatlari sezilarli darajada kuchayadi. O'zlarining o'qish faoliyatlarida ular sekin-astalik bilan shaxsiy ma'no kasb etadigan haqiqiy, chuqur bilimlar bilan yangicha munosabatlarga bog'langan yangi, yuksakrok bosqichga ko'tariladilar.

O'smir odadta o'zining o'qishdagi muvaffakiyatsizliklarini qattiq ichdan kechiradi, lekin uning izzat nafsi ba'zan bu muvaffakiyatsizlikka bo'lgan haqiqiy munosabatni niqoblash hohishini tug'diradi. Natijada o'quvchi o'qishdagi muvaffakiyatlarga o'zini mutlaqo befarqdek va beparvodek tutadi, hatto soxta mardlik ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Katta o'smirlar o'zlariga beradigan baho bilan atrofdigilarni ularga beradigan bahosini qiyosiy tahlili natijasida o'zlarini ob'ektivroq baholay boshlaydi. O'z taqdirini o'zi belgilashga psixologik tayyorlikda, shubhasiz, o'z-o'zini anglash etakchi rol o'ynaydi. O'z fazilatlarini anglash va ularni baholash, o'zining haqiqiy va orzu qilingan "Men"ni haqidagi tasavvurlari, avvaliga o'zining erkinligi, istak va intilishlarining cheklanishiga nisbatan yashirin, keyin esa ochiq norozilik bildiriladi.

Ba'zi o'smirlarda bu davr og'ir o'tishi va bir qator muammolar paydo bo'lishi mumkin: depressiya, addiktiv xulq-atvor, o'quv motivatsiyasini pasayishi, ota-onalar, pedagoglar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlardagi nizolar, erta va palapartish jinsiy munosabatlar oqibatida istalmagan homiladorlik hamda turli xil og'ir kasalliklar, qoidabuzarlikdan to jinoiy xatti-harakatlargacha, shunday ekan, ushbu muammolarni o'z vaqtida oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalardandir.

Ushbu o'tish davrida o'smirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ulardag'i o'zgarishlarni anglashiga yordam berish va bu yosh davrida uchraydigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha psixologik treninglar, psixologik maslahat va davra suhbatlari o'tkazish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Davletshin M.G va boshqalar “Yosh va pedagogik psixologiya” T: TDPU,2004.
- 2.G‘oziyev E.G. “Ontogenez psixologiyasi” T: NOSHIR,2010.
- 3.Xamroyeva.G‘G‘. “Yosh davr va pedagogik psixologiya”,
O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan zamonaviy darslik, 2020.
- 4.Nishonova Z.T, Alimova G.K, Tug‘unboeva ,A.D,Asronboev M.X. “ Bolalar psixologiyasi” T:2017.
- 4 SS Mirzaxmatova . O’QUVCHILAR KAYFIYATINI BOSHQARISHNING O’ZIGA XOSLIGI. Fan, Jamiyat Va Innovatsiyalar, 3 (21), 37-39
- 5.Qosimova M.N.”Sifatli ta’limni-sifatli pedagoglar amalga oshiradi” Til va adabiyot.jurnali 2025-yil aprel 8-son

**O'QUVCHILAR SOG'LOM TURMUSH TARZI JISMONIY MADANIYATINI
FUNKSIONAL O'ZGARISHLAR SAMARADORLIGI**

Musayev Zarifjon Tursunaliyevich
Pedagogika kafedrasи tayanch doktoranti, Qo'qonDU
+998(91)150-30-06

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilar sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatini funksional o'zgarishlar samaradorligini oshirishda harakat faolligi, me'yorlash va organizmda funktsional o'zgarishlarni yuzaga kelishi haqida so'z boradi.

Kalit so 'zlar: sog'lom turmush tarsi, funksional o'zgarishlar, jismoniy madaniyat, harakat faoliyatları, genetik kasalliklar.

Mamlakatimizning hozirgi tarixiy davri, jamiyatimiz taraqqiyoti, halqimiz hayotining barcha jabhalarida kontseptual yangilanishlar, chuqur ildizga ega bo'lgan, uzoqni ko'zlagan reformalar davrini boshdan kechirmoqda. Tabiiyki, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy hayot, fan-texnika, texnologiyalar asri jamiyatimiz a'zolarigagina emas, ularning o'quvchi-yoshlarini jismoniy madaniyat ta'lif tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy.

Ajdodlarimizning diniy va dunyoviy ilmlari mazmunida "salomat-lik"ni asrashdek ulug' qadriyatlarga, qaysi yoshga kirganligidan qat'iy nazar, o'z "hayotiy boyliklari mehrobi"ning to'ridan joy ajratganlar. Salomatlikni asrash, avalash odobini kichik yoshdalik davridan boshlab shakllantirib, jismining tarbiyasiga nisbatan inert, bepisanda bo'lganlarga (gipodinamiya, gipokeniziya) yaxshi munosabatda bo'limganlar. "Oyog'idan o't chiqadigan", harakat faoliyatları, yurish, turishida shahdam, faol harakatlanadigan", shijoatli farzandlarni rag'batlantirganlar. Hayotiy bilimlari va tajribalariga tayanib avlodining jismi tarbiyasida genetik kasallikka moyilligi borlarini avlodining yetti pushtidan qidirish va boshqa qator qadriyatlarga aylangan tani-sihatlik ilmini meros qoldirganlar.

Oxirgi 10 yilidagi jismoniy tarbiya fanining davlat o'quv dasturlarining o'quv mavzulari-jismoniy mashqlarni faqat texnikasini o'zlashtirishnigina nazarda tutib, o'quvchilarga faqat "Alpomish" va "Barchinoy" salomatlik testini topshirishga tayyorlashninizarda tutib tuzilganligini aniqladik. Qayd qilinganlardan kelib chiqib tajribasnov sinflarimizda STT jismoniy madaniyatining eksperimental dasturini o'quvchini nazariy bilimlari, egallagan amaliy malakalardan ustunroq qo'yilishi bilan farqlanuvchi, o'zini asrash va avaylash madaniyati ni shakllantirishga yo'naltirishgaustuvorlik berish bilan tuzdik.

Jismoniy mashqlar bilan ommaviy shug'ullanish, ommaviy sog'lomlashtirish mashqlari mashg'ulotlari hozirgi kundagi davlatimiz siyosatidamamlakat jismoniy madaniyatini, jismoniy tarbiyasi va ommavi sportini ommalashtirishda o'quvchilarning ommaviy sog'lomlashtirish jismoniy madaniyatni tadbirlari, jamiyatimizning bo'lajak a'zolarini jismoniy statusi, sovmatik salomatligini biologik yoshi bilan muvofiqligi, ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini baholash uchun zarur.

Maqsadimiz mamlakatimiz o'quvchilarini jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga odatini shakllantirishda qo'llanadigan vositalar metodlar, tadbirlari o'tkazish tajribalarini xorijiy tengqurlari bilan tahlilini qiyoslash, o'rganish bo'lib, natija sog'lomlashtirishning amaliy tadbirlari, mashg'ulotlari xorijliklarda nisbatan hilma-hil, ularga qatnashish erkinroq, lekin, ayrim mashg'ulotlar, masalan ommaviy musobaqlar (shanba, yakshanba



kunlaridagi ommaviy tadbirdi va mashg'ulotlari) majburiyligi bilan farqlanishini aniqladik⁹.

Masalan, Olmoniya,Farangiston,Italiya,Norvegiya va boshqa Evropa mamlakatlari hamda yaqin Hamdo'stlik mamlakatlarining tajribalari e'tiborga loyiqligining guvohi bo'ldik. Ular kislorodga boy,hushmanzara, jamiyati a'zolarining barcha yoshdagilari uchun muvofiq bo'lgan, ko'ngilga ravshanlik, ruhiyatga ijobiy ta'sir qiluvchi tabiat quchog'i-soylar, ko'llar, dengizlarning qirg'oqlarida, davlat va xususiy sport sog'lomlashtirish maskanlari,salomatlik yo'lkalari va mashg'ulot vositalarini boyligi bilan nisbatan ajralib turishini aniqladik.

Masalan,yaqin Hamdo'stlik mamlakatlari Ukraina, Boliqtiq bo'yи mamlakatlarining tajribalari, ayniqsa, BeloRossiyada o'tgan asrning 60-yillaridan buyon amaliyotda foydalanilayotgan harbir shahar, tuman, harbir korxona,ishlab chiqarish muassasasi (ilk bor Gomelъ shahri halq ta'limi bo'limi)ning "salomatlik yo'lkalari"ni qurish tashabbusi keyinchalik salomatlik yo'lkalaring Butunitifoq konkursiga aylanishiga olib keldi. Jumladanmamlakatimiz o'quvchi talaba yoshlarining salomatlik yo'lkalarini qurish tashabbusi ommalashdi¹⁰.

Hozirgacha bu tashabbus o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Havosi toza, daraxtlarga boy BeloRossiya o'rmonlarining salomatlik yo'lkalari, daryolar va ko'llar bo'yida mustaqil jismoniy madaniyat mashg'ulotlarini o'tkazish maskanlari, o'zini avaylash va asrash madaniyati maskanlariga aylantirilgan.

Tadqiqot davomida dissertant volantyor sifatida Farg'onada davlat universitetining jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti kafedrasini tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ITD-4-157 raqamli davlat granti ilmiy guruhi tadqiqotchilar bilan maktab yoshidagilar harakat aktivligi (faolli- gi)ning me'yoriy normalarini aniqlash ilmiy guruhida sotsiologik tadqiqotlarida ishtirok etib, Viloyat umumiyo'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini sutkaning 24 soatidan 9-10 soatini uyquga, 4-7 soatini maktab partasida o'tirish (o'qish uchun), 2-3 soatini uyda dars tayyorlash, 2-2,5 soatini uydagi ishlarga sarflashini qolgan taxminan 4-5 soat vaqtini televizor, kompyuter, bekorchilikga sarflab, vaqtini o'z xohishlariga ko'ra o'tkazishlarini aniqlaganlar¹¹.

Bunday "bebaho boylikni" – ya'ni, vaqtini o'zi xohlagan ish bilan shug'ullanishga sarflash va undan unumli foydalanish "harakat faolligi", "harakatlari me'yori", o'zining organizmi uchun "optimal harakatlanishning hajmi, miqdori"ni tanlay olish degan STT jismoniy madaniyati bilimlari va uning darajasi bilan bog'liq va ularni foydasini tushunishga borib taqaladi.

Afsuski, asrimizning dominant xususiyatlaridan eng ko'zga ko'rindigani o'quvchi-yoshlarning kundalik tur mush tarzida harakatlanishni me'yoriga e'tiborsizligi yoki ayrim holatlarda harakat faolligini chegaralanib qolishi, o'ynagani, shug'ullanish uchun sharoitni yaxshi emasligidadir.

O'quvchilar 100 yil avval mehnat jarayonida sarflanadigan energiyani (akademik I.A.Berg) 96% mushaklar quvvati, kuchi hisobiga bajarilganligini

Нюнь | 2025, 1-кисем

⁹"ModeHEd – университетлардат саломатликка оид фанларни модеринизациялаш" ҳалқаро илмий-амалий конференция материаллари. Фарғона -2018. 20-21 09 72.c.

¹⁰ Абдуллаев А."Педагогические аспекты совершенствование внеклассной работы по физическому воспитанию в сельских школах".13 00 01- теория и история педагогики. Диссертация на соиск. уч. степ.. кан. пед. наук. Ташкент - 1986, гл.2., 84 стр.

¹¹ Ханкельдиев Ш., Абдуллаев А. ва бошқалар умумий таълим мактаби ўқувчиларининг СТТ жисмоний маданияти : Услубий қўлланма , Фарғона нашрёди . 2011 й.-332 б.



bilmaydi. Hozirgi kunga kelib esa 99% insonning mehnat faoliyati mexanizmlar quvvati hisobiga bajarilmoqda. Gipodinamiya, gipokineziya, hajmi chegaralangan jismoniy yuklamalar, organizmning funktsional holatini intensiv holda o'chishiga sabab bo'lmoqda, agar, unga ruhiy passivlik ham qo'shilsa bormi, bu jarayon yanada tezlashayotganligini ilmiy-tadqiqotlar isbotlab bo'ldi.

Dastur talabiga ko'ra xarakatga o'rgatish; yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, sportning u yoki bu turi texnikasini o'zlashtirish tarzida o'qitishni, yo'lga qo'yish talabini qo'ymoqda. 2010 yilgacha umumta lim maktablari uchun tavsiya qilingan jismoniy tarbiya fani dasturida yuqori sinfo'quvchilari uchun sport o'yinlarini to'rt turitavsiya qilingan. Ulardan 8-sinfdan boshlab faqat ikki turini o'qitish majburiy qilib belgilangan. Bu keyinchalik o'quvchi Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirganda yoki boshqa kasb sohibiga aylanganda dastur tavsiya qilgan ikki sport turidan birini tanlash va shug'ullanish imkoniyatini yuzaga keltirar edi. kunlik harakat faolligida foydalanadigan, umri davomida shug'ullanishi mumkin bo'lgan sport turi bo'lib qolishi mumkin bo'lar edi (Sobiq Ittifoq davrida yaxshi samara bergan).

Lekin 2014/2015 o'quv yilidan boshlab katta maktab yoshidagi o'quvchilarga fan dasturidagi sport o'yinlaridan (to'rt sport o'yinidan) faqat ikkitasini o'qitish ko'rsatmasi dastur mualliflari tomonidan nimagadir to'xtatildi. Maktabda yuqori sinfda uch yil sog'lomlashtirish sportning aniq turi bilan shug'ullanish keyinchalik o'quvchi umrining maktabdan so'ngi davrida o'quvchiligida shug'ullangan sport turi bilan mustaqil hayoti davomida shug'ullanish uchun odatni shakllantirigan bo'lar edi.

Foydalilanligangan adabiyotlar:

1. "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror. 2017 yil 3 iyun
2. "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020.30.10, PF-6099-sonli Farmoni
3. "Jismoniy madaniyat va sport sohasi kadrlarini taylorlash jarayonini takomillashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Farg'ona 2015, 208 s.
4. "Bolalar sporti". 22 (52)-son., 06.06.2017 yil 2-3 sahifalar. e.mail: bolalarsportiuz@umail/uz.)
5. S.Ya.Vaynbaum Jismonitsy tarbiya gigienasi., o'quv. qo'l.Toshkentn "O'QITUVCHI". 1988 y.216 b.

**Tojimatov Qobiljon Maxamadtoir o'g'li**Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy
akademik litseyi fizika fani o'qituvchisi

Telefon: +998916700932

qtojimatov@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika fani o'qitish jarayonlarida o'qitishning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullarini o'qituvchiga beradigan afzalliklari yoritilgan.

Annotation. In this article, the advantages of using modern technologies in the process of teaching physics to the teacher are highlighted.

Аннотация. В данной статье выделены преимущества использования современных технологий в процессе обучения учителю физики.

Kalit so'zlar: Texnologiya, fizika, o'qitish, innovatsiya, simulyatsiya

Fizika ta'limalida qo'llaniladigan texnologiya bizni orzu qilingan maqsadlarga yaqinlashtira oladimi? Shubhasiz, texnologiya fizika ta'lmini yanada dolzarb, real hayot bilan ko'proq bog'lash va haqiqiyroq qilishga yordam berishi mumkinligi aniq ko'rsatildi. Yigirma birinchi asrning tubdan yangi axborot muhiti o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish, yagona ta'lim axborotini ishlab chiqish kabi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kompyuterlashtirish zamonaviy ta'limga modernizatsiya qilishning asosiy bosqichlaridan biridir. Bu juda asosli, chunki yangi axborot texnologiyalari an'anaviy usullarga nisbatan bir qancha muhim afzalliklarni taqdim etadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo'yicha o'quvchilar o'quv jarayonida yaratilgan eng yangi o'quv materiallarini o'qish imkoniyatiga ega. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, albatta, ko'plab afzalliklarga ega.

Zamonaviy texnologiyalar fizikani o'rganishni takomillashtirish va qulaylashtirish imkonini beradi. Taqdimotlar, animatsiyalar va video materiallardan foydalanish yordamida o'qituvchi yangi mavzuni aniqroq tushuntira oladi. Taqdimot slaydlari vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Sinfda axborot texnologiyalaridan foydalanish tufayli o'qituvchi ilmiy filmlar, jadvallar, grafiklar va diagrammalar, jismoniy jarayonlar va hodisalarning animatsiyalari, texnik qurilmalar va eksperimental qurilmalarning ishi, fotosuratlar va boshqalarni o'quvchiga ko'rsata oladi va u tomonidan fizikani o'rganishga qiziqish rivojlanadi. Darsni g'ayrioddiy tarzda boshlash imkonini beruvchi taqdimotlar, masalan, eng so'nggi texnika yangiliklari bilan tanishish kabi usullar o'quvchilarni darsga bo'lgan munosabatini keskin yaxshilashga sabab bo'ladi.

Zamonaviy multimedia texnologiyalari juda katta imkoniyatlarga ega. O'quv amaliyotida o'quv axborot resurslarining deyarli barcha turlari va shakllaridan sezilarli darajada foydalanish vizual va audio axborot sifatini yaxshilaydi, u yorqinroq, rang-barang, dinamikroq bo'ladi. Bundan tashqari, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va kadrlar tayyorlashda zamonaviy telekommunikatsiyalarning afzalliklari vizual va audio yaratish usulini tubdan o'zgartiradi. An'anaviy vizual o'rganish vositalari ma'lum bir ob'ektini anglatadi. Endi dinamik talqin nafaqat real ob'ektlarning, balki ilmiy qonunlar, nazariyalar, tushunchalar va boshqalarning muhim xususiyatlariga aylanadi.



Tajribalar va namoyishlarsiz fizikani tushunish imkonsiz. Fizika eksperimental fandir. Ammo barcha tajribalarni o‘quv laboratoriyalarda o‘tkazish mumkin emas. Masalan, bu xavfli moddalar bilan tajriba o‘tkazish yoki zarur asboblar bo‘lmagan taqdirda. Bunday holda, yangi ma’lumotlar texnologiyalar yordamga keladi. Ular mavzuni o‘rganishni bunday tajribalar bilan to‘ldiradi. Kompyuter modeli yordami bilan biz nafaqat har qanday jarayonni ko‘rib chiqsa olamiz, balki jismoniy shartlar va parametrlarni ham o‘zgartirishimiz mumkin. Kompyuterni modelini qo‘llab-quvvatlash ba’zi jismoniy qurilmalar, hodisalar va hodisalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Jismoniy ma’noni tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘plab o‘zgaruvchilar va hodisalar mavjud. Oddiy sharoitlarda bunday hodisalarning paydo bo‘lish mexanizmini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Masalan, ular elektronlar harakati, izotermik jarayonlar va boshqa jarayonlarni tushuntirish bu vazifani hal qilish bilan yechimga olib borishi mumkin. Jismoniy hodisalar va tajribaning jonlantirilgan namoyishlari yordamida. Kompyuter modellaridan foydalanishning bir qator afzalliklarini aniqlashimiz mumkin. Dars mavzusiga oid videoning mavjudligi tufayli siz tez cho‘zilgan vaqtini boshqarishingi mumkin. Masalan, molekulalarning diffuziyasini o‘rganish, isinish yoki kristallanish jismlari va boshqa ko‘plab hodisalarda bu qo‘l keladi.

Fizika fani o‘qitish jarayonlarida o‘qitishning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari o‘qituvchiga quyidagi afzalliklarni beradi

- o‘quvchilarning darsga va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;
- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kengaytirish;
- o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi darajasini oshiradi;
- o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalariga qiziqishini oshiradi va shu asosida fan ularda fanni o‘rganish hohishini kuchaytiradi;
- o‘quvchilarning bilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- o‘quvchilarning tasavvuri va tafakkur darajasini oshiradi;
- dars sifatini yaxshilaydi.

Zamonaviy o‘quvchi faqat hikoya va ma’ruzalardan ilhomlanmaydi. Ushbu ma’lumotni eslab qolishda texnologiyalar materialni almashtirishdan ko‘ra uni to‘ldirishi kerak. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish har qanday faoliyatni yanada ko‘rinadigan qilish, turli xil ma’lumotlar bilan ishlash kabi qulayliklarni berishi mumkin. Biroq, ba’zi o‘qituvchilar bu imkoniyatlardan ortiqcha foydalanishadi, buni fakt bilan oqlaydilar. Ba’zan shunday tuyuladiki, axborot texnologiyalari o‘quv jarayoniga faqat ijobjiy narsalarni olib keladi. Albatta, ko‘p hollarda bu to‘g‘ri, lekin har bir tanganing ikki tomoni bor. Har bir o‘qituvchi bilishi va har ikki tomonni hisobga olishi kerak. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy jihozlar, dasturiy ta’minot, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘qituvchiga yordam beradi, darslarni osonroq va qiziqarli qiladi. Ulardan foydalanishni o‘ylangan o‘qituvchi fikri oqilona bo‘lishi kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, axborot texnologiyalari har doim ham muammoning yechimi bo‘la olmaydi, balki dono ustoz qo‘lida yaxshi o‘rganish vositasi bo‘lib hizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Albion, P., Jamieson-Proctor, R., & Finger, G. (2010). Auditing the TPACK competence and confidence of Australian teachers: The teaching with ICT audit survey (TWICTAS). Paper presented at the 21st International Conference of the



- Society for Information Technology & Teacher Education (SITE 2010), San Diego, California, United States.
2. Borich, G. D. (2007). Effective teaching methods: Research-based practice: Prentice Hall.
 3. Bryan, J. (2006). Technology for physics instruction. *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 6(2), 230-245.
 4. Buabeng, I. (2018). Physics classroom interactions: Teaching strategies and practices. *Journal of Research in Science, Mathematics and Technology Education*, 1(3), 311-328.
 5. Buabeng, I., & Ntow, D. F. (2010). A Comparison study of students' reasons/views for choosing/not choosing physics between undergraduate female non-physics and female physics students at University of Cape Coast. *International Journal of Research in Education*, 2(2), 44-53.

**FIZIKA FANI O'QITISH TEKNOLOGIYASINI INNOVATSION USULLAR
ORQALI RIVOJLANTIRISH****Tojimatov Qobiljon Maxamadtoir o'g'li**Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy
akademik litseyi fizika fani o'qituvchisi

Telefon: +998916700932

qtojimatov@inbox.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizika ta'limga o'qitish texnologiyasi va boshqa o'quv innovatsiyalarini joriy etish hamda ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning muhim sabablari ko'rsatilgan.*

***Annotation.** This article presents important reasons for introducing teaching technology and other educational innovations in physics education and integrating them into the learning process.*

***Аннотация.** В этой статье представлены важные причины для внедрения технологий обучения и других образовательных инноваций в физическом образовании и их интеграции в учебный процесс.*

Kalit so'zlar: Texnologiya, fizika, o'qitish, innovatsiya, simulyatsiya

Yangi texnologiyadan foydalanish yigirma birinchi asrda bizning hayot tarzimizga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Texnologiya aloqa, moliya, savdo, ta'lim va hatto sport o'yinlarida ham keng qo'llanilmoqda. Ta'linda texnologiya o'qitish va o'qitish usullarini o'zgartirish imkoniyatiga ega. Tez o'zgarishlar o'qituvchilardan o'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, mustahkam ta'lim tizimini yaratishga olib keladigan o'qitish va o'qitishda innovatsiyalarni kiritish uchun texnologiyadan foydalanishga tegishli javobni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchilarning darsda texnologiyadan qanday foydalanishiga qiziqish ortib bormoqda.

Har doim o'zgarib borayotgan yigirma birinchi asrda ta'lim oldidagi muammolar o'qitish va o'rganishga samaradorlik va qiymat qo'shadigan texnologik vositalarni qanday topish va ulardan foydalanishdir. Texnologiya kuchli vosita sifatida darsda chuqur va doimiy ta'sirga ega bo'lib, o'qituvchilarning o'qitish amaliyotini va o'quvchilarning o'quv jarayonlarini osonlashtirish orqali darslarni o'qitish usullarini o'zgartirishi mumkin. Samarali ta'lim va o'qitish uchun o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlarga kirish, tartibga solish va baholash va amaliy g'oyalarni real dunyo sharoitida yangilash uchun yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlarini talab qiladi. So'ngi yillarda zamonaviy kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq holda dars mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion shakllari tobora ko'payib bormoqda.

Fan ta'linda texnologiyadan foydalanish targ'ib qilinadi, chunki texnologiya faol o'rganish imkoniyatlarini beradi, o'quvchilarga yuqori kognitiv darajalarda ishlashga imkon beradi, konstruktiv ta'limga qo'llab-quvvatlaydi. Texnologiya fanni o'qitishning tadqiqot va amaliy jihatlarini yaxshilaydi; maktab ishlarini ishlab chiqarishni tezlashtiradi va oshiradi; motivatsiya va faollikni oshiradi; tadqiqot va tajribalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Ma'lumotlariga ko'ra, texnologiyani fanni o'quv jarayoniga integratsiya qilish uchun quyidagi standartlar ishlab chiqilgan.



- Texnologiya tegishli pedagogika bilan munosib ravishda fanga tadbiq etilishi kerak.
- Texnologiya o‘quv fanining mazmuni kontekstida joriy etilishi kerak.
- Fanni o‘qitish texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanishi kerak.
- Texnologiya ilmiy qarashlarni yanada qulayroq qilishi kerak.

Ma’lumotlarda ta’kidlanishicha, texnologiya bilan har qanday yaxshi o‘qitishning markazida uchta asosiy komponent mavjud: tarkib, pedagogika va texnologiya, shuningdek, ular o‘rtasidagi va o‘rtasidagi munosabatlari. Texnologik, pedagogik va mazmunli integratsiyaga hozir e’tibor qaratilayotgan bo‘lsada, o‘qituvchilar ushbu komponentlarni o‘z ta’limlarida, ayniqsa dunyomizning bu qismida integratsiyalashganligini ko‘rsatadigan dalillar kam. Ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar texnik vositalarni sotib olishga e’tibor qaratmoqdalar, bu uskunalar maktablarda qanday qo‘llanilishiga emas, balki maktablarda o‘rnatishga ko‘proq e’tibor berishadi. Ular ta’lim muassasalariga faqat texnologiyani olib kirish uning muvaffaqiyatini ta’minalash uchun yetarli emasligini ta’kidlaydilar. Muhimi, o‘qituvchilar o‘z darslarida texnologiyadan qay darajada foydalanadilar Texnologiyani pedagogika va mazmunga integratsiya qilish uchun o‘qituvchilar o‘zlari o‘rgatadigan fan mazmuni va texnologiyani qo‘llash orqali ushbu mavzuni qanday o‘zgartirish mumkinligi haqida bilimga ega bo‘lishlari kerak va aksincha, aniq fanlarni o‘qitish muayyan texnologiyadan foydalanish natijasini qanday o‘zgartirishi mumkinligini bilishlari kerak.

O‘qituvchilar sinfda texnologiyani samarali integratsiya qilish uchun o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin bo‘lgan yondashuvlardan biri bu texnologiya, mazmun va pedagogikani uyg‘unlashtirish uchun kasbiy rivojlanishning turli bosqichlarida ishlashdir Ko‘pgina tadqiqotchilar fizikani o‘qitishda texnologiya muhim ahamiyatga ega ekanligini qabul qiladilar.

O‘quvchilarning fizikaga qiziqishi yo‘qligi va yomon ishslashning asosiy omillari o‘qituvchilarga bog‘liq. Bir qator xalqaro olimlar ta’kidlashicha, fizika fani o‘qituvchilari standart muammolarni hal qilish va eslab qolish orqali o‘rganishga asoslangan an’anaviy o‘qitish yondashuvlariga amal qiladilar. Bu omillardan asosiysi o‘qituvchi omili edi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘rta maktab darajasida fanga qiziqish pasaygan, chunki mavzu ularga yomon taqdim etilgan. Tadqiqotda ishtiroy etgan fizika fani o‘qituvchilari ham o‘quvchilarning qiziqish darajasi pastligining sabablaridan biri yomon o‘qish ekanligini tan olishdi. Fizika o‘qituvchilari qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanadilar va ular texnologiyani o‘qitishga kiritadimi yoki yo‘qmi, bu qanday texnologiya ekanligi aniq emas. Aynan shu asosiy muammo va bu moammo quyidagi savollarni keltirib chiqaradi.

O‘quvchilar va o‘qituvchilarning fizika darsida texnologiyadan foydalanish haqidagi tasavvurlari qanday?

- Fizika o‘qitishda qanday texnologiya mavjud?
- Fizika o‘qituvchilari qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanadilar?

Fizika ta’limiga texnologiya va boshqa o‘quv innovatsiyalarini joriy etishning eng muhim ikkita sababi

1) o‘quvchilarning fizikadan bilim olish qobiliyatini oshirish

2) o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilashdir

Fizikani o‘qitish uchun eng keng tarqalgan texnologiyalar kitoblar, bo‘r, oq doska, jadvallar, laboratoriya jihozlari va ma’lum darajada kompyuter texnikasi va dasturiy



ta'minot ekanligiga o'quvchilar va o'qituvchilar ham rozi. Laboratoriya uskunalarini kabi fanni o'qitish uchun mavjud bo'lgan ushbu umumiyligi texnologiyalar analog va an'anaviy xususiyatga ega bo'lib, ular fanni o'qitish uchun emas, balki fan bilan shug'ullanish uchun mos keladi. Biroq, o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan e'lon qilinganidek, kompyuterlar bilan ishlaydigan simulyatsiyalar va videolar fizikani o'qitishda eng kam qo'llaniladigan texnologiyalardan biri edi. Shuning uchun ba'zi o'qituvchilar sinflarda fizikani o'rgatish uchun video va simulyatsiya emas, balki taqdimot dasturidan foydalanishlari mumkin. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar fizikani o'qitish uchun simulyatsiyalar, modellar, animatsiyalar va videolar kabi raqamli texnologiyalar talab qiladi.

Shunday ekan aytish mumkinki, fizikani o'qitishning ustun usullari bu savollar va javoblar va namoyish usullari. Ushbu usullar maktablarda keng tarqalgan texnologiyalar bo'lgan kitoblar va laboratoriya uskunalarini kabi an'anaviy texnologiyalarga mos kelishi mumkin. Maktablar jihozlangan laboratoriyalarga ega bo'lishi mumkin, ammo har bir o'quvchining ishi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin, shuning uchun o'qituvchilar ushbu ilmiy asboblar bilan birgalikda savol-javob va namoyish usullaridan foydalanishlari kerak. Fizika darsidagi tushunchalar va qonunlarni namoyish etish kabi o'qitishga yo'naltirilgan ushbu yondashuvlar fizikani ko'plab o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi. Ammo hozirda fizika darslarida o'qituvchilarga yo'naltirilgan yondashuvlar va bo'r va nutq ko'rsatmalari ustunlik qiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar, agar muammolarni hal qilish uchun modellashtirish, animatsiyalar va simulyatsiyalarni o'z ichiga olgan o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanilsa, fizikani o'rganish yanada qiziqarli bo'lishini ta'kidladilar.

Ko'rganingizdek, o'qituvchilar fizikani o'qitishda foydalanadigan umumiyligi texnologiyalar o'quvchilarning mavzuga qiziqishini uyg'otmaydigan jadvallar kabi an'anaviy turlardir. Fizika o'qituvchilari kamdan-kam hollarda fizikani o'qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalar shaklini kiritadilar. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarga berilgan tushunchalar yoki ko'nikmalarni yaxshi tushunishlari uchun darslarni o'tkazishda o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Fizika o'qituvchilari ushbu tadqiqotda ko'rsatilganidek, darslarni o'tkazishda ma'ruza usulidan foydalanishdan qochishlari kerak. Bundan tashqari, fizika o'qituvchilariga o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan video va simulyatsiyalar kabi zamonaviy va raqamli texnologiyalarni birlashtirish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar.

- 1 Borich, G. D. (2007). Effective teaching methods: Research-based practice: Prentice Hall.
- 2 Bryan, J. (2006). Technology for physics instruction. Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 6(2), 230-245.
- 3 Buabeng, I. (2018). Physics classroom interactions: Teaching strategies and practices. Journal of Research in Science, Mathematics and Technology Education, 1(3), 311-328.
- 4 Buabeng, I., & Ntow, D. F. (2010). A Comparison study of students' reasons/views for choosing/not choosing physics between undergraduate



- female non-physics and female physics students at University of Cape Coast. International Journal of Research in Education, 2(2), 44-53.
- 5 Jamieson-Proctor, R., & Finger, G. (2010). Auditing the TPACK competence and confidence of Australian teachers: The teaching with ICT audit survey (TWICTAS). Paper presented at the 21st International Conference of the Society for Information Technology & Teacher Education (SITE 2010), San Diego, California, United States.



НЕТРАДИЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ
(Международные программы оценки)

Д.Ю.Махмудова

Преподаватель кафедры педагогики, КГУ

Tel: +998(91)140-11-55

Аннотация: Внедрение современных педагогических технологий в образование, использование нетрадиционных методов в образовании является важным фактором повышения качества и эффективности знаний.

Ключевые слова: творческое мышление, вербальное общение, ораторское искусство, конкурс, мастерство, пересказ.

В наше время от учителей требуется досконально овладеть предметами преподавания на всех ступенях системы образования. Для этого на каждой ступени обучения необходимо досконально владеть родным языком, обучать правильной, выразительной речи, творческому мышлению, которое является основным предметом. Такие знания дают глубокие знания по всем предметам, выразительную упорядоченную речь и творческое мышление. Для решения этой задачи совершенствование методики обучения, выбор наиболее подходящего метода, внедрение современных педагогических технологий в образование, особенно использование нетрадиционных методов в образовании повышает качество и эффективность знаний.

Известно, что нетрадиционные методы формируются в процессе творчества педагогов, досконального знания своего предмета и преподавания его наиболее удобными и современными методами. То есть преподаватель использует нетрадиционный метод для того, чтобы творчески исследовать привычные традиционные методы, впитывать новые методы в соответствии со своими требованиями, и следить за тем, чтобы ученики учились самостоятельно.

Использование нетрадиционных методов в процессе преподавания дисциплин в педагогической системе позволяет повысить качество и эффективность образования. В процессе выполнения упражнений на уроках родного языка можно выполнять различные действия, такие как чтение, письмо, мышление, говорение, пересказ и тому подобное. Также в рамках темы можно использовать соревнования, соревнования, игры рабочей силы и так далее. При этом больше времени тратится на обучение, доказательство, объяснение. Вовлеченность учеников повысится, и благодаря этому можно будет достичь более высоких результатов в образовании. Потому что физические упражнения – это процесс обучения, который укрепляет мастерство. В этих упражнениях руководство и контроль деятельности учителя является отдельным процессом. Но самым важным аспектом контроля над знаниями и деятельностью является самоконтроль.

Вербальная коммуникация включает в себя словесные действия, такие как говорение, говорение, говорение, ответы на вопросы. Устная речь в коммуникации – это слово, которое объясняет новую информацию на основе концепций, известных как учителю, так и учащемуся. В этом процессе внимание учащихся



осуществляется через деятельность по логическому мышлению, запоминанию услышанного, вспоминанию, таким как слух, аудирование, понимание, понимание, анализ, сравнение, обобщение. При этом у ученика повышается интерес, способности и талант. Желание знать усиливается. Для этого учителя родного языка и литературы должны вовлекать учеников, уделяя при этом внимание системности, пониманию и любознательности слова, ведь на более высоком уровне каждый интересный урок снижает слух ученика

Поэтому необходимо проводить сессию вопросов и ответов со студентами и обмениваться с ними идеями во время урока. Например, учитель организует тему урока по нескольким планам, после каждого плана проводится соответствующая сессия вопросов и ответов, использование демонстраций, решение некоторых задач, выбор задач и т.д., предоставляет учащимся возможность продумать поиск внутри темы. В ходе занятия особое внимание уделяется организации проблемных ситуаций. Когда создается проблемная ситуация, ученик может отвечать на вопросы, анализировать факты, обмениваться мнениями, иметь положительную реакцию на урок, тему. У учащихся повысится энтузиазм к участию в уроке, добродушие, поиск решений той или иной проблемы

Одним из факторов, определяющих овладение наукой в ходе урока, являются современные технологии. Создание и внедрение умных устройств используется и в школах, например, создан умный звонок и различные датчики для измерителей температуры в помещении. Кроме того, мы можем создать современные учебные помещения в зависимости от устройства обнаружения вибрации земли, фотоэлектрического преобразователя, термоэлектрического преобразователя. И использование облачных технологий для хранения данных стало очень полезным.

Это выгодно, чтобы ученик не отвлекался на другие ситуации и повышалось качество обучения. Для этого мы предлагаем следующее:

- внедрение технологий моделирования в учебный процесс, так как у студентов не хватает фантазии;
- создание рабочего процесса и отображение результата в виртуальных кейсах, где нет возможности использовать технические устройства на уроках;
- проведение анализа на основе моделируемых объектов;
- выводить их в процессе работы с химическими веществами;
- использование живой природы и моделей на уроках биологии;
- А на уроках географии можно неплохо использовать карты и созданные модели городов

Аквариумный метод: здесь 5-6 участников вместе с ведущим сидят в форме круга. Они «рыбы». Остальные члены группы сидят (или стоят) вокруг них. Они «рыбаки». Члены ближайшего круга («рыбы») активно обсуждают предложенный учителем вопрос. «Рыбаки», с другой стороны, наблюдают и вступают в процесс, когда их интересует мнение любого читателя, обсуждающего вопрос: они добавляют, они задают вопросы, они уточняют. Тогда ум «рыбака» должен стоять рядом с интригующей его «рыбой». После того, как обсуждение одной проблемы (вопроса) закончено, участники меняются местами (те, кто был вне круга, теперь садятся в круг). Желательно, чтобы все участники были рассажены по кругу.

Круги использования. Он используется в процессах обучения естественным и точным наукам. Преимущества. Позвольте участникам обменяться идеями в



неформальной обстановке, выразить свою точку зрения на решение той или иной проблемы (вопроса). Позволяет свободно присоединяться к процессу обсуждения и выходить из него. Развивает аналитическое мышление, концентрацию внимания и наблюдательность. Развивает технику речи и обратной связи.

Трудности. В процессе активного участия всех учащихся в обсуждении проблемы могут возникать споры, конфликты. Поэтому преподаватель должен быть хорошо подготовлен и знать методы, которые не дают возникнуть сильным противоречиям

На нетрадиционном уроке потребность во времени определяется тем, что большая часть времени урока тратится на выполнение учащимися самостоятельных заданий, обмен идеями, размышление, высказывание и отстаивание своих выводов, на традиционном уроке большая часть времени урока тратится на объяснение учителем, анализ, разъяснение заданий, контроль усвоения. Нетрадиционные типы уроков повышают эффективность урока и помогают вызвать устойчивый интерес к учебной работе и сохранить лучшие программные материалы

Список литературы:

1. Минаматов, Ю. Е. У. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ МОДУЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В ТЕХНОЛОГИЯХ. Научный прогресс, 2(8), 911-913.
2. Охунов, М., (2021). Применение инновационных проектов в информационных системах. Европейский журнал безопасности и стабильности жизни (2660-9630), 11, 167-168
3. Ibragimovna, Tuhtasinova Munira. "Scientific-theoretical and Practical Basis of Improving the Mechanisms of Using International Assessment Programs for Increasing Educational Efficiency (Based on the Pirls International Assessment Program)." *European Journal of Humanities and Educational Advancements* 3.12 (2022): 127-129.
4. Tuxtasinova, M. I., & Abdullayeva, N. E. (2023). INCREASING AND IMPROVING READING LITERACY.(PIRLS). In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1).
5. То‘xtasinova, M. I., & qizi Po‘latova, M. D. (2022). XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS) NING O ‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19).
6. Тухтасинова, Мунира Ибрагимовна, and Камола Ахмадалиевна Кулдашева. "ПРОГРАММЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ." ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ: 17.



**EMOTSIYALARING SHAXS FAOLIYATIGA TA'SIRI BORASIDA SHARQ
MUTAFAKKIRLARI ASARLARI QIYOSIY TAHLILI**

Dostanova Kamola Alisher qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Telefon: +998973401239

E-mail: kamola.dostanova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlari har tomonlama tahlil qilingan. Tadqiqotda emotsiyalarning inson motivatsiyasi, kognitiv jarayonlari, qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy munosabatlari qanday ta'sir ko'rsatishi o'r ganilgan. Shuningdek, ijobiy va salbiy emotsiyalarning ish samaradorligi, shaxsiy rivojlanish va muomala madaniyatiga bo'lgan ta'siri psixologik nazariyalar va empirik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Emotsional barqarorlik va emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi shaxsning umumiyligi holatini yaxshilashga xizmat qilishi ta'kidlangan. Maqola natijalarini emotsiyaviy ong va emotsional intellektni rivojlantirish orqali shaxs faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlarini ochib beradi. Tadqiqot natijalarini oliy ta'lim, kadrlar boshqaruvi, psixologik maslahat va shaxsiy rivojlanish sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: emotsiyalar, psixologik mexanizmlar, shaxs faoliyati, emotsional intellekt, motivatsiya, kognitiv jarayonlar, emotsional barqarorlik, psixologik holat, qaror qabul qilish, ijtimoiy munosabatlari

Psixologiya fan tarmoqlari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi davrdda psixologiya nazariyalarini va tarixini yanada chuqurroq tadqiq etish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Emotsiyalar shaxs shakllanishida ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil ekanligini inobatga olgan holda sharq va g'arb allomalari qarashlaridagi o'xshashlik hamda farqlarning qiyosiy tahlili fan rivojlanishi uchun ulkan ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari emotsiyalarning shaxs hayotiga ta'sir qilishi aql, iroda, nafosat, jismoniy sog'liq va ichki huzur kabi omillar orqali boshqarilishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Bugungi zamонави psixologiya ham bu qarashlarni tasdiqlaydi va ko'plab tadqiqotlar bu mexanizmlarning samaradorligini isbotlamoqda. Sharq mutafakkirlarining emotsiyalar haqidagi qarashlari hozirgi zamон psixologiyasidagi kognitiv, neyrobiologik va ijtimoiy emotsiya nazariyalarini bilan uyg'un keladi. Quyida ularning fikrlari zamонави ilmiy yondashuvlar bilan solishtirilgan.

1. Emotsiyalar va aqlning o'zaro bog'liqligi sharq mutafakkirlarining asarlarida quyidagicha aks etgan:

Al-Farobi inson aqliy va hissiy jihatdan uyg'unlikka erishishi kerakligini ta'kidlagan. Uning fikricha, inson nazariy aql (fikrlash) va amaliy aql (axloq) orqali his-tuyg'ularini boshqarishi mumkin.

Ibn Sino esa emotsiyalarni aql bilan tartibga solish orqali inson salomatligi va ichki tinchligini ta'minlash mumkinligini aytgan.

Hozirgi zamон emotsiya nazariyasi bilan bog'laydigan bo'lsak, bu fikrlar Lazarusning Kognitiv Baholash Nazariyasi bilan mos keladi. Lazarusga ko'ra, emotsiyalar insonning vaziyatni ongli ravishda baholashi natijasida paydo bo'ladi. Inson o'z his-tuyg'ularini fikrlash va muhitni anglash orqali boshqarishi mumkin.



◆ O‘xshashlik: Al-Farobiy va Ibn Sinoning fikrlari emotsiyalarni ongli baholash orqali boshqarish mumkinligi haqidagi zamonaviy nazariya bilan bir xil.

2. Emotsiyalar va Jismoniy Sog‘liq o‘rtasidagi Aloqa

Sharq mutafakkirlarining qarashlari: Ibn Sino emotsiyalar (xususan, stress, qo‘rquv va g‘am) insonning sog‘lig‘iga ta’sir qilishini yozgan va ularni davolash uchun musiqa terapiyasi, tabiat bilan muloqot va turmush tarzini takomillashtirishni tavsiya qilgan.Beruniy esa musiqa va tabiat inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan.Emotsiya nazariyalari bilan bog‘laydigan bo‘lsak, bu fikrlar James-Lange Nazariysi va Psixosomatik Tibbiyot bilan bog‘liq.James-Lange Nazariyasiga ko‘ra, emotsiyalar birinchi navbatda jismoniy reaktsiyalar orqali namoyon bo‘ladi (masalan, yurak urishi tezlashsa, qo‘rquv paydo bo‘ladi). Psixosomatik tadqiqotlar esa stress va salbiy emotsiyalar jismoniy kasallikkarga olib kelishi mumkinligini tasdiqlaydi.

◆ O‘xshashlik: Ibn Sino va Beruniyning emotsiyalar va sog‘liq o‘rtasidagi bog‘liqligi haqidagi qarashlari zamonaviy psixosomatik tadqiqotlarga juda mos keladi.

3. Emotsiyalar va Ijtimoiy Muhitning Ahamiyati

Sharq mutafakkirlarining qarashlari

Yusuf Xos Hojib shaxsning his-tuyg‘ulari jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar orqali shakllanishini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, odob-axloq, hurmat va muloqot emotsiyalarning ijobiy yoki salbiy bo‘lishiga ta’sir qiladi.Alisher Navoiy ham muhabbat, do‘stlik va rahm-shafqat kabi hissiyotlar inson hayotining muhim qismi ekanligini yozgan.

Hozirgi zamon emotsiya nazariyasi bilan bog‘lanishi

Bu qarashlar Schachter-Singerning Ijtimoiy Kontekst Nazariyasi bilan mos tushadi.Bu nazariyaga ko‘ra, inson emotsiyalarini atrof-muhit va ijtimoiy signal (boshqa odamlarning reaktsiyalari) orqali tushunadi.Shuningdek, Golemanning Emotsional Intellekt Nazariyasi ham emotsiyalarni boshqarishda ijtimoiy ong muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

◆ O‘xshashlik: Yusuf Xos Hojib va Navoiy fikrlari zamonaviy emotsiyal intellekt nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, his-tuyg‘ularimiz ijtimoiy muhit va odamlar bilan aloqalarimiz orqali shakllanishini ko‘rsatadi.

4. Emotsiyalar va ichki huzurga erishish.Sharq mutafakkirlarining qarashlari

Jaloliddin Rumi inson o‘z ichki olamini anglab, meditatsiya va tafakkur orqali tinchlikka erishishi mumkinligini ta’kidlagan.

Al-G‘azzoliy esa qalb pokligi va ruhiy tarbiya inson hissiyotlarini boshqarishda muhim rol o‘ynashini yozgan.

Hozirgi zamon emotsiya nazariyasi bilan bog‘lanishi.Bu qarashlar Mindfulness (Ongli Hushyorlik) va Stressni Boshqarish Nazariyalari bilan mos keladi.Jon Kabat-Zinnning Mindfulness (Ongli hushyorlik) nazariyasi meditatsiya va diqqatni jamlash orqali stress va salbiy emotsiyalarni kamaytirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Self-Regulation Theory esa odam o‘z hissiyotlarini ichki anglash va o‘zini nazorat qilish orqali boshqarishi mumkinligini tushuntiradi.

◆ O‘xshashlik: Rumi va Al-G‘azoli ta’kidlagan ichki hushyorlik va huzur zamonaviy psixologiyada mindfulness va o‘z-o‘zini boshqarish metodlari sifatida keng qo‘llaniladi. Sharq mutafakkirlarining emotsiyalar haqidagi qarashlari zamonaviy psixologik nazariyalar bilan kuchli bog‘liqlikka ega.

Al-Farobiy va Ibn Sino – Kognitiv Baholash Nazariyasi (Lazarus)



Ibn Sino va Beruniy – Psixosomatik Tibbiyat va James-Lange Nazariyasi
Yusuf Xos Hojib va Navoiy – Ijtimoiy Kontekst Nazariyasi va Emotsional Intellekt
Rumiy va Al-G‘azoli – Mindfulness va Stressni Boshqarish Nazariyalari
Sharq tafakkuri va zamonaviy fan o‘rtasidagi ushbu o‘xshashliklar ularning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Emotsiyalar insonning kundalik hayoti va faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ular shaxsning motivatsiyasi, qaror qabul qilish jarayoni, xatti-harakati va kognitiv jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xulosa qilganda, emotsiyalarning psixologik mexanizmlarini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tushuntirish mumkin:

1. Motivatsion mexanizm. Emotsiyalar shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi va uni rag‘batlantiruvchi yoki cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ijobiy emotsiyalar (quvonch, qiziqish, zavq) motivatsiyani oshirib, insonni faol harakat qilishga undaydi.

Salbiy emotsiyalar (qo‘rquv, xavotir, afsus) esa ba’zan harakatdan to‘xtatishi, ba’zan esa ehtiyojkorlik va mas’uliyat hissini oshirib, muvaffaqiyatga erishishga yordam berishi mumkin.

2. Kognitiv mexanizm. Emotsiyalar insonning fikrlash jarayonlariga, e’tibor va xotira faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Kuchli emotsiyal holatlar qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir qilib, insonni tezkor yoki chuqur o‘ylangan qaror qabul qilishga majbur qiladi. Ijobiy emotsiyalar ijodkorlikni va yangi g‘oyalarni o‘ylab topish qobiliyatini oshiradi, salbiy emotsiyalar esa muammolarni tahlil qilishga va ehtiyojkor bo‘lishga undaydi.

3. Fiziologik mexanizm. Emotsiyalar organizmning fiziologik jarayonlariga ta’sir qiladi. Stress yoki qo‘rquv holatida organizm “kurash yoki qochish” reaktsiyasiga o‘tadi: yurak urishi tezlashadi, mushaklar taranglashadi, qon bosimi oshadi. Ijobiy emotsiyalar esa bo‘shashish, dam olish va stressni kamaytirish imkonini beradi.

4. Xulq-atvor mexanizmi. Emotsiyalar shaxsning jamiyatdagi o‘zini tutish uslubiga ta’sir qiladi. Ba’zi emotsiyalar (sevgi, hamdardlik, hurmat) ijtimoiy aloqalarni mustahkamla, boshqalari (g‘azab, adovat, hasad) esa nizolarga sabab bo‘lishi mumkin.

5. O‘z-o‘zini boshqarish va moslashuv mexanizmi. Shaxs o‘z emotsiyalarini boshqarish orqali faoliyatini samarali tashkil etishi mumkin. Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan insonlar o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladi va stress bilan yaxshiroq kurashadi. Emotsiyalarni anglash va nazorat qilish qobiliyati insonning turli hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanligini oshiradi.

Xulosa. Emotsiyalar shaxs faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular motivatsiya, fikrlash, fiziologiya va xulq-atvorga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ularni to‘g‘ri boshqarish shaxsning muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, emotsiyalar shaxs faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va ularning ta’siri psixologik mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Emotsional holatlar insonning fikrlash jarayoni, qaror qabul qilishi, motivatsiyasi hamda ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy emotsiyalar faoliyat samaradorligini oshirsa, salbiy emotsiyalar esa uni sekinlashtirishi yoki izdan chiqarishi mumkin. Shuning uchun emotsiyalarning tabiatini va ularni boshqarish mexanizmlarini o‘rganish, shaxsiy rivojlanish hamda professional muvaffaqiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda emotsiyalarning individual farqlarga ko‘ra qanday ta’sir ko‘rsatishini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аナンьев, Б. Г. Человек как предмет познания. Санкт-Петербург: Питер.(2001).
2. Изард, К. Э. Психология эмоций. Санкт-Петербург: Питер.(2000).
3. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Наука.(1977).
4. Симонов, П. В. Эмоциональный мозг. Москва: Наука.(1981).
5. Ekman, P. Basic Emotions. In T. Dalgleish & M. Power (Eds.), Handbook of Cognition and Emotion (pp. 45-60). John Wiley & Sons. (1999).
6. Lazarus, R. S. Emotion and Adaptation. Oxford University Press.(1991).



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT
KO'RSATISH JARAYONIDA ART-TERAPIYANING AHAMIYATI

Masharipova Nodira Baxodirovna,
Yangibozor tumani “Inson ijtimoiy
xizmatlar markazi” psixologi
Telefon: +998977910176
nodirabaxadirona1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida art-terapiyaning asosiy maqsadi, turlari, roli va va ularning kelgusidagi kasbga tayyoragarlik hamda oila a'zolariga ko'makchi bo'lib yetishishidagi ahamiyati keng yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Art terapiya, ijtimoiy psixologik xizmat, san'at, imkoniyati cheklangan bolalar, terapevtik maqsad, ijodkorlik, izoterapiya, ertak terapiyasi, badiiy qobiliyat.

Art-terapiya inglizcha art - “san'at”, terapiya - “davolash” degan ma’noni bildirib, asosan, san'at va ijodkorlikdan foydalanish orqali shaxsga psixo-emotsional ta’sir ko’rsatuvchi psixoterapiya hamda psixologik korreksiyaning yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Art-terapiyaning asosiy maqsadi deganda o‘zini himoya qilish va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirish orqali ruhiy holatni uyg‘unlashtirmoq nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan voyaga yetmagan bolalarga ijtimoiy psixologik xizmat ko'rsatish orqali ularni kelgusi hayotga tayyorlash, kasbga o‘rgatish, oila a'zolariga ko'makchi bo'lishga o‘rgatish - biz kabi psixologlarning bugungi kundagi dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada yurtimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 1-iyundagi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ham shular jumlasidandir. Ushbu qarorlarda imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik va pedagogik qo’llab-quvvatlash masalasi aniq belgilab berilgan. Va bu islohotlarni amalga oshirish borasida biz psixologlar uchun imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiy psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida art-terapiyadan foydalanish aynan maqsadga muvofiqdir. San’atdan terapevtik maqsadlarda foydalanishning ahamiyati shundaki, muhabbat, nafrat, g‘azab, xafaqonlik, qo‘rquv, quvonch va boshqa shu kabi tuyg‘ulardan ramziy ravishda ifodalash va o‘rganish uchun foydalanish mumkin. Art-terapiyaning turli xil turlari mavjud:

1. Izoterapiya. Bu - tasviriy san'atga asoslangan chizma terapiyasi. O‘qish va ijtimoiy moslashishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida nevrotik va psixomatik kasalliklarni aniqlash va tuzatish uchun keng foydalaniladi. Bu jarayon rasm chizgan insonning hissiy holatini ifodalaydi.
2. Biblioterapiya. Bu ertak terapiyasi, ya’ni badiiy kompozitsiya va badiiy asarlarni ijodiy o‘qish yoki yaratish.



3. Musiqa terapiyasi.
4. Drama terapiyasi.
5. Raqs terapiyasi.
6. Qo‘g‘irchoq terapiyasi.
7. Qum terapiyasi.
8. Fototerapiya.
9. O‘yin terapiyasi.
10. Haykal terapiyasi va h.k.

Art-terapiya texnikasi insonning ichki “men”i mazmuni, u chizgan rasmlari, haykaltaroshlik qilganda loydan yasagan narsalar tasvirlari, suratga olgan vizual fotolavhalarida, yasagan modellarida aks etdi, degan xulosaga asoslanadi. Bunda psixikaning holati o‘zgarib boradi.

Art-terapiyaning faol turlariga asosan rasm solish, har xil modellar yasash, qo‘sish quylash, raqsga tushish, kollajlar yaratish kabilalar kiradi. Turli ranglardan foydalanib dekorativ rasmlar bilan ishlash imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarning ijodkorligini oshiradi hamda tasavvurini rivojlantiradi. Bu orqali bola atrofidagi yuz berayotgan voqeа-hodisalarni anglashga urinadi. Haykaltaroshlik qilish, loydan har xil narsalar yasash hamda qumdan qasr va saroylar qurish ularda yaratuvchanlik, buyodkorlik hissini shakllantiradi. Turli buyumlarga bezaklar, dekoratsiyalar qilish ularda dizaynerlik mahoratini oshiradi. Qo‘g‘irchoq terapiyasi yordamida atrofidagi odamlar va hayvonlar haqidagi tasavvuri va duyoqarashi kengayrtiriladi. Ertak-terapiya usulini qo‘llash orqali ularning majoziy tafakkuri, fantaziysi, nutq qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiy psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonida art-terapiya usullaridan keng foydalanish ularning nafaqat badiiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ham jismoniy, ham intellektual qobiliyatlar shakllantirilishida ham katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ahолига сифатли ижтимоий хизмат ва ўордам ко‘рсатиш hamda uning samarali назорат тизимини yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 1-iyundagi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli “Alohiда та’лим ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.
3. Zarifova, D.O. (2023). Ranglarning fazoviy birikmalari va xususiyatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(5).159-162.
4. <https://inlibrary.uz/article.view>
5. https://uz.wikipedia.org/erkin_ensiklopediya



ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ САМОСОЗНАНИЯ

Д.Ю.Махмудова

Преподаватель кафедры педагогики, КГУ

Tel: +998(91)140-11-55

Аннотация: В статье рассматриваются важные факторы, способствующие самоосознанию учащихся младших классов школьного и старшего школьного возраста: социальная сознательность, социальная активность.

Ключевые слова: социальная реальность, самосознание, социальная активность, общественное сознание, нравственные нормы, духовное совершенство, образ «Я»

Человек является активным участником и творцом социальной реальности. Человек является главной движущей силой в развитии общества, является главным субъектом в деятельности, связанной со структурой общества, его экономическим и духовным развитием, полноценным обеспечением интересов человека и способствует развитию общества с учетом его духовного, образовательного и экономического обеспечения, а это значит, что человек осознает себя в обществе, асимилирует его среди молодежи, вносит свой вклад в развитие общества духовно в соответствии с мировыми требованиями выделяется на фоне других существ. Поэтому было высказано мнение, что главным предметом развития общества является отношение человека к духовности, самосознание, вдумчивое осмысление идей патриотизма.

Поскольку самовосприятие индивида является важной основой социальной деятельности, оно также входит в круг философских концепций. Причина этого в том, что самосознание индивида является характеристикой человека с социальным сознанием. Иными словами, самосознание индивида является продуктом общественного сознания

Самосознание – это процесс знакомства человека как личности, осознание его физических и умственных способностей, поступков и мотивов, отношения к окружающей среде и самому себе.

Самосознание также выражает духовное совершенство человека. Более того, формирование духовного мира человека зависит в первую очередь от степени его самосознания. Из этого следует, что самосознание является главным критерием развития и развития личности и общества, фундаментом духовного воспитания. Действительно, человек, который не знает и не понимает себя, не может быть способен к самоуправлению, по-своему.

Основа воспитания интеллектуально способного человека современности заключается в том, чтобы научить его самосознанию. Это стало самой актуальной проблемой педагогики в настоящее время. Ведь переход от одного общественного строя к другому, восхождение на новую ступень развития всегда будет побуждать любой народ вновь обретать свою идентичность, свое прошлое и настоящее, и на основе этого определять свое будущее. В таких условиях главной задачей нации и общества станет воспитание у нации самосознания, самоуправления в рамках нравственных норм, воспитание своих детей. Успешное решение этой задачи



обеспечивает понимание каждым учителем сути и сущности самосознания, рациональное использование различных методов и форм обучения самосознанию.

При этом важно решать эту задачу комплексно через духовное воспитание молодежи, формирование активной жизненной позиции, подготовку их к общественно необходимому полезному труду, обеспечение преемственности воспитательного воздействия.

Одной из главных задач обучения самоосознанию является эффективное использование и активизация всех источников формирования духовного сознания и нравственности подрастающего поколения. Основным источником духовного сознания и опыта духовной этики являются многогранные (учебные, трудовые, организационно-социальные, общественно полезные, художественные и др.) виды деятельности, создающие коллективные отношения обучающихся.

Понимание образования как целенаправленно организованной практической деятельности, процесса детей ставит необходимость определения педагогических факторов самосознания личности.

То, что человек, рожденный индивидуумом, вступает с рождением в общественные отношения, обуславливает то, что его социализация определяет то, что он становится самосознующим, т. е. сознательным. Сознание – это, прежде всего, самосознание. Воспитание обуславливает социализацию человека. Потому что это процесс формирования представлений индивида о себе и своих качествах. Чем правильнее и точнее каждый человек знает и может представить себе себя, тем меньше у него необходимости действовать вопреки обществу, в котором он живет, своей семье.

Самосознание будет претерпевать разные процессы в разном возрасте по мере взросления ребенка, и в каждый период характеристики будут формироваться под влиянием окружающей среды, обучения и воспитания. Он развивается совереннее, чем когда-либо прежде, особенно к подростковому возрасту. В этот период формируется самовосприятие студента и содержание его деятельности в результате вступления в отношения на трех основных этапах: игра, учеба и работа. Читатель может и сам этого не заметить. Формирование образа «Я» и возникновение его положительных и отрицательных качеств зависит от социальной среды, в которой формируется этот человек, от отношения к нему окружающих, а этот образ «Я» является процессом, приписываемым сознанию. Это и составляет содержание деятельности этого индивида.

Самосознание и активизм также связаны с концепцией гендера. Самовосприятие девочек и мальчиков-подростков, как женщин, так и мужчин, уникально. Если положительный образ «Я» у девочек зависит от умения воплощать женские качества, то образ у мальчиков в большей степени гармонирует с критериями физического совершенства

Как известно, самоощущение каждого человека непосредственно проявляется с подросткового возраста (с 12 лет) до первого подросткового возраста (15-16 лет). В 12 лет у подростка развивается интерес к своему внутреннему миру, а затем углубляется, и переходит в состояние дифференциации и обобщения. Это, в свою очередь, создает основу для того, чтобы подросток представлял себя целостной личностью в период своего первого полового созревания. В результате в возрасте 16-17 лет создается новая личностная деривация, которая движима



термином «самоопределение». Самосознание как психологический феномен воплощает в себе когнитивные (плач, эмоционально-эмоциональные (само отношение) и регулятивные (упорядоченное управление) единицы

В заключение можно сказать, что воспитание социальной активности у студентов, в том числе и студенческой, на основе формирования у молодежи чувства самосознания, которое непосредственно отражается на всех гранях общественной жизни, имеет ряд внутренних и внешних факторов, на которые желательно обращать внимание в учебном процессе

Список литературы:

1. Махкамов У. Проблемы формирования нравственной культуры студентов. -Т.: Узбекистан. 1993.
2. Эркабоева Н. Развитие педагогической мысли в Узбекистане в годы независимости (1992-2005 гг.) Монография Т.: Наука, 2005
3. Абдуллаев Х. Аннотированный словарь из педагогики. Фергана, 2007



АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

BINOLAR ICHKI VA TASHQI DIZAYNI G'oyasini Yaratishda Sun'iy INTELLEKTNING ZAMONAVIY TURLARIDAN UNUMLI FOYDALANISH

A'zamova Durdonav Avazjon qizi

Toshkent Arxitektura Qurilish universiteti doktoranti,

erkinovadurdona93@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada interyer dizaynida sun'iy intellektdan foydalanish alternativ variant sifatida ko'rsatilgan. Sun'iy intellektning zamonaviy dizayn yaratishda vaqt tejamkorligi va g'oyaviy xilma-xillikni ta'minlashdagi samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Zamonaviy texnologiyaning qaysi turlaridan foydalanish afzal ekanligi haqida tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В этой статье использование искусственного интеллекта показано в качестве альтернативного варианта в дизайне интерьера. Искусственный интеллект предоставляет информацию об эффективности временного экономического и идеологического разнообразия в создании современного дизайна. Рекомендации для предпочтения, какие типы современных технологий являются предпочтительными.

Annotation: In this article, the use of artificial intelligence is shown as an alternative option in interior design. Artificial intelligence is provided by information about the effectiveness of temporary economic and ideological diversity in creating modern design. Recommendations for preference, what types of modern technologies are preferable.

Kalit so'zlar: Sun'iy, intellekt, AI, interyer dizayni, 3D modellashtirish, 2D va 3D vizualizatsiya, BIM, ergonomika, funksionallik, dizayn konsepsiysi, rang palitrasи, shift, qurilish ashyosi, ornament.

Ключевые слова: искусственный, интеллект, ИИ, дизайн интерьера, 2D - моделирование, БИМ, функциональная, концепция дизайна, цветовая палитра, потолок, строительные материалы, орнамент.

Key words: artificial, intelligence, AI, interior design, 2D -modeling, BIM, functional, design concept, color palette, ceiling, building materials, ornament.

Kirish. Zamonaviy dunyo jadal texnologik taraqqiyot davrini boshdan kechirmoqda va sun'iy intellekt (AI) ko'plab sohalarda, jumladan, interyer dizaynida asosiy vositaga aylanmoqda. Ma'lumotlarni tahlil qilish, g'oyalarni yaratish va jarayonlarni avtomatlashtirish qobiliyati bilan sun'iy intellekt bizning funksional va estetik makonlarni yaratishimizda foydali yordamchiga aylandi.

Sun'iy intellekt tarixi 700 yildan oshadi. Ispan ritsari, shoir, faylasuf, kimyogar Raymund Lulliy o'z davrida sun'iy intellektning ilk namunalarini yaratish bo'yicha bosh qotirgan. Lekin davr odamlarining qarshiliklari tufayli turli to'siqlarga uchragan[8]

«Intellekt» so'zi lotincha «intellectus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u bilish (aniqlash), tushunish yoki fahmlash (aql) ma'nosini beradi.

Sun'iy intellekt ikki so'zdan iborat bo'lib, Artificial intelligence, bu yerda



Artificial-sun'iy “inson tomonidan yaratilgan” va intelligence-intellekt “aql-idrok, fikrlash” ni bildiradi, shuning uchun sun'iy intellekt “inson tomonidan yaratilgan aql-idrok, fikrlash” degan ma’noni ham anglatadi

Sun'iy intellektning yetuklikka erishish davri (1957-1979). 1950-yillarning oxiri va 1960-yillar boshida ijod davri bo‘lgan. O’sha vaqtda qo‘llanilayotgan dasturlash tillaridan tortib robotlar g‘oyasini o‘rganuvchi kitoblar va filmlargacha sun'iy intellekt asosiy g‘oyaga aylandi. Yaponiyada qurilgan birinchi antropomorfik robot, muhandislik fakulteti talabasi tomonidan qurilgan avtonom avtomobilning birinchi namunasi hisoblangan. Biroq, bu sun'iy intellekt tadqiqotlari uchun kurash davri ham bo‘lgan, chunki AQSh hukumati sun'iy intellekt tadqiqotlarini moliyalashtirishni davom ettirishga unchalik qiziqish bildirmagan. [3]

«Sun'iy intellekt» tushunchasiga turlicha ma’no kiritish mumkin. Turli mantiq va hisoblash masalalarini yechuvchi EHMDagi intellektni e’tirof etishdan tortib, to insonlar yoki ularning ko‘pchilik qismi orqali yechiladigan masalalar majmuasini yechadigan intellektual sistemalarga olib boradigan tushunchagacha kiritish mumkin[1]

AI interyer dizayni vositalari - bu ichki dizayn vazifalarida yordam berish uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan dasturiy ilovalar. Bu vositalar foydalanuvchining xohishiga ko‘ra xona maketlarini yaratuvchi sun'iy intellekt asosida ishlaydigan dizayn generatorlaridan tortib to kengaytirilgan reallikdan foydalangan holda xonaga mebellarni virtual joylashtira oladigan murakkab dasturiy ta’mintgacha bo‘lishi mumkin[2]

Методлар. Interyer dizaynida sun'iy intellektdan foydalanish bir qancha quayliklarni keltiradi:

1. Interyerni shaxsiylashtirish. AIning interyer dizaynidagi asosiy afzalliklaridan biri uning mijozlarning xohish va ehtiyojlarini hisobga olish qobiliyatidir. Mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalangan holda, AI foydalanuvchi uslubi, ranglari, materiallari va odatlari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Bu bizga individual ehtiyojlarga to‘liq moslashtirilgan noyob interyerlarni yaratishga imkon beradi. Masalan, Planner 5D yoki HomeByMe kabi sun'iy intellektga asoslangan ilovalar foydalanuvchilarga ularning didiga mos keladigan tayyor yechimlarni taklif etadi.

2. Joyni optimallashtirish. AI dizaynerlarga bo‘sh joydan, ayniqsa tor joylarda samarali foydalanishga yordam beradi. 3D modellashtirish va optimallashtirish algoritmlaridan foydalangan holda, AI ergonomika va funksionallikni hisobga olib, mebellarni joylashtirish va zonalarni taqsimlash variantlarini taklif qiladi. Bu, ayniqsa, aholi zichligi yuqori bo‘lgan shaharlarda muhim ahamiyatga ega, bu yerda har bir ichki detal muhim rol o‘ynaydi.

3. G‘oyani yaratish va ilhomlantirish. Generativ neyron tarmoqlar kabi AI algoritmlari yangi dizayn tushunchalari va uslublarini yaratishi mumkin. Ular yangi g‘oyalarni ishlab chiqish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni, jumladan fotosuratlar, chizmalar va tarixiy misollarni tahlil qiladilar. Misol uchun, sun'iy intellekt ilgari dizayner tomonidan ko‘rib chiqilmagan ranglar yoki materiallarning kutilmagan kombinatsiyasini taklif qilishi mumkin, bu esa ijodda yangi ufqlarni ochadi.

4. Ish jarayonini tezlashtirish AI tufayli ichki dizayn va amalga oshirish jarayonlari tezroq va samaraliroq bo‘lmoqda. Dizaynerlar chizmalar va hisoblarni avtomatlashtirish uchun sun'iy intellektga ega BIM kabi vositalardan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, AI xarajatlarni bashorat qilish, xatolarni kamaytirish va material tanlashni optimallashtirishga yordam beradi.



5. Barqaror rivojlanish va ekologik tozalik. AI barqaror dizaynni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Algoritmlar ekologik toza materiallarni tanlash, energiya sarfini hisoblash va interyerning uglerod izini kamaytiradigan yechimlarni topishga yordam beradi[9]Masalan, sun’iy intellekt energiya tejovchi yoritish tizimlarini yoki atrof-muhitga zarar etkazmaydigan devor va pol qoplamlarini taklif qilishi mumkin.

6. Qiyinchiliklar va cheklovlar. Aniq afzallikkarga qaramay, interyer dizaynida sun’iy intellektdan foydalanish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Birinchidan, jarayonlarni avtomatlashtirish ba’zan dizaynning hissiy tarkibiy qismining pasayishiga olib keladi, bu qulay muhit yaratish uchun muhimdir. Ikkinchidan, AI hali badiiy idrok va sezgi masalalarida odamlarni to’liq almashtirishga qodir emas.

Ushbu vositalarning asosiy xususiyatlari ko’pincha 2D va 3D vizualizatsiya, mebellarni joylashtirish, rang va material tanlash va hatto shaxsiy dizayn tavsiyalarini o‘z ichiga oladi. Ichki dizaynning ko‘p vaqt talab qiluvchi jihatlarini avtomatlashtirish orqali ushbu vositalar foydalanuvchilarga ijodiy jarayonga e’tibor qaratish va o‘z makonida oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi[2]

Natijalar. Quyida interyer dizayni uchun kerakli sun’iy intellekt saytlar ro‘yxati ko‘rsatilgan:

1. ReimagineHome
2. Homestyler
3. Neo Foyr
4. DecorMatters
5. Midjourney

Bu saytlar orqali interyer konsepsiyasini yaxshilash mumkin.

ReimagineHome sun’iy intellekti, har bir xonani jismoniy kuch sarflamasdan yangilash uchun yangi materiallar, ranglar va naqshlarni o‘rganish imkonini beruvchi tezlik bilan me’moriy yangilanishlarni taqdim etadi. Foydalanuvchilar real vaqtida devor, shift va yog‘och o‘zgarishlarini tasavvur qilishlari, yangi materiallarni tanlashlari va o‘zgarishlarni bir zumda ko‘rishlari mumkin. Platformada, shuningdek, maydonni tozalash va tashqi ko‘rinishni yaxshilash vositalari, jumladan, maysazor va hovuz suvini virtual yaxshilash va osmonni almashtirish mavjud. Oshxona va hammomni ta’mirlash deyarli vizual tarzda ko‘rsatilishi mumkin, shkaflar, stol ustti, orqa va devor plitalari o‘zgaradi. Bundan tashqari, “ReimagineHome” AI interyer dizayneri mulkni o‘zgartirish va dizayn konseptualizasiysi uchun keng qamrovli to‘plamni taklif qilib, fotoreal dizayn g‘oyalari ni ishlab chiqaradi[2]

Munozaralar. Bu saytlardan foydalanish uchun saytdan ro‘yxatdan o‘tish, elektron pochta manzilini kiritish zarur bo‘ladi. Ba’zi saytlarda 3 kun yoki 3 marta urinish tekin, qolgan kunlar uchun pullik obuna so‘ralishi mumkin.

Dizayn konsepsiyasini yaratish uchun g‘oyalarni olishda ham sun’iy intellektdan foydalanish mumkin. G‘oyalarni bir necha xil generatsiyalaridan bir yahlit konsepsiya yaratish mumkin. Chatgpt sun’iy intellektidan ham dizayn konsepsiyasini yaratish uchun keng foydalanish mumkin.

Interyer dizayni ko‘rinishi vizualizatsiyasini sun’iy intellekt orqali yaratishning uchun bir necha usullari mavjud:

1. Xonaning o‘lchamlarini kiritib, tasvirlash orqali unga dizayn yaratish;
2. Xonaning qoralama ta’miri tushirilgan rasmni yuklash orqali unga dizayn yaratish;



3. Jihozlarning kombinatsiyasini joylashtirib, unga uslub tanlagan holatda dizayn yaratish (jihozlarning png, jpeg formatdagi faylini saytlardan olish mumkin;
4. Tayyor dizayn uslubida ta'miri qilingan xonani ham dizayn uslubini boshqasiga o'zgartirish mumkin;

Ba'zida murakkab ornamentlarni yaratish dizayner vaqtini ko'pgina qismini oladi. Shu ornamentlarni yaratish, tahrirlash va jihozlarga moslashtirish kabi vazifalarni sun'iy intellekt osonlik bilan bajara oladi. Bundan tashqari dizaynerga ornamentlarning juda ko'p alternativalarini bera oladi.

Ornament- rassomchilik jihatidan qiyinchilik bilan tushuniladigan murakkab bezak. Bu davr imzosi, estetik kategoriyadir[10] Shuning uchun ornamentlardagi murakkab ma'nolarni anglashda inson omili zarur, lekin, sun'iy intellektdan yordamchi sifatida foydalanish mumkin.

Bundan tashqari qurilish va ta'mirlash uchun sarflanadigan barcha xarajatlar sun'iy intellekt yordamida hisoblanishi mumkin. Shuningdek, o'ziga xos shablon yaratib me'morchilik va bezaklashtirish an'analarini saqlash, ularni avloddan-avlodga o'tkazish hamda milliy me'morchilik an'analarini saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Sun'iy intellekt interyer dizaynerlar uchun yaqin yordamchiga aylanib, shaxsiylashtirish, go'zallashtirish va estetika uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Biroq, bu jarayonda asosiy rol hali ham o'zining individualligi va ijodkorligini ichki dizaynga olib keladigan shaxs- "Inson" tomonidan o'ynaydi. Odamlar va sun'iy intellekt birgalikda nafaqat funktsional talablarga javob beradigan, balki ularning go'zalligi va uyg'unligi bilan ilhomlantiradigan joylarni yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. SH. Bekqulov. I.Ibragimov "Sun'iy intellekt asoslari" Qarshi, 2023 ma'ruzalar matni
2. <https://www.unite.ai>
3. B.Sh. Maxkamov, X.N. Zaynidinov, J.N. Nurmurodov "Sun'iy intellekt asoslari" Toshkent 2024. 11 b.
4. ReimagineHome.com
5. <https://neo.foyr.com>
6. <https://playground.com>
7. DecorMatters.com
8. Л.Н. Ясницкий «Введение в искусственный интеллект» Москва 2010 с 6.
9. Azamova D. A. HISTORY OF THE USE OF COLOR PAINTS IN ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 7.
10. Н.Иванов «Орнамент-герменевтика и глоссарий» 2018 с 10.



ТАСВИРИЙ САНЬАТ ВА ДИЗАЙН ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

MUTAHASISLIK HAYKALTAROSHLIK FANIDA DEKORATIV
HAYKALCHALAR ISHLASH.

Yakubova Nafisa Odiljanovna

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

+998975692991 nafisaodiljonovna@gmail.com

1-kurs Amaliy san'at (badiiy kulolchilik) talabasi

Ibrohimova Saida Nurmat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar bo'sh vaqtida dekorativ hykalchalar, buyumga dekorativ bezaklar berish bilan bir qatorda ularning malakalarini oshirib boorish. Hamda mutahasislik bo'yicha haykaltaroshlik fanlariga ko'rgazmali materiallar yasash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Bilim, tarbiya, epistemologiya, tarbiya, estetik, proyeksiya, model, ko'rgazma.

Haykaltaroshlik –tasviriy san'at turi; borliqni hajmli shakllarda, makonda uch o'lchamda tasvirlashga asoslanadi. Tasvir ob'yekti, asosan, inson; shuningdek, hayvonlar (anima-listika), tabiat (manzara) va narsalar (natyurmort). Haykaltaroshlikning ikki asosiy ko'rinishi-aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal hamda faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'rtma (qabariq) tasvir relyef turi farqlanadi. Relyef, o'z navbatida, yuzaga nisbatan bir oz bo'rttirib ishlanadigan barelyef hamda tasvir yuzaga nisbatan ancha bo'rttirib ishlanadigan gorelyefta bo'linadi; shuningdek nursoya o'yini hisobiga tasvir ko'zga tashlanadigan tekis yuzaga ishlanadigan yana o'yma ko'rinish mavjud.

“Amaliy san'at” tushunchasi “badiiy hunarmandchilik”, “amaliy-bezak san'ati” deb ham yuritiladi. Ushbu tushunchalarni-amaliy san'at buyumlarining ikki xil tabiatni, ya'ni bir-biri bilan bog'liq badiiy va amaliy vazifalari o'zaro birlashtiradi. Shuning uchun ham hunarmandchilik va badiiy hunarmandchilik buyumlari bir-biridan farq qiladi. Ish quroli, uy-ro'zg'or buyumlari sanaladigan bolta yoki ketmon hunarmandchilik buyumidir. Chiroyli naqshlar bilan bezatilgan lagan yoki xontaxta esa amaliy san'at asadir.

Mutahasislik bo'yicha haykaltaroshlik fanimizda biz ko'proq dekorativ haykalchalar va dekorativ buyumlar ishlab kelmoqdamiz. Dekor shunchaki bezak emas, balki ko'proq narsa deb tushunilgan. Lotin ritorikasida “dekor”, “loyiq ezgulik” degan ma'noni anglatadi, “sharaf” bilan bir xil –“maqtov, shon-sharaf, hurmat” ma'nosida “bezatish”. “Dekor” so'zi “aldash” dan olingan –“nima mos keladi”. Tsitseronning so'zlariga ko'ra, yunonlar uni “prepon” deb atashgan, ammo biz uni “decorum” deb ataymiz. “Decor ornamentorum”, “bezaklarning mosligi”, detallarning butunga nisbatan asoslanishini anglatadi.

Amaliy kulolchilik honamizda darsadan bo'sh vaqtimizda dekorativ buyumlarni ishlaymiz, men tanlagan buyumim uchun bir nechta eskiz tayyorlab oldim. Eskiz-badiiy asar yoki uning alohida qismlari g'oyasini aks ettiruvchi dastlabki qoralama, xomaki asar.



Eskizda bo'lajak asarning kompozitsiya yechimi, shakllarning fazoviy kenglikda joylashuvi va ularning o'zaro nisbatlari, umumiy rang tizimi xususiyatlari va boshqalar belgilab olinadi. Eskiz grafika, rang-tasvir, haykaltaroshlikda ularning tasvir vositalari yordamida ishlanadi. Eskiz erkin, tez qoralama tarzida bajariladi, ayrim hollarda bo'lajak asarning mayda unsurlari ham o'z aksini topadi. Ko'p hollarda eskiz mustaqil asar darajasiga ko'tarilishi va badiiy qiymatga ega bo'lishi mumkin.



Ibrohimova Saida (Dekorativ qalamdon)

Tanlangan buyumni bajarish jarayonida men loyni yaxshilab pshirib oldim, loyni ichida havosi qolmaganligiga ishonch hosil qilganidan keyin buyum yasash jarayonini boshladim. Rahbarim bilan tanlangan buyumni yasashda 2,5 kilo loy ketadi uni pishtladi birnch bo'lib kaft bilan loyni ezeladi bu loyni ichidagi xavosi chqb ketishi uchun keyin mushlanadi ichda xavosini chqarb tashlagandan keyin uni yerga urb jipslashtramz yani preslaysiz uni kesib ichda xavosi yo'qligi ishonch xosil qilamiz agar g'avak joyi bo'lsa yana qaytadan pishiramiz tayyor bo'lgan bo'lsa yasashni boshlaymiz. Birinchi eskizni taylorlaymiz va kulolchilik charxida ko'zamizni tayyorlab olamiz, buyum ustiga eskizda ko'rsatilgan dekorativ bezagimizni bera boshlaymiz. Shu jarayonda loyni ertib kilay taylorlaymiz va bir birga yopishtiramiz yasashni davom ettiramiz.

Ustaxonaga olib keltirilgan chog'on va qora o'roqqa qum aralashtirib qo'lni namlab guvala qilinadi va humbzuga qo'yiladi hamda uni yuqori daraja issiqlikda qizdiriladi. Natijada u toshga aylanadi. Keyin esa ikkinchi marta xumbuzning tokchasiga qo'yiladi. Yuqori darajada qizdirish natijasida u pastki oxirga oqa boshlaydi va u oppoq rangga o'tgan bo'lsa tayyor bo'lgani. Agarda u qoramitir tusda bo'lsa shu jarayon yana qaytadan davom ettiriladi. Hosil bo'lgan oq toshsimon ishqorni tegirmonda un holiga kel-tirib maydalanadi. Bu ishqor uniga yangi bug'doy unidan atala pishirib qozonda qorishtiriladi. Qozonga suv solinib bulg'ab suyuqlik holiga keltiriladi. Hosil bo'lgan xom ashyo tabiiy ishqor siri deb aytildi.

Tabiiy ishqor siridan tayyorlangan mahsulot yuziga cho'mich bilan beriladi. Pechda bu sir 1000-1200 daraja issiqlikda loyga shunday kirishib ketadiki u issiqlikka ham, sovuqda ham o'z xusu-siyatini yo'qotmaydigan bo'lib qoladi.



1. E.Saiko. “Markaziy Osiyoda kulolchilik, shisha va chini”. Toshkent, 1998- yil 86-bet.
2. Qadimiy O’zbekiston madaniyati va san’ati jurnali. Toshkent, 2002-yil, 9-bet.
3. Razvodovskiy V., Opit issledonaniya goncharnogo i nekotorix drugix kustarnix promislov v Turkestanskom kraye, T., 1916;
4. Raximov M. K., Varodnie traditsii v sovremennoy xudojestvennoy keramike O’zbekistova, T., 1964;
5. S.Bulatov “Uzbek xalk Amaliy bezak san’ati” Toshkeknt “Mexnat”1991yil.



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

CHORRAHALARDA TRANSPORT VOSITALARI TIRBANDLIGINI
KAMAYTIRISH YO'LLARI

Xafizov Dilbek Abdug‘ani o‘g‘li

Qarshi davlat texnika universiteti magistranti

+998977389394

E-mail: muxlisah@gmail.com

Annotatsiya: Shahar va qishloqlarda, aholi ko‘p bo‘lgan hududlarda, hamda chorrahalarda transport vositalarni tirbandligini bartaraf etish usullari haaqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: transport, yo‘l, chorraha, usul, kesishma, infratuzilma, haydovchi

Аннотация: В статье рассматриваются методы устранения заторов в городах и поселках, в густонаселенных районах и на перекрестках.

Ключевые слова: транспорт, дорога, перекресток, метод, перекресток, инфраструктура, водитель

Abstract: The article discusses methods for eliminating traffic jams in cities and villages, in densely populated areas, and at intersections.

Keywords: transport, road, intersection, method, intersection, infrastructure, driver

Zamonaviy shahar hayotida transport tizimining samarali ishlashi — aholining harakatchanligi, iqtisodiy faoliyat, ekologik xavfsizlik va yashash sifati uchun muhim omildir. Ayniqsa, chorrahalar (kesishuvlar) transport tirbandliklarining asosiy nuqtalaridan biri sifatida e’tiborni tortadi. U yerda avtomobillar harakatining tartibsizligi, svetoforlarni muvofiqlashtirmaslik yoki muhandislik xatoliklari tirbandliklarga olib keladi. Aholi zichligi va transport vositalari sonining ortib borishi shaharlarda, ayniqsa, chorrahalarda tirbandlik muammosini keskinlashtirmoqda. Bu holat nafaqat haydovchilar, balki atrof-muhit, iqtisodiyot va shahar infratuzilmasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun transport tizimini optimallashtirish va chorrahalardagi harakatni samarali boshqarish dolzarb masala hisoblanadi. Tirbandlik sabablarini tahlil qilish:

- Tirbandlikning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi;
- Avtomobil sonining ko‘pligi va shaxsiy transport vositalarining ustuvorligi;
- Chorrahada transport oqimining notekis taqsimlanishi;
- Svetoforlar ishining muvofiqlashtirilmaganligi;

Yiqilma yo‘llar, noqonuniy to‘xtashlar va nosoz infratuzilma. Shuningdek, transport vositalarining bir maromda harakatlanmasligi, piyodalar harakati va jamoat



transportining tartibsiz ishlashi ham tirbandlikni kuchaytiradi [1.12]. Intellektual transport tizimlari (ITS – Intelligent Transport Systems) orqali chorrahalarda tirbandlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. ITS yordamida real vaqt rejimida transport oqimini kuzatish, svetoforlarni avtomatik sozlash va harakatni boshqarish imkoniyati yaratiladi. Misol uchun, Yevropaning ko‘plab yirik shaharlari, jumladan, Amsterdam, Barselona va Vena shaharlarida “aqli svetoforlar” joriy etilgan bo‘lib, ular tirbandlik darajasiga qarab avtomatik ravishda svetofor davrini o‘zgartiradi [2]. Jamoat transportining rivojlanishi, xususan, avtobuslar, tramvaylar va metroning aholi uchun qulay va arzon bo‘lishi avtomobillardan foydalanish zaruratini kamaytiradi. Shu orqali shaxsiy transport vositalari soni kamayib, tirbandlik bartaraf etiladi. Shuningdek, avtobusga ajratilgan maxsus yo‘laklar va “park and ride” tizimlari orqali haydovchilar shaxsiy avtomobilini shaharga kirish oldida qoldirib, jamoat transportidan foydalanishi rag‘batlantiriladi [3].

Chorrahalarda transport vositalari tirbandligini kamaytirish – zamonaviy shaharsozlik, yo‘l harakati xavfsizligi va transport tizimini rivojlantirishning dolzARB muammolaridan biridir. Aholi sonining ko‘payishi, avtomobil egaligining ortishi va shahar infratuzilmasining yetarli darajada takomillashmaganligi ushbu muammoni yanada keskinlashtirmoqda. Shu sababli, tirbandlikni kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Avvalo, transport oqimini optimallashtirishda aqli transport tizimlari (ITS – Intelligent Transport Systems) muhim rol o‘ynaydi. Masalan, adaptiv svetofor boshqaruvi, real vaqt rejimidagi harakat ma’lumotlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalari orqali chorrahalardagi harakatni muvozanatlashtirish mumkin. Bunday texnologiyalar transport vositalari oqimini samarali taqsimlab, vaqt va yoqilg‘i tejalishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, chorrahalarda yo‘l harakatini yaxshilash uchun jismoniy infratuzilma, xususan, ko‘priklar, yerosti va yerusti yo‘llari, aylana harakat tizimlari, qo‘sishimcha harakat tarmoqlari va bo‘linma chiziqlari barpo etilishi zarur. Bu esa, transport oqimining bir xil yo‘nalishda harakatlanishini ta’minlaydi va to‘qnashuv ehtimolini kamaytiradi.

Shuningdek, ommaviy transport vositalarini rivojlantirish, ularning jadalligi, qulayligi va xavfsizligini oshirish ham avtomobillardan foydalanish darajasini kamaytirishga yordam beradi. Aholini shaxsiy avtomobillar o‘rniga jamoat transportiga o‘tishga undovchi rag‘batlantirish choralar (masalan, arzon chipta tizimi, tez harakatlanuvchi avtobus yo‘laklari, elektron to‘lov tizimi) muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, piyodalar va velosipedchilar uchun qulay va xavfsiz infratuzilmani yaratish orqali qisqa masofalarga bo‘lgan avtomobil qatnovi kamaytiriladi. Bu esa tirbandlikni kamaytirish bilan birga ekologik holatni ham yaxshilaydi.

Chorrahalarda svetoforlarning muvofiqlashtirilgan ishlashi, ya’ni “yashil to‘lqin” (green wave) tizimi transport vositalarining bir maromda harakatlanishini ta’minlaydi. Bu usul orqali haydovchilar har bir chorrahada to‘xtashdan qutuladi va yo‘l davomida



tirbandlik yuzaga kelmaydi [4.27]. Transport oqimini modellashtirish orqali chorrahalardagi harakatni oldindan prognoz qilish va shunga muvofiq ravishda chorraha loyihasini takomillashtirish mumkin. Bu borada SUMO, PTV VISSIM kabi dasturiy ta'minotlar keng qo'llaniladi. Shahar infratuzilmasida velosiped va piyodalar uchun alohida yo'laklarning mavjudligi avtomobil harakatiga tushadigan bosimni kamaytiradi. Shu sababli, ekologik toza va muqobil transport vositalariga ustuvorlik berilishi zarur. Noqonuniy to'xtash, svetofor qoidalariga amal qilmaslik, transport vositalarining tartibsiz harakati tirbandlikni kuchaytiradi. Bu holatlarning oldini olish uchun jarimalar va avtomatlashtirilgan kuzatuv tizimlari joriy etilishi lozim [5.45].

Chorrahalarda tirbandlikni kamaytirish birgina muhandislik ishlari bilan emas, balki kompleks yondashuv — texnologiya, muvofiqlashtirish, infratuzilma va jamoat transporti siyosati orqali amalga oshiriladi. Har bir shahar o'zining aholi zichligi, yo'l tarmog'i va transport oqimlariga qarab mos yechimni tanlashi muhim. Buni kamaytirish — kompleks yondashuvni talab qiladigan muammo. Intellektual boshqaruvin tizimlari, svetoforlarning muvofiqlashtirilgan ishlashi, jamoat transportining rivojlanishi va qat'iy nazorat choralarini birlashtirish bo'yicha qo'llash orqali bu muammoni hal etish mumkin. Shu bilan birga, fuqarolarning transport madaniyatini oshirish ham asosiy omillardan biridir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, chorrahalarda transport tirbandligini kamaytirish uchun texnologik, tashkiliy va muhandislik choralarining uyg'unligi talab etiladi. Mahalliy hokimiyatlar, yo'l harakati xizmatlari, shaharsozlik mutaxassislari va fuqarolar o'rtaqidagi hamkorlik muammoning samarali hal qilinishida muhim omildir. Kompleks yondashuv orqali nafaqat tirbandlikni, balki avtohalokatlar va ekologik muammolarni ham kamaytirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmadjonov, B. (2020). Shahar transporti tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. *Transport va logistika jurnali*, №3, 12.
2. European Commission. (2018). Smart Mobility and Traffic Management. <https://ec.europa.eu>
3. Tashkent City Hall. (2021). Jamoat transporti islohoti doirasidagi loyihalar. <http://tashkent.uz>
4. Karimov, M. (2019). Yashil to'lqin tizimi va transport oqimini optimallashtirish. "Texnika va transport" jurnali, №2, 27.
5. Qo'chqorov, A. (2023). Transport intizomi va huquqbazarliklarning oldini olish masalalari. Ichki ishlari jurnali, №1, 45–50.



AVTOMOBIL BAMPLERLARINI SIFATINI O'RGANISH TEXNOLOGIYASI

Qo'shaqov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li

Andijon davlat texnika instituti talabasi

Ilmiy Raxbar: Phd Yo'ldashev Abdusamat

ANNOTATSIYA: Mazkur tezisda avtomobil bamperlarining asosiy vazifalari, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan materiallar hamda ularning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash texnologiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, bamperlarning mustahkamlik, elastiklik va zarbani so'rish xossalari baholash usullari yoritilgan.

